O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI



Sohibqiron Amir Temur
tavalludining 687 yilligiga
bag‘ishlanadi

AXMEDOVA M.T. DEVYATKIN A.V.

AMIR TEMUR DAVLATIDA XAVFSIZLIK MASALALARINING HUQUQIY ASOSLARI

Monografiya

TOSHKENT-2023

KBK: 63.3
A-95

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Kengashida ma’qullangan va nashrga tavsiya etilgan. 2023 yil 27 yanvar kunidagi 6-sonli bayonnoma.

Axmedova M.T. Devyatkin A.V. Amir Temur davlatida xavfsizlik masalalarining huquqiy asoslari. Monografiya. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2023. – 175 b.

Ushbu monografiyada Amir Temur davlati va boshqaruvining huquqiy asoslari va asosiy tamoyillari, davlat boshqaruvida “Temur tuzuklari”ning o‘rni, mamlakat hududi va sarhadlari xavfsizligi jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash, Amir Temurning harbiy siyosiy boshqaruvi atroflicha tahlil etilgan.

Monografiya huquqshunos va tarixchilar, qolaversa, mavzuga qiziquvchan keng kitobxonlar uchun mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir:

Mirakulov M.M. yuridik fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

Madraimov A.A. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Temuriylar tarixi davlat muzeyi bo‘limi mudiri, tarix fanlari doktori, professor;

Muhitdinova F.A. Toshkent davlat yuridik universiteti “Davlat va huquq nazariyasi” kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori, professor

Raximov J. O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Ijtiomiy fanlar kafedrasi professori, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

© M.T.Axmedova, Devyatkin A.V. 2023
© O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2023

KIRISH

Sohibqiron Amir Temur hayotini o‘rganish, uning markazlashgan davlat boshqaruvidagi o‘ziga xos xususiyatlarni tadqiq etishga qaratilgan qator ishlar muntazam amalga oshirilib kelinmoqda. Amir Temur davriga oid har qancha tadqiqotlar amalga oshirilmasin, yana shu sohani o‘rganiladigan jihatlari paydo bo‘laveradi. Amir Temur davlat boshqaruviga qiziquvchilarning jahon maydonida kundan-kunga oshib borayotgani fikrimizning yaqqol dalilidir. Fransiya, Buyuk Britaniya va Germaniyada Amir Temurga nisbatan juda kuchli hurmat va ehtirom ko‘rsatiladi. Yevropada XV asrdayoq Amir Temurga yodgorlik o‘rnatilib, unga **“Yevropaning haloskori”** degan chuqur ramziy so‘zlar yozib qo‘yilgani har bir o‘zbekning yuragida faxr-iftixor tuyg‘ularini yanada jo‘sh urdiradi.

“Temur tuzuklari”ning qimmatli manba sifatida butun dunyoda o‘rganilishi, uning mazmun-mohiyati hech qachon eskirmasligi hamda o‘z qiymatini yo‘qotmasligi barchaga ayon. Jumladan, Amir Temurning “Siyosatda maslahat, mulohazakorlik, o‘ylab ish qilish, qurol kuchidan ko‘ra o‘n barobar foydaliroqdir”[1], - degan dono so‘zlari aynan hozirgi vaqtdagi davlatlar o‘rtasida yuz berayotgan nizoli masalalarni siyosiy muloqot, diplomatiya yo‘li bilan hal qilishni bildiradi. Amir Temurning buyuk tarixiy xizmatlaridan biri, uning harakatlari tufayli Osiyo va Yevropa davlatlari bir makonda ekanliklarini ilk bor anglab yetganlar hamda Ispaniya, Germaniya, Fransiya va Angliya kabi davlatlar bilan diplomatik aloqalarni o‘rnatgan. Amir Temur davlatida qaysi bir mamlakat

[1] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 5.

bilan aloqa o‘rnatilmasin, eng birinchi navbatda davlat xavfsizligi va qonun ustuvorligining ta’minlanishi muhim o‘rin tutgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Sohibqiron Amir Temur bobomiz “Davlat qonunlar asosida qurilmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tarkibi yo‘qoladi”, deb ta’kidlagan edilar. Shu nuqtai nazardan, Konstitusiya va qonun ustuvorligini ta’minlash biz bunyod etayotgan demokratik huquqiy davlatning bosh mezoni hisoblanadi”[2].

Jahonning bir qator yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlari, oliy ta’lim muassasalari tomonidan Markaziy, Janubi-G‘arbiy Osiyo xalqlari tarixini o‘rganish tadqiqotlari doirasida Sohibqiron Temur va Temuriylar davlati tarixiga oid izlanishlar olib borilmoqda.

Vatanimiz jadal rivojlanib borayotgan bugungi kunda o‘zbek davlatchiligida siyosiy huquqiy qarashlar va g‘oyalarning shakllanishi va rivojlanishi, uning huquqiy manbalari, qolaversa, qonunchilik masalalari haqida muayyan bilim va tushunchalarga ega bo‘lish ham nazariy, ham amaliy jihatdan muhimdir. Amir Temur davlatida qo‘llanilgan adolat tamoyillari aynan hozirgi kunda eng yaxshi yordamchi kuch vazifasini o‘taydi va jamiyatda shaxsning siyosiy, axloqiy va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

[2] Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 27 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги “Конституция ва қонун устуворлиги – ҳуқуқий демократик давлат ва фуқаролик жамиятининг энг муҳим мезонидир” номли маърузаси. // Халқ сўзи, 2019 йил 9 декабрь.

I BOB. AMIR TEMUR DAVRIDA DAVLAT BOSHQARUVINING HUQUQIY ASOSLARI

1.1. Amir Temur davlati tashkil topishi va boshqaruvi

Milliy mustaqillik tufayli O‘zbekistonda Amir Temurni tanish va o‘rganish, xolisona tarixdan ogoh bo‘lish kabi imkoniyatlarga yo‘l ochildi. Ulkan tarixiy siymolarimiz qatoridan munosib o‘rin egallagan Amir Temurga munosabat tubdan o‘zgargani ham fikrimizning isbotidir.

To‘g‘ri, sho‘ro davri tarixchilarining asarlarida, Amir Temur benihoya johil, zolim va qonxo‘r mustabid tuzum hukmdori sifatida talqin etilgan.

Darhaqiqat, Temur o‘z davlat tuzumini qurishi arafasida Turkistonda mo‘g‘ul iqtidori, idora va boshqaruv usuli, davlatchilik tuzumi har taraflama inqirozga uchragan edi[3].

Muarrix Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida Amir Temur adolatli davlat qurish uchun mo‘g‘ul istilochilariga qarshi kurashgan va bahodir safdoshlarini, jasur lashkarboshilarini qadrlovchi, kechirimli, sabr-bardoshli, mulohazali dono rahbar sifatida ta’riflangan.

Amir Temurning 1370 yilda bo‘lib o‘tgan turkiy mo‘g‘ul qavmlari qurultoyida, Balxda “Butun Movarounnahrning Olampanoh amiri” etib e’lon qilinishi – uning o‘z sulosasiga asos solish va davlt tuzumini o‘rnatishga qaratilgan 15-16 yillik ana shunday og‘ir, murakkab, murosasiz kurashi natijasi hamda harbiy-siyosiy iqtidori, po‘lat irodasi, aql-zakovati mevasi edi[4].

[3] Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. – Т.: Шарқ, 1997. – Б.58.
[4] Хидиров С.М. Амир Темур давлатининг ташкил топиши ва давлат тузуми. Юрид.фан.номзоди... Дисс. – Т.: 2002. – Б. 31.

Muiniddin Natanziyning ma’lumotiga ko‘ra, “Amir Temur Buyo[5] degan joyda Said Baraka kelib, nog‘ora, tug‘ va mamlakat yorlig‘ini Amir Sohibqironga peshkash qilib, bor himmati bilan hazrati rasul va Murtazo Ali alayhummasalom ruhlaridan madad so‘rab, ezgu tilaklar tiladi. Shundan so‘ng Amir Sohibqiron turkiylar odatiga ko‘ra, avval Orbaz manziliga kelganda katta to‘y qilib, Suyurg‘otmish o‘g‘lonni xon qilib ko‘targan[6].

Amir Temurning hokimiyatga kelganini Nizomiddin Shomiy shunday yozadi: “Amir Husaynning davlati bisotini yig‘ishtirgach, Amir Sohibqironning izzat va ulug‘lik chodirini osmonga yetkazdilar. Biz seni xalifa qildik (oyati) yorlig‘ini qazo va qadar munshiylari (Allohdan) uning o‘zi qilgan ish haqida so‘rolmaydi (degan oyati) devonida (Amir Sohibqironning) sharafli ismiga yozdilar va Sen istagan kishiga mulk ato qilursan to‘g‘rosi bilan muhrladilar hamda olam (ishlari)ning hal etish va man qilish tizginini uning qudrat kaftiga tutqazdilar”[7].

Amir Husayn voqeasi nihoyasiga yetgach, balh mamlakati egallangach, qal’a va hisorni vayron qildilar, imoratni qo‘porib tashladilar, askarlar har tomondan talon-tarojga qo‘l cho‘zdilar va ko‘p o‘lja oldilar. Bu g‘alabaning ovozasi dunyoga tarqaldi. Jahon ahli bu voqeadan tegishli xulosalar qildilar. Amir Temurning Sohibqironligi ovozasi olamga yoyildi.

Shundan so‘ng “Amir Sohibqiron Balh suviga ko‘prik bog‘lab o‘tdi va Kesh shahri orqali Samarqand tomon yo‘l oldi. U yerga yetgach, o‘zi yoqtirgan joyda va izzat qarorgohida joylashdida, qal’a, hisor va hashamatli saroylar qurishni buyurdi. Vayron bo‘lgan joylarda muhandislar va binokorlar farmoniga

[5] Термиз яқинидаги ҳудуд
[6] Муиниддин Натанзий. Мунтахаб ут-таворихи муиний. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – Б. 107-108.
[7] Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б. 85.

muvofiq oltin naqshli binolar qurdilar, podshohga mavzelar barpo etdilar.

Mamlakat Amir Temur tasarrufiga kirganidan keyin amirlar va no‘yonlar bilan ittifoqlikda mamlakat taxtini va podshohlikni jahon podshohi Suyurg‘otmishxon vujudi va yangitdan ziynatladilar”[8].

Sharafiddin Ali Yazdiyning ma’lumotiga ko‘ra: “Chig‘atoy ulusidan Shayx Muhammad Bayon Sulduz va Kayxusrav Xuttaloniy va O‘ljaytu Alardiy va Mu’ayyid Arlat va Dovud Dug‘lat va Sori Bug‘a Jaloyir va Jaku Barlos va Zinda Choshi Alardiy va Shox Muhammad Badaxshon shoxi va Husayn Bahodur va o‘zga beklar ro‘zg‘or sodotlari (jamiyatdagi sayyidlar – M.A.) bila misli Sayyid baraka va Termizning xonzodalari, misli xonzoda Abulmaoliy va ag‘osi Xonzoda Ali Akbar barcha yakdil ittifoq qilib, hazratni shohlikka munosib ko‘rib, barcha anga tobi’ bo‘lub, ul hazrat bila bay’at qilib, duo va sano bila tillarin ochib dedilar: Mundoq mavsumda beklar barcha yig‘ilib, nechukkim dasturlari bor erdi, kelib yukunub, shohlik uchun muborakbod dedilar”[9].

Bunday katta ulusning iqtisodiy, siyosiy va maishiy hayotini tamomila izdan chiqarib yuborishi oqibatida faqat Movarounnahrning o‘zida bir necha hududlarda turk-mo‘g‘ul amirlari taxt davosida bosh ko‘tarar, o‘zaro to‘xtovsiz urushlar, jangu jadallar davom etar, mamlakat esa halokat yoqasiga kelib qolgan edi[10].

Shu o‘rinda Sarbadorlar harakati haqida ham fikr berib o‘tish lozim.

[8] Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б. 86.
[9] Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. – Т.: Шарқ, 1999. – Б. 67.
[10] Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б. 31-32.

Sarbadorlar harakati Xuroson va Sabzavorda paydo bo‘lib, keyinchalik Movarounnahr va Samarqandda keng tus oladi. Sarbador-larning harakati eng avvalo mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi qaratilgan bo‘lib, tarix sahifalarida milliy ozodlik harakati tariqasida qaraladi. Movarounnahrda ularning ozodlik uchun harakati Amir Temurning hokimiyatni qo‘lga kiritish uchun olib borgan yillariga to‘g‘ri keladi. Aniqrog‘i, Sohibqiron Samarqandni mo‘g‘ullardan himoya qilgan sarbadorlardan oladi. Shuning uchun ham sarbadorlar harakati o‘zbek davlatchiligi tarixida katta ahamiyatga egadir. Ammo, baxtga qarshi sarbadorlar harakati to‘g‘risida tarixiy ma’lumotlar bizgacha juda kam yetib kelgan. Shuning uchun ham, ularning faoliyati haqida batafsil yozish mushkuldir. Shu bois mavjud manbalar asosida, O‘rta Osiyo xalqlari hayoti, ularning ozodlik, mustaqillik uchun olib borgan kurash tarixlarida eng muhim davrni belgilovchi harakat to‘g‘risida o‘z fikr va mulohazalarimizni bildiramiz.

Sarbadorlar harakati haqidagi manbalardan, eng muhimi bu Fasih Havofiyning “Mujmali Fasihiy” asaridagi ma’lumotlarning, ishonchliligi va muhimligi shundaki, birinchidan, muallif o‘sha davrda yashagan va yozma, og‘zaki manbalarni yaxshi bilgan. Ikkinchidan, Fasih Havofiy tarixiy voqeliklarni juda katta aniqlik bilan va xolis tasvirlagan.

Fasih Havofiyning fikriga ko‘ra, sarbadorlar harakati Xurosonda, aniqrog‘i, Sabzavorda (1335-1336 yillarda) boshlanadi. Bu harakatning boshlanishini muallif quyidagicha tasvirlaydi. Sabzavor viloyatining Boshtin qishlog‘ida ikki aka-uka – Hasan Hamza va Husan Hamzalarning uyiga chopar mo‘g‘ullardan beshtasi tunash uchun to‘xtaganlar. Ular aka-ukadan sharob keltirishni buyurganlar. Hasan va Husanlardan biri sharob topib keladi. Birok mo‘g‘ullar sharobni ichib, mast

bo‘lishadi va mehmondo‘stlik qoidalariga hurmatsizlik ko‘rsatishadi. Shunda Hasan va Husan bu bebosh bosqinchilarning tartibsizliklariga chidab bo‘lmasliklarini bildirib, “Bunday sharmandalikdan ko‘ra, bizning boshimiz dorga osilgani yaxshiroq”, - degan xulosaga keladilar. Ular mast holatdagi besh mo‘g‘ulning hammasini chopib tashlab, ko‘chaga chiqadilar va o‘zlarini mo‘g‘ullarga qarshi kurashuvchi sarbadorlar ekanliklarini oshkor qiladilar. Boshtin qishlog‘ining besh aka-uka bahodirlari bo‘lib, ularning orasida Abdurazzoq pahlavon bor edi. Yana biri Mas’ud Amin ad-Din Sulton Abusaid xizmatida edi[11].

Shu vaqtda Xoja Ali ad-Din Muhammad degan hukmdorning yuborgan bir odami kelib, mo‘g‘ul choparlarini o‘ldirgan va o‘zlarini sarbadorlar deb e’lon qilgan Hasan va Husanlarni berishni talab qiladi. Shunda Abdurazzoq unga borib, o‘z hukmdoriga mo‘g‘ul choparlarining o‘zlari axloqsizlik qilganlari uchun o‘ldirilganlar, deb tushuntirishini tayinlaydi. Lekin uning ortidan yana Hasan va Husanlarni talab qilib 100 nafar otliq keladi. Shunda Abdurazzoq ularga qarshi jang olib boradi va qo‘li baland keladi. Fasih Havofiyning fikriga ko‘ra, shu tariqa Xurosonda Sarbadorlar harakati ommaviy tus oladi. Ayniqsa, mo‘g‘ul istilochilari tomonidan vayronaga aylantirilgan shaharlarning aholisi ham doimo ozodlik va mustaqillik orzusida yashar edi. Bu shaharlarda ham vaqti-vaqti bilan bosqinchilarga qarshi ommaviy kurashlar bo‘lib turgan. Binobarin, Samarqand (1365 y.) mo‘g‘ullarga qarshi kurash markaziga aylanadi. 1365 yilda Samarqand mo‘g‘ullar bilan yakkama-yakka qoldirilib, uning hukmdori chekinganda shahar aholisi madrasa

[11] Ахмедова М.Т. Амир Темур давлатида хавфсизликни таъминлашнинг ҳуқуқий асослари. Юрид.фан.доктори....дисс. – Т.: ЖХУ, 2020. – Б.21.

talabalaridan birining rahbarligida shaharni dushmandan himoya qiladi va hokimiyatni sarbadorlar o‘z qo‘llariga oladilar.

Sharq davlatchilik tarixida juda kam uchraydigan, ya’ni mutloq monarxiya davlati o‘rnida Samarqandda birinchi bor (1358-1370 yillarda) Amir Temur hokimiyat tepasiga kelgan davrda demokratik tamoyillarga asosan xalq hokimiyati o‘rnatildi.

Sarbadorlarning Samarqandni himoya qilishlarini Abdurazzoq Samarqandiy shunday hikoya qiladi: 1365 yil 22 mayda Amir Temur va amir Husaynlar Toshkent yaqinida mo‘g‘ullar bilan uchrashib, jang qiladilar. Ular mo‘g‘ullardan talofat ko‘rib chekinadilar. Amudaryodan o‘tib ketadilar. Samarqand himoyasiz qoladi. Shunda Mavlonozoda ismli madrasa talabalaridan bo‘lgan yigit o‘rtaga chiqib, atrofdagilarga murojaat qiladi. Uning so‘zlaridan sarbadorlarning siyosiy talablari qo‘yiladi. U odamlarga murojaat qilib aytadiki, kofirlar samarqandliklarning uylarini, mollarini talashga kelmoqdalar. Odamlardan o‘z vaqtida soliqlarini yig‘ib oladigan va uni o‘z bilganicha harajat qiladiganlar shaharni tark etib, qochib ketdi. Musulmonlarni kofirlar oldida himoyasiz qoldirib qo‘rqoqlik qildilar. Sizlar dushmanga qanchalik o‘zlaring uchun mol-dunyo bermangiz, ular baribir hammangizni qirib tashlaydi, qullikka duchor etadi. Shundoq ekan, orangizdan kim bizga bosh bo‘lib, shahar himoyasiga rahbarlik qilarkin, bizlar hammamiz unga itoat etsak, deganida hech kim indamaydi, Shunda u, sizlarga rahbarlik qilsam, menga ergashasizlarmi? – deb so‘ragan edi. Barcha to‘planganlar rozi ekanliklarini bildirib, shu onda minglab odamlar qasamyod qiladilar. O‘zlarining sarbadorlar ekanliklarini bildiradilar. Mavlonozoda rahbarligida shahar

aholisi o‘zini-o‘zi qurollantirib, tajribali mo‘g‘ullar lashkarlari hujumidan mudofaa qilishga o‘tadi[12].

Ahdu-paymon qilgan shahar xalqi mudofaa ishlarini boshlab yuboradilar. Bostirib kelayotgan mo‘g‘ullar ehtiyot choralarini ko‘rmasdan, to‘g‘ri shaharga kirib keladilar. Shunda hamma tomondan toshbo‘ronga uchragan dushman 2000dan ortiq askarini yo‘qotib, shahardan tashqariga chekinishga majbur bo‘ladi. Ertasi kuni shaharni egallash uchun yana hujum boshlanadi, ammo natija bo‘lmaydi. Samarqandlik sarbadorlar qahramonlarcha shaharni mudofaa qilishib, dushmanni unga yaqinlashishiga yo‘l qo‘ymaydilar.

Sarbadorlarning bu qahramonliklari haqida Amir Temur xabar topib, Husaynga Samarqand tomon borishini tayinlaydi. Ular sarbadorlar rahbarlarini muloqotga taklif qilib ko‘pchiligini Husaynning buyrug‘iga ko‘ra hibsga olishadi va o‘ldirishadi. Amir Temurning iltimosi bilan Mavlonozoda o‘ldirilmasdan qoldiriladi. Ana shunday bir og‘ir va murakkab davrda Temur anglab yetgan narsa shu bo‘ldiki, endi hokimiyatni, davlatchilikni yangidan qaror toptirishda tamomila yangi g‘oya va yangi kuch-qudratga tayanish lozim. Shuning uchun ham Amir Temur o‘z davlatchiligi, davlat tuzumi, idora va boshqarish usulini, qonunchilik tizimini qadimiy turkiy To‘ra, Tuzuk, Yasoning eng samarali tamoyillarini arab-musulmon, ya’ni sobitqadamlik va qat’iylik bilan vujudga keltira boradi. Ana shunday asosiy muayyan ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, tarixiy omillarni, kuchlar nisbatini nihoyatda sarhisob qilib ko‘rgan Amir Temur o‘z sulolasi, davlatini qurishning tadrijiy yo‘lini tanladi va 1355-

[12] Абдураззоқ Самарқандий. Матлаъи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. Форс-тожик тилидан таржима. Кириш сўз ва изоҳли луғатлар муаллифи т.ф.д., А.Ўринбоев. – Т.: 2008. – Б. 232

1370 yillar orasida buni o‘z maqsadidan og‘ishmay amalga oshirdi[13].

Demak, o‘sha og‘ir va halokatli sharoitda Amir Temur nafaqat o‘z Vatanidagi raqobatchilari – mahalliy beklar, maliklar, amirlar, balki Jete kuchlari orasida o‘ziga xayrixoh kuchlarini topa bildi yoki o‘z maqsadlari sari yo‘naltirdi. Natijada Amir Temur bilan raqobat kurashi olib borgan harbiy-siyosiy kuchlar, taraflar birdan-bir salohiyatli, bunyodkor, ijodkor va iqtidorli kuch Amir Temurni asta-sekinlik bilan bo‘lsa-da, e’tirof eta boshladilar. Bu kuchlar nafaqat Sohibqiron taxt da’vosi uchun kurashgan mana shu ilk davrda, balki u o‘z imperiyasini mustahkamlab kengaytirgan ikkinchi davrda ham, jahon ijtimoiy-siyosiy, huquqiy taraqqiyotining yo‘nalishini va qadriyatlarini belgilay boshlagan uchinchi davrda ham (1395-1405), uning vafotidan keyingi ilk temuriylar davrida ham tayanch bo‘lib xizmat qildi.

Amir Temur shaxsiyatining shakllanishi va kamolot darajasiga yetib borishida uning otasi Tarag‘ay Bahodir, birinchi ustozlari va ma’naviy murshidlari asosiy rol o‘ynaganlar. Manbalarda ta’kidlashicha, uning birinchi o‘qituvchisi Mulla Alibek bo‘lgan. Undan keyingi ustozi Shayx Shamsuddin ismli olim bo‘lgan. Amir Temur ulardan boshlang‘ich ilmlarni, ayni holda harbiy fanlar va taktikalarni o‘rganish bilan shug‘ullanib o‘z oliy iste’dodi bilan o‘qituvchilarni hayratda qoldirgan va Qur’oni Karimni hafz etgan[14].

Amir Temur adolatli, ma’rifatli davlat arbobi bo‘lib, avvalgi davlat tuzumlaridan, yaxshi xabardor edi. U Chingizxon Yasosini

---

[13] Ахмедова М.Т. Амир Темур давлатида хавфсизликни таъминлашнинг ҳуқуқий асослари. Юрид.фан.доктори....дисс. – Т.: ЖХУ, 2020. – Б.22.

[14] Жузжоний А.Ш. Амир Темур давлатида қонун устуворлиги. Амир Темур сабоқлари // “Амир Темур ва унинг марказлашган давлат тузиш йўлидаги буюк хизматлари” мавзусидаги илмий-амалий анжуман материаллари. – Т.: Шарқ, 2001. – Б.16.

ham, shariat qonunlarini ham, qolaversa, Saljuq sultonlari davlatining ma’rifatli vaziri Nizom ul-Mulkning “Siyosatnoma” asarini ham juda yaxshi bilardi[15].

Amir Temur davlat hokimiyatini amalga oshirishda Turkiston, Turon xalqlarining ko‘p asrlik davlatchilik an’analariga, qisman Chig‘atoy ulusida hukm surgan Chingizxon Yasosiga hamda ustozlari, pirlari fatvo bergan islomiy shariat qonun-qoidalariga tayanib ish tutdi.

Bog‘dod mamlakati (Iroq) egallangach, “Sohibqiron idora qilmoq va tartibga solmoq ishlariga kirishib, ul joyning muhofizati va hukmdorlariga (sarbador yetakchilaridan) Xoja mas’ud Sabzavoriyni tayinladi. Haqiqatda ham u zot ko‘rkam xulqli, solih va (raiyatga) o‘ta xayrixoh erdi”[16]. Shu o‘rinda Nizomiddin Shomiy yangi viloyat hokimlarining birinchi galdagi xizmat vazifalari va burchlarini aytib, bunday yozadi: “U (Mas’ud Sabzavoriy) omon qolg‘on raiyatlarni o‘z himoyasiga olib, tortg‘on azob-uqubatlari jarohatini lutfu ehson malhami ila davoladi, ul joyda miskinlarni o‘z shafqat va e’tibori qanoti ostinda muhofazot qildi”[17].

Markaziy hukmdorning viloyat (mamlakatlar)ga munosabati haqida “Temur tuzuklari”da bunday deyiladi: “Har bir mamlakat fath etilg‘och, turfa ko‘ngilsiz hodisalardin omma omonlikda bo‘lsin, aning hosil va daromadlarini hisobga olib ish tutsinlar”. Viloyatlarni boshqarish masalasida: “Har bir yerning tabiati, har el va shaharning rasmu odatlari, mijozidin voqif bo‘lib turdim. Har bir o‘lka va shahar ulusining ulug‘lari va buzruglari bila

[15] Хидиров С.М. Амир Темур давлатининг ташкил топиши ва давлат тузуми. Юридик фанлар номзоди... Дисс. – Т.: 2002. – Б.67
[16] Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б.192.
[17] Ўша жойда.

oshna tutindim. Alarning mijozlariga, tabiatinga to‘g‘ri kelg‘on, o‘zlari tanlag‘on odamlarini alarg‘a hokim qilib tayinladim”[18].

Ibn Arabshoh “Ajoyib ul-maqdur fi tarixi Temur”, Nizomiddin Shomiy esa “Zafarnoma” asarida markaziy hokimiyat viloyat hokimlari, viloyat aholisi, taniqli ulamolar o‘rtasida huquqiy munosabatlar o‘rnatilganligi haqida ko‘plab dalillar keltiradilar.

Amir Temurning o‘zga mamlakatlarga yurishlar qilishiga sabab, u yerdagi zulm, zo‘ravonlik va adolatsizliklarga barham berish, xalqni ozodligini qaytarish va adolatparvar hukmdorlarni tayinlash, ra’iyat ahvolini yaxshilash, farovonlik va tinchlik o‘rnatish uning ezgu va oliy maqsadi bo‘lgan. Buning isboti sifatida “Temur tuzuklari”dagi ushbu fikrga yuzlanamiz: “Qaysi mamlakatni zabt etgan bo‘lsam, o‘sha yerning obro‘-e’tiborli kishilarini aziz tutdim; sayyidlari, ulamolari, fuzalo va mashoyixlariga ta’zim bajo keltirdim, ortiq hurmatladim. Ularga suyurg‘ol, vazifalar berib, maoshlarini belgiladim, o‘sha viloyatning ulug‘larini og‘a-inilarimdek, yoshlari va bolalarini bo‘lsa o‘z farzandlarimdek ko‘rdim. Mazkur mamlakatlarning sipohi uchun dargohimga yo‘l berdim. ... O‘z erki bilan menga bo‘sungan viloyat hokimlariga o‘sha yurt hukumatini berdim va ularni in’omu ehson bilan qadrlab, o‘zimga tobe’ qilib oldim. Odil, oqil va uddaburon kishilarni ularga hokim etib tayinladim”[19].

Amir Temur davlat boshqaruvning huquqiy asosi adolat g‘oyalariga asoslangan. “Adolat”ning ma’nosi xalqning huquqiy tengligini ta’minlashdir. Adl shunday ziynatdirki, u mamlkatga oroyish beradi, bir quyoshki, uning nuri bilan zulmat yorug‘likka

[18] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б.55.
[19] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б.137-138.

aylanadi[20]. Haq (pok va oliy) bandalarini adolatga buyurib, “Albatta, adolatga, ezgu ishlarga va qarindoshlarga yaxshilik qilishga buyuradi va hamda buzuqchilik, yovuz ishlar va zulmdan qaytaradi...”[21], - deyilgan.

Manbalarda hazrat Sohibqiron mamlakat ravnaqi, ra’iyat farovonligi yo‘lida ko‘p ko‘rsatmalar berganligi, xalq sog‘ligini saqlash maqsadida shifoxonalar qurdirganligi haqida ham ko‘p bor ta’kidlanadi. Amir Temur “Katta-kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilsinlar, faqiru miskinlarga langarxona solsinlar, kasallar uchun shifoxona qurdirsinlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlasinlar. Har bir shaharda dor ul-amorat va dor ul-adolat qursinlar. Ra’iyatu ziroatni qo‘riqlovchi qo‘rchilar (ham) tayinlasinlar”[22], deb mahalliy hokimlarga ko‘rsatmalar bergan.

Amir Temur vazirlar va amirlar, sipoh tuzgandan keyin o‘z saltanatining chegaralarini kengaytirish maqsadida boshqa davlatlarni zabt etish harakatlarini “yetti yilgacha” cho‘zilgan “yurishlarining” sababini shunday tushuntiradi. “Biron mamlakatda jabr-zulm va fisq-fasod kuchayib ketarkan asl podsholar adolat o‘rnatib, fisq-fasodni, zulmni yo‘qotish niyatida ana shunday mamlakatga hujum boshlashi lozim...”[23]. “Agarda biron-bir mamlakatda shohlar buzilsa, jabr-zulm kuchayib ketgach, odil, ma’rifatli shohlar bunday mamlakatga bostirib kirib, adolatli tartibni o‘rnatishlari kerak. Movarounnahrni adolat o‘rnatish niyatida zolim elatlardan tortib oldim[24], - deb yozadi Amir Temur.

---

[20] Ҳусайн Воиз Кошифий. Ахлоқи Муҳсиний. – Т.: Ўзбекистон, 2019. – Б.42.
[21] Қуръони карим. “Наҳл” сураси, 90-оят.
[22] Алимова Р. Амир Темур ва маънавий қадриятлар. Амир Темур сабоқлари // Халқаро илмий конференция материаллари. – Тошкент. Шарқ, 1997. – Б. 13-16.
[23] Темур Тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 137-138.
[24] Ўша жойда.

Bizning fikrimizcha, Amir Temur saltanatining dastlabki davrlarida, keyinroq besh yillik, yetti yillik yurishlar zafar bilan tugallangan vaqtlarda qo‘shib olingan viloyatlarga tayinlangan shahzodalar, amirlar, hokimlar bilan huquqiy aloqalar ma’lum bir tizimga keltirilgan edi. Keyinroq, Sohibqiron saltanati benihoya kengayib ketgach, viloyatlarni boshqarish ancha qiyinlashgan. Buyuk va qudratli davlat rahbari Sohibqiron davlat boshqaruvining barcha ishlarida o‘rtacha yo‘lni tutib, amal qilar edi.

Amir Temur davlatida hokimiyat ishlari quyidagi uch yo‘lda amalga oshirilgan:

birinchidan, an’ana va urf-odatlar orqali;

ikkinchidan, shariat, qonun-qoidaga amal qilish orqali;

*uchinchidan***,** taklif va tushuntirishlar yo‘li bilan;

*to‘rtinchidan***,** xalqning turli tabaqalari istaklari, talablari va irodasini turli kengashlarga havola etish yo‘li bilan, - desak ayni muddao bo‘ladi[25].

AQSH universitetida tadqiqotchi olim Beatris Forbes Mansning Temuriylar davlati boshqaruvini o‘rganishga qo‘shgan hissasini alohida ta’kidlash o‘rinli. U Sohibqiron Amir Temur davlat boshqaruviga kelishidan ilgari Chig‘atoy ulusida ro‘y bergan turli ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va etnik o‘zgarishlar hamda uning ma’muriy boshqaruvi xususida ayrim fikr-mulohazalarni bildirib o‘tgan.

Huquqshunos S.M.Xidirov Amir Temur davlatining boshqaruvini to‘rtta yirik bosqich[26]ga bo‘lib o‘rgangan bo‘lib ular quyidagilardir:

---

[25] Ахмедова М.Т. Амир Темур давлатида хавфсизликни таъминлашнинг ҳуқуқий асослари. Юрид.фан.доктори....дисс. – Т.: ЖХУ, 2020. – Б.26.

[26] Хидиров С.М. Амир Темур давлатининг ташкил топиши ва давлат тузуми. Юрид. фан. номзоди... Дисс. – Т.: 2002. – Б. 56-66.

Birinchi bosqich – 1361-1370 yillar Sohibqiron barcha viloyatlarning amirlari, beklarini birlashtirib, Suyurg‘otmishxon rahbarligida yangi davlatni tuzgan vaqtgacha bo‘lgan davrni mustaqil davlat uchun kurashning birinchi bosqichi deyish mumkin. Bu bosqich mo‘g‘ullarning Chig‘atoy ulusini yangidan tiklash bilan tugallandi.

Ikkinchi bosqich – 1371-1381 yillar Sohibqiron saltanatining siyosiy, iqtisodiy, harbiy nufuzi yuksalib, sobiq qudratli mo‘g‘ul imperiyasini zaiflashtirdi. Mo‘g‘ulistonning istilochilik xurujlarini tiyib qo‘yishga muvaffaq bo‘ldi.

Uchinchi bosqich – 1381-1395 yillarda Sohibqiron saltanati rejali ravishda Mo‘g‘ulistonga yetti marta harbiy yurish qilib, uni juda zaiflashtirib qo‘ydi, bundan foydalangan, mo‘g‘ullar mustamlakasi bo‘lib turgan sobiq Xitoy saltanati mustaqilligini qayta tikladi. U endi Mo‘g‘ulistonning xavfli raqibiga aylandi.

To‘rtinchi bosqich – 1395-1405 yillarni Amir Temur saltanatining Rum (Turkiya) sultoni Yildirim Boyazidga qarshi kurashga kirishib, uni yenggan vaqtdan keyingi davrini Sohibqiron davlatining siyosiy, iqtisodiy va harbiy jihatdan eng qudratli davlat darajasiga yetgan davridir” – deb tarixiy voqealar va davlat rivojlanishidagi omillarga qarab xulosaga kelgan.

To‘g‘ri, biz ham bu fikrlarni qo‘llab-quvvatlagan holda unga qo‘shimcha qilib aytishimiz mumkinki, Amir Temur har bir bosqichda o‘zining mustahkam irodasiga, davlat boshqaruvida adolat va qonun ustuvorligini ta’minlanishiga, qolaversa, barcha sohalarning rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shgan.

Akademik A.Saidov: “Amir Temur o‘z davlatini har qanday kutilmagan voqealardan saqlashni, himoya qilishni bilgan. Davlatini kuchli va mustahkam, xalqini baxtli va uning hayotini farovon qilishni uddalay olgan. U o‘z oldiga qo‘ygan

maqsadlariga qat’iylik bilan erishgan. Shuning uchun ham u o‘sha davrda dunyodagi eng kuchli saltanatga ega bo‘lgan”[27], - deya ta’kidlab o‘tgan.

Husayn Voiz Koshifiyning yozishicha: “Podshoh raiyat (xalqning) rioya (himoya va hurmat)ini qilishni ham bilish kerakki, amal va davlatdan ko‘zlangan asl maqsad faqat podshoh va uning yaqinlarinigina rozi qilishdan iborat emas, balki xalqni himoya qilish va yurtni obod etishdir. Demak, xalq manfaatlarini himoya qilish qilish muhim ishlarning eng muhimidir”[28].

Shunday qilib, Amir Temur “fenomeni”[29], u qurgan davlat tuzumi, davlatchilik merosi, davlat va jamiyatni idora qilish va boshqarish usuli mustaqil O‘zbekiston Respublikasida qaytadan tiklangan o‘zbek milliy davlatchiligini mustahkamlash, rivojlantirish va takomillashtirishning eng asosiy, tarix sinovlaridan o‘tgan va o‘zini oqlagan bebaho tajribadir.

Amir Temur va uning davlat boshqaruvi o‘ziga xos ekanini inobatga olib, uning boshqaruv usullarini tarixiy tajriba sifatida ilmiy tadqiq etish maqsadga muvofiq. Chunki Amir Temur va bir tomondan Movarounnahrni o‘troq, shahar madaniyati, siyosiy-huquqiy usullari afzalliklarini ko‘chmanchi hayot, dasht madaniyati, bilan uyg‘unlashtirdi[30].

Amir Temur elga boshchilik qiluvchi vazirlar bilan hokimlar to‘g‘ri tanlab qo‘yilgandagina elni aqllilik bilan boshqarish haqidagi talablar sifatli amalga oshishini nazarda tutgan. U xalqning ruhiy kayfiyatini, milliy xususiyatini, qadriyatlarini bunga mos keladigan rahbarning xulq - atvorini yaxshi o‘rganib,

---

[27] Саидов А., Керен Л. Амир Темур ва Франция. – Т.: Адолат, 2016. – Б.48.
[28] Ҳусайн Воиз Кошифий. Ахлоқи муҳсиний. – Т.: Ўзбекистон. – Б .265.
[29] “Феномен” атамаси “Фавқулодда, нодир ҳодиса” маъносига эга. Шу жиҳатдан “Темур феномени” ибораси “Инсоният ижтимоий-тарихий ва давтчилиги тараққиётида фавкулодда, нодир тарихий ҳодиса” маъносини билдиради.
[30] Қаранг: Тўлаганов А.А. Амир Темурнинг ўзбек давлатчилигининг ривожланишида тутган ўрни ва мавқеи. (Темур тузуклари асосида). Юрид.фан.номзоди... диссертация автореф. – Т.: 1996. – Б. 16.

bir qarorga kelgan. Xalqning tilini, tushunchasini, muddaosini biladigan, elning talablarini sabr-toqat bilan bajarishga harakat etadigan, xalqni tushunish uquvi, xulq-atvori shakllangan odamlarni elga boshchi etib qo‘yish kerak[31], - deb hisoblagan. Shu maqsadda u elning hokimlarini tayinlaganda, avvalambor, rahbarning jamoat bilan ishlay olish uquviga, xalqning ruhini payqab harakat qilishiga, tashkilotchilik mahoratiga, shu xalqning talab - istagiga, hol-ahvoliga katta e’tibor bergan.

Shunday ekan, Amir Temur davlatni boshqarishda insonlarni tushunish, barchaga barobar bo‘lish va xalq manfaatlarini inobatga olish tarafdori bo‘lgan. Rahbardan o‘zi idora etib turgan jamoaning ruhiy kayfiyatini, ichki kechinmalarini yetuk bilishni talab etgan. Shu sababli, u har bir o‘lka xalqiga: “Ularning mijozlariga, tabiatiga to‘g‘ri kelgan, o‘zlari tilagan odamlarni ularga hokim qilib tayinladim”, - deb yozgan edi. Eldagi ichki tartiblarning saqlanib turishi, xalq va boshchining bir-biriga inoq bo‘lishi elning tinchligi va obodonlashishining manbai deb hisoblagan Amir Temurning davlatni boshqarish ishlariga yuqorida aytib o‘tganimizdek, inson ruhiyati haqidagi tajribalari katta yordam berdi[32].

Amir Temur davlatda tinchlik va farovonli o‘rnatib, mamlakat taraqqiyotida hukmdor katta rol o‘ynashini isbotlay olgan buyuk arbob ekanini ta’kidlash lozim. Chunonchi bu davrida taraqqiyot, tinchlik va farovonlik ko‘pincha podshohlarning siyosiy ilmi, aql-zakovati, adolati, hushyorligi va boshqa sifatlariga bog‘liq bo‘lgan, aks holda, davlat va xalq parokanda bo‘lib, tanazzulga yuz tutishi tabiiy hol edi.

[31] Темурнома: Амир Темур Кўрагон жангномаси. -Т.: Чўлпон,1991.-352 б
[32] Бобоев Ҳ. Амир Темур ва темурийлар салтанати. - Т.: Камалак, 2006. – Б. 199.

Birinchidan, Amir Temur o‘z iqtidori, davlatini qurish uchun kurash boshlagan XIV asr o‘rtalarida Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy tarixiy vaziyat o‘ta murakkab edi. Bunday murakkab ijtimoiy-siyosiy, tarixiy vaziyatda yangi milliy iqtidor, sulola, davlat qurish deyarli mumkin emas edi.

Ikkinchidan, Movarounnahrda davlat tuzumi, idora va boshqarishi usuli juda murakab va ko‘p pog‘onali tarkibga ega bo‘lib, bu tizim Turkistondan moddiy boyliklar, yaratilayotgan ne’matlarni mo‘g‘ullar qo‘liga muntazam yetkazib turilishini ta’minlar, zulm va zo‘ravonlik behad ortgan edi.

Uchinchidan, bu murakkab harbiy-siyosiy, huquqiy va g‘oyaviy kurash sharoitida o‘zining ijtimoiy-siyosiy, harbiy va ma’muriy istiqbolining ilk davrida Amir Temur oilasi, otasi Amir Tarag‘ay, amakisi Hoji Barlos, boshqa tarafdorlari bilan birgalikda siyosiy qatag‘on, ta’qib, quvg‘in, zo‘ravonliklar tufayli og‘ir kurash yo‘lini bosib o‘tdi va tajribali harbiy-siyosiy yetakchi, rahnamo sifatida shakllandi.

To‘rtinchidan, o‘z davrini barcha qiyinchiliklarini boshidan kechirgan Amir Temur kelajakda mamlakatni, uning xalqini istilochilar zulmidan ozod etishning birdan-bir yo‘li davlat mustaqilligiga erishish va adolat, qonun bilan boshqaruvni o‘rnatish ekanligini anglab yetdi va bunga erishdi[33].

1.2. Amir Temur davlat boshqaruvining asosiy tamoyillari

XIV-XV asrlar – Temuriylar davri g‘arb sharqshunos olimlari tomonidan sharq renesansi (uyg‘onish davri)ning ikkinchi bosqichi deb atalgan. Bu davrning taraqqiyot yo‘llarini belgilovchisi va undagi buyuk tamaddunning tamal toshini

[33] Ахмедова М.Т. Амир Темур давлатида хавфсизликни таъминлашнинг ҳуқуқий асослари. Юрид.фан.доктори....дисс. – Т.: ЖХУ, 2020. – Б.30.

qo‘ygan ulug‘ bobomiz Sohibqiron Amir Temur edi. U yoqqan tamaddun mash’ali, uning avlodlari – Shohruh Mirzo, Ulug‘bek Mirzo, Boysunqur Mirzo, Sulton Husayn Mirzo va Bobur Mirzolar davrlarida ham Markaziy Osiyo va Hindistonda porlab turdi.

Temuriylar davlatini adolat o‘lchovlari, huquqiy meyorlar va qonuniy normalardan ajratib o‘rganish mumkin emas. Negaki, qonun ustuvorligi Temuriylar buyuk davlatining belgilovchi xususiyati sifatida uning huquqiy poydevorini tashkil etib kelgan va Amir Temur o‘z davrining salohiyatli huquqshunosi, faqih va olimi bo‘lib davlatga rahbarlik qilgan.

Nizomiddin Shomiyning yozishicha: “Amir Sohibqiron oqilona muomala va shirin so‘zlar bilan oqil kishi va komil xiradmand teran fikru donish bilan quvvatlanar ekan, u til tig‘i bilan shu qadar (ko‘p) dinu davlat ishlarini bajara oladiki, mingta jangchi o‘tkir shamshir bilan ularning o‘ndan birini ham amalga oshirolmaydi”[34].

“Tengi yo‘q Tangri mamlakatlarning ixtiyor jilovini bizning qudrat changalimizga tutqazgan hamda jahonning quruqligiyu suvlaridagi barcha maxluqotni bizning amrimizga bo‘ysundirgan ekan, uzoq va yaqinni bir xil bilib, barcha davlatlar va mamlakatlardagi kuchli va zaif, faqir va sharif, katta va kichik hammasini o‘z marhamatimiz soyasida bir xil ko‘rishni, har bir kishini o‘z mavqeiga qarab, bu buyuk davlat mahsulidan bahramand etishimizni shart qilib qo‘ymish”[35]. Bu bilan Sohibqiron butun Saltanatning turli hududlarida yashovchi xalqlarning tinchligi va osoyishtaligini saqlashga hamda

[34] Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б. 39.
[35] Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б. 294.

aholisiga zulm o‘tkazmaslikni, barcha millat vakillarini bir xilda ko‘rib, muomala qilish kerakligini anglatgan bo‘lishi mumkin.

Amir Temur Saltanat hukmdori sifatida davlatni san’at darajasida boshqarganini manbalarga tayangan holda bemalol aytish mumkin. Davlat rahbari qanday bo‘lishi kerak?, - degan savolga Sohibqiron timsolida javob berish qiyin emas. Jami 27 mamlakatdan tarkib topgan ulug‘ saltanat tajribasidan hozirgi kunda foydalanilayotgani fikrimizni tasdiqlaydi.

G‘iyasiddin Alining yozishicha: “Pok Alloh bizga shunday davlat rahbarini ato etdiki, u o‘zining hamma yoqni qamrab oluvchi komilligi bilan dunyoning Sharq va G‘arbini shunday ulug‘ inson (Amir Temurga) berdiki, (topshirdiki) uning baxtli intilishi, o‘z vo‘l ostidagilarning baxtiyorligini o‘ylar edi va Eron va Turon mamlakatlari va joylarini o‘zining jahonniegallovchi bayrog‘i ostida birlashtirdi. Chunki uning oliyjanob fikri faqat ushbu mamlakatlarning xavfsizligi va doimiy tinchligi to‘g‘risida behad yo‘nalgan edi”[36].

Hozirda respublikamizda ham davlat rahbaridan tortib, mahalliy rahbarlarga qadar eng asosiy vazifasi etib, xalq manfaatini ko‘zlab ish tutishi mazmunidagi tadbirlarning amalga oshirilayotganini ta’kidlash mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev ta’kidlashicha: “Hamma rahbarlarga yana bir bor eslatib o‘tmoqchiman. Bizga umid va ishonch bildirgan, bizni rahbar etib saylagan, el-yurtimizni, har bir fuqaroni rozi qilish asosiy burchimiz ekanini hech qachon unutmaylik. Xalq bizdan rozi bo‘lsa – Yaratgan ham bizdan rozi bo‘ladi”[37].

---

[36] Гийасиддин Али. Дневник похода Тимура а Индию. – М.: 1958. – С.11-12.

[37] Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 27 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги “Конституция ва қонун устуворлиги – ҳуқуқий демократик давлат ва фуқаролик жамиятининг энг муҳим мезонидир” номли маърузаси. Халқ сўзи, 2019 йил 9 декабрь.

Amir Temur o‘n ikki toifadagi odamlardan iborat davlatni boshqarish uchun o‘n ikki tamoyilni o‘ziga yo‘nalish etib olganligi va shular orqali podshohlik martabasini rivojlantirganligi, bu o‘n ikki boshqarish yo‘li yordamida davlatni qudratli kuchga aylantirganligi, obodonlashtirishga erishganligi, boshqa davlatlarni qo‘lga kiritib, saltanat tuzganligi, ularning gullab rivojlanishini ta’minlaganligini tushunti-radi[38].

Sohibqironning davlatni boshqarishdagi o‘n ikki tamoyilining asosiy mazmuni quyidagilardan iborat:

Birinchi tuzuk, davlatning qudratini orttirish uchun dunyoda Tangri taoloning diniga va Muxammad Mustafoning shariatiga rivoj berish;

Ayni damda respublikamizda so‘nggi uch yilda har sohada olib borilayotgan islohotlar Amir Temur tomonida ilgari surilgan tuzuklarning bugungi kundagi tarixiy-amaliy ahamiyatini yanada ochib beradi.

Tan olish kerakki, 2016 yildan boshlab ajdodlarimiz merosini o‘rganish jarayonida yangi davr boshlandi, ular ta’limotini o‘rganishga e’tibor keskin kuchaydi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qator farmon va qarorlari e’lon qilinib, nufuzli tadbirlar o‘tkazildi. Jumladan, Samarqand shahrida 2017 yilning 28-30 avgust kunlari YUNESKO shafeligida “Jahon tamadduni tarixida Markaziy Osiyo Renessansi” mavzuida xalqaro ilmiy konferensiya bo‘lib o‘tdi. Mazkur anjuman Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan olim va mutafakkirlarning tarixiy merosini chuqur tadqiq etish ishiga xizmat qilishi shubhasiz.

Yurtimizdan yetishib chiqqan islom olami mutafakkirlari asarlarini, ularning jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan bebaho

[38] Файзиев Т. Темурийлар шажараси. - Т.: Ёзувчи, 1994. – Б. 352.

hissasini chuqur o‘rganish, dunyoning barcha xalqlariga islom dinining haqiqiy mohiyatini yetkazish uchun Samarqanddagi Imom Buxoriy yodgorlik majmui qoshida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi[39].

2017 yil 24 mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror[40]i qabul qilindi.

2017 yil fevral oyida mamlakatimiz Prezidenti mazkur masala sohasidagi o‘ta muhim hujjatga qo‘l qo‘ydi, unga muvofiq Imom Termiziy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi tashkil etildi. Ushbu yilda bu borada yana bir o‘ta ulkan qadam tashlandi. Ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga muvofiq Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi tashkil etildi. Ajdodlarimiz qoldirgan buyuk merosni tizimli asosda chuqur tadqiq etish, ular asarlari va faoliyatining tarixiy va zamonaviy sivilizatsiya taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyatini ochib berish mazkur markazlar faoliyatining eng muhim yo‘nalishlari sifatida belgilandi.

Ikkinchi tuzuk, o‘n ikki tabaqa va toifadagi kishilar bilan davlat ustunlarini quvvatlab, saltanat majlislarini shular bilan ziynatlash;

Amir Temur “Tuzuklari”da: “Bu o‘n ikki toifani saltanatim falakining o‘n ikki burji va davlatim korxonasining o‘n ikki oyi deb hisobladim. Birinchi toifa – sayyidlar, ulamo, shayxlar va fozillar; ikkinchi toifa – aqlli kishilar va kengash sohiblari,

---

[39] Ахмедова М.Т. Амир Темур давлатида хавфсизликни таъминлашнинг ҳуқуқий асослари. Юрид.фан.доктори....дисс. – Т.: ЖХУ, 2020. – Б.34.

[40] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 24 майдаги ПҚ-2995-сон “Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори. “Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами”, 2017 йил 29 май, 21-сон, 389-модда.

ehtiyotkor, qat’iyatli arboblar; uchinchisi – duogo‘y kishilar; to‘rtinchisi – amirlar, sarhanglar, sipohsolarlar; beshinchisi – sipoh va raiyat; oltinchisi – ishonchli, to‘g‘ri e’tiqodli oqil-xiradmand kishilar; yettinchisi – vazirlar, devon kotiblari va munshiylar; sakkizinchisi – hakimlar, tabiblar, munajjimlar va muhandislar; to‘qqizinchisi – muhaddislar; o‘ninchisi – mashoyihlar, so‘fiylar; o‘n birinchisi – kasbu hunar egalari; o‘n ikkinchisi – har mamlakat va diyor sayohatchilariyu musofirlari”[41], kabilardir.

Uchinchi tuzuk, maslahat, kengash, tadbirkorlik, faollik va hushyorlik, ehtiyotkorlik bilan g‘anim qo‘shinlarini yengib, mamlakatlarni bo‘ysundirish. Saltanat ishlarini murosayu madora, sabr-toqat bilan yurgizib, ko‘p narsani bilib tursa ham o‘zini bilmaslikka solish;

Shu joyda Amir Temurning “Tuzuklar”dagi mashhur iborasini esga olish o‘rinlidir, ya’ni, “Azmi qat’iy, tadbirkor, hushyor, jang ko‘rgan, mard, shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir. Chunki tajribali bir kishi minglab kishiga ish buyuradi”.

Amir Temurga piri Zayniddin Abubakr Tayobodiy yozgan maktubida shunday so‘zlar bor: “Saltanat ishlarining bir qismi sabru toqat bilan bo‘lgay, yana bir qismi esa bilib-bilmaslikka, ko‘rib-ko‘rmaslikka solish bilan bitur. Qat’iylik, hushyorlik, ehtiyotkorlik, shijoat va sabr-chidam bilan barcha ishlar amalga oshirilgay”[42].

Nizomiddin Shomiy tomonidan keltirilgan quyidagi ma’lumot Amir Temurning naqadar piri nasihatlari va maslahatlariga so‘zsiz amal qilganini isbotlaydi: “Amir

[41] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 90-94.
[42] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 14.

Sohibqiron bir necha marta o‘z atrofidagi sodir bo‘layotgan hodisalarni jim kuzatdi, Sohibqiron ostonasiga kechirim so‘rab kelganlarni, o‘tmish voqealarini unutib, ularni arzini tingladi. Ularga ehsonu in’omlar marhamat qilib, tarbiyat va e’tiborini kuchaytirdi. “Bilib bilmaslikka solish juvonmardlar odatidandur”, - degan naqlga rioya qilib, munosabatlarga soya tushirmadi. Chunki gohida shunday bo‘ladiki, oqil va donishmand kishi badhoh va yovuz niyatli dushmanini lutfu ehson bilan o‘ziga xayrxoh do‘stga aylantiradi”[43].

To‘rtinchi tuzuk, davlatning ishlarini to‘ra va tuzukka asoslangan holda boshqarish. To‘ra va tuzukka asosan, davlatda o‘zining martaba va maqomini mustahkam saqlab turish;

Ushbu tuzuk ham bugungi kunda juda dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib, mamlakatda qonun ustuvorligini ta’minlashda, inson va fuqrolarning qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalashda, jamiyatda huquqiy ong va madniyatni shakllantirishda muhimdir. Zero, Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Qonun ustuvorligi – bu davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari chiqarayotgan hujjatlar, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari faqat va faqat Konstitusiya hamda qonunlarga muvofiq bo‘lishi shart, deganidir. Xalqimiz qonun buzilishiga qarshi qattiq turmas ekan, davlat idoralari, mansabdor shaxslar qanchalik urinmasin, qonun ustuvorligini ta’minlash qiyin bo‘ladi. Huquqshunos olimlarning bundan bir necha asr avval “Huquqni anglash mas’uliyat hissini rivojlantiradi”, deb aytgan hikmatli so‘zlari hech qachon o‘z dolzarbligini yo‘qotmaydi. Boshqacha aytganda, Konstitusiya va qonunlarga hurmat, huquqiy ong va madaniyat har bir

[43] Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – 97-98.

fuqaroning, har bir mansabdor shaxsning hayot va faoliyat tarziga aylanmog‘i kerak”[44].

Beshinchi tuzuk, amirlar va sipohiylarni martaba va unvonlar, zarur zebu ziynatlar bilan hushnud etish;

Amir Temur tomonidan amirlar va sipohlar doimo rag‘batlantirib borilgan. Manbalarda oddiy sipohdan tortib, amirlarning amiriga beriladigan maosh miqdori aniq belgilab qo‘yilgan. Masalan, “Oddiy sipohga mingan otining bahosi miqdorida maosh to‘langan bo‘lsa, bahodirlarning maoshi ikki ot bahosida, o‘n boshilar maoshi esa oddiy sipohlar maoshidan o‘n barobar ortiq bo‘lsin. Yuzboshilar maoshi o‘nboshilarga qaraganda ikki barobar, mingboshlilarniki esa yuzboshilarnikidan uch barobar ziyoda bo‘lsin. Amirlar amirining maoshi o‘z qo‘l ostidagilardan o‘n barobar ortiq bo‘lsin. Devonbegi va vazirlarning maoshlari esa amirlarnikidan o‘n barobar ko‘p bo‘lsin”[45]. Bundan tashqari, namunali xizmatlari uchun amirlar va sipohiylar martaba darajalari oshirilgan.

“Eng yaqin navkarlarimdan uch yuz o‘n uch kishiga amirlik mansabi berishni buyurdim, chunki ular asli toza, aql-farosatli, bahodir, dovyurak, tadbirkor, sergak, ehtiyotkor, oldi-ketini o‘ylab ish tutadigan kishilardir. Ularning har biriga o‘rinbosar tayinladim”[46].

Oltinchi tuzuk, adolat va insof bilan Tangri bandalarini o‘zidan rozi qilish. Gunohkorga ham, begunohga ham rahm-shafqat bilan, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqarish; Adolat va insofli bo‘lish Amir Temurning hayotiy dasturi bo‘lganiga hech

---

[44] Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 27 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги “Конституция ва қонун устуворлиги – ҳуқуқий демократик давлат ва фуқаролик жамиятининг энг муҳим мезонидир” номли маърузаси. Халқ сўзи, 2019 йил 9 декабрь.

[45] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 99-100.

[46] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 11-112.

kim shubha qilmaydi. Binobarin, “Kuch – adolatda” iborasining butun dunyoga mashhurligining o‘zi fikrimizning yorqin dalilidir. Sohibqiron ayniqsa, mazlumlar haqqini yeyishni hamda xalqqa jabr ko‘rsatganlarni qattiq qoralangan. “Qishloq oqsoqoli va shahar ulug‘lari kichikroq darajadagi odamga zulm qilsalar, o‘sha zulmga yarasha, har kimning ko‘tarishicha jarima solsinlar. Agar dorug‘alar va hokimlar xalqqa jabr-zulm etib, ularni xarob qilgan bo‘lsalar, ishlariga loyiq jazo berilsin. Biror kimsaning gunohi isbotlangandan keyin undan jarima olsalar, so‘ng yana darra bilan urmasinlar. Agar darra urish bilan jazolasalar, undan jarima olmasinlar”[47].

Ushbu tuzukning hozirgi kundagi ahamiyatini muhtaram Yurtboshimiz tomonidan olib borilayotgan qator islohotlarning amaliy natijalaridan ham ko‘rishimiz mumkin. “Sohibqiron Amir Temur bobomizning: “Adolat har bir ishda hamrohimiz va dasturimiz bo‘lsin!”, - degan chuqur ma’noli so‘zlari har birimiz uchun hayotiy e’tiqodga aylanishi zarur”[48].

Ayniqsa, “Qonun talablarini bajarmayotgan rahbar va mansabdor shaxslarni nafaqat ma’muriy, balki jinoiy javobgalikka tortish zarur. Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqiqmizga xizmat qilishi kerak va bu haqiqatni avvalo barcha bo‘g‘indagi rahbarlar yaxshi tushunib olishi zarur”[49]. Shuningdek, 2017 yildan e’tiboran respublikamida “Xalq qabulxonalari”ning samarali faoliyat yuritayotgani, sud-huquq sohasidagi so‘nggi islohotlar, sayyor sudlarning tashkil etilishi, Sud hokimiyatining chinakam mustaqil hokimiyatga aylanishi zarurligi, hokimlar va mutasaddi rahbarlarning joylarga borib

[47] Ўша асар. – Б. 106.
[48] Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т.1. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – Б. 140.
[49] Ўша асар. – Б. 116.

aholidan tushgan murojaatlarni ko‘rib chiqish va mavjud muammolarni o‘z vaqtida yechimini topishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirilaayotganini alohida ta’kidlash lozim[50].

Yettinchi tuzuk, sayyidlar, ulamo, mashoyix, oqilu donolar, muhaddislar va tarixchi olimlarni hurmatini joyiga qo‘yish;

Amir Temurning ushbu tuzukidan o‘rin olgan shaxslar doimo xalq orasida hurmatli, obro‘li kishilar hisoblangan. Shu bilan birga mamlakat rivoji va taraqqiyotiga hissa qo‘shib kelishgan.

Sohibqiron hatto tasarrufiga o‘tgan o‘zga mamlakatlarning olimlariga ham hurmat va e’tibor bilan qaraganini ko‘ramiz. YA’ni, “Sayyidlar, ulamo, mashoyix, fuzalo, akobir va ulug‘larni aziz tutsinlar. Menga bo‘ysungan mamlakatlarning sayyidlari, olimlari, shayxlari, fozil kishilari, darvishlari, zohidlarini suyurg‘ol, vazifa va oylik bilan siylasinlar”[51].

Nizomiddin Shomiyning yozishicha, “Bir kuni Eron imomlarining ulug‘lari va Turon sohib ixtiyorlarining fozillaridan bo‘lmish nomdor ulamolar va taqvoshior fuzalolar bilan to‘la bir majlisda Sohibqiron hazrat ularning bilim bo‘stonidan murod gulini terar, diniy masalalarning buyuklaridan va va islomga oid mushkul muhimotlardan savollar qilar, ularning har birlari esa o‘z hollariga yarasha javob berardilar”[52].

Respublikamiz Prezidenti tashabbusi bilan O‘zbekistonda olimlar jamoasiga keyingi uch yilda juda katta e’tibor qaratilib kelinmoqda. Xalq ta’limi va Oliy ta’limda faoliyat yuritayotgan o‘qituvchi hamda ilmiy darajaga ega bo‘lgan xodimlarga

---

[50] Ахмедова М.Т. Амир Темур давлатида хавфсизликни таъминлашнинг ҳуқуқий асослари. Юрид.фан.доктори....дисс. – Т.: ЖХУ, 2020. – Б.39.
[51] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 141.
[52] Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б. 369.

qo‘shimcha haq to‘lash bo‘yicha qator Hukumat qarorlari qabul qilinayotgani ham fikrimizning yorqin isbotidir.

Muhtaram Yurtboshimiz olimlarga qaratilgan fikrlari davomida ta’kidlaganidek: “Sizlardek, qalbi daryo, ulug‘ insonlar bilan birga ona Vatanimizni ravnaq toptirish, yurtimizda ilmiy muhitni yuksaltirish, xalqimizda, ayniqsa, yoshlarda ilmu-fanga intilishni kuchaytirish, ilmiy-texnikaviy, innovatsion sohalarni yanada taraqqiy ettirish uchun kelajakda hali ko‘plab ezgu ishlarni amalga oshiramiz. O‘zbekistonimiz zaminidan yangi xorazmiylar, beruniylar, ulug‘beklar yetishib chiqadi va Vatanimiz shuhratini butun dunyoga yuksaltiradi”[53].

Haqiqatdan ham, bugungi kunga kelib, ushbu aytilgan ishlarning barchasi amalga oshirilmoqda. O‘tgan 2019 yilda Toshkent shahri va viloyatlarda Prezident maktablarining tashkil etilgani hamda O‘zbek adiblari nomiga bunyod etilib, ko‘plab iqtidorli yoshlarni ta’lim olishlari uchun keng sharoitlar yaratilgan adabiyot va san’at maktablarining ochilishi fikrimizning isbotidir. Qolaversa, buyuk allomalarimiz Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug‘bek maktablari va ilmiy markazlarining tashkil etilishi bu boradagi islohotlar samarasidir.

Sakkizinchi tuzuk, shijoat bilan ish yuritish, biror ishni tutib bajarishni butun zehni, vujudi bilan berilib, bitirmagunicha qo‘lini tortmaslik, har neki degan bo‘lsa, unga amal qilish;

Bu tuzuki bilan Amir Temur kishi o‘z vazifasini mas’uliyat bilan bajarishi, ishni oxiriga yetkazishi hamda qonun-qoidalarga amal qilishi kerakligini uqtirib o‘tgan. Bir ishga azmu jazm bilan ishga kirishgani haqida Amir Temur: “Movarounnahrda mo‘g‘ullarning jabru zulmi ortib ketdi. Chunonchi, sayyid va

[53] Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т.1. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – Б. 179.

sayyidzodalardan yetmish kishini asir olib band etdilar. Ilyos Xoja davlat va siyosat ishlarida layoqatsiz bo‘lgani tufayli ularning zulmu sitamiga barham berishga ojiz edi. Men bo‘lsam, o‘z salobatu haybatim bilan mo‘g‘ullar ustidan g‘alaba qozondim va mazlumlarni zolimlar jabridan xalos etdim”[54].

To‘qqizinchi tuzuk, ra’iyat ahvolidan ogoh bo‘lish, kattalarni og‘a, kichiklarni esa farzand sifatida ko‘rish. Har yerning tabiati, har el va shaharning rasmu odatlari, mijozidan voqif bo‘lib turish;

Ushbu tuzukning sharhiga to‘xtalib shuni aytish kerakki, Amir Temur xalq dardi bilan yashashni, ra’iyat ahvolidan ogoh bo‘lishni hech qachon unutmagan. “Amr etdimki, ra’iyatdan mol-xiroj yig‘ishda ularni og‘ir ahvolga solishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo‘yishdan saqlansinlar. Negaki, raiyatni xonavoayron qilish (davlat) xazinasining kambag‘allashuviga olib keladi. Xazinaning kamayib qolishi esa sipohning tarqalib ketishiga sabab bo‘ladi. Sipohning tarqoqligi, o‘z navbatida, saltanatning kuchsizligiga olib boradi”[55]. Bundan tashqari, “Agar (har yer va elning) amaldorlari bilan kalontarlari oddiy fuqaroga jabr-zulm qilsa va shu orqali bechoralarga zarar yetkazgan bo‘lsa, (bunday vaqtlarda) yetkazilgan zararni kalontarlardan undirib, jabr ko‘rganlarga bersinlar, toki ular yana o‘z hollariga kelsinlar”.

Shuningdek, ushbu tuzukning yana muhim jihati, harob bo‘lib yotgan egasiz yerlarni obod qilish Sohibqironning doimo diqqat markazida bo‘lganini ko‘ramiz. YA’ni, “Xarob bo‘lib yotgan yerlarda korizlar qursinlar, buzilgan ko‘priklarni

[54] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 21.
[55] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 143.

tuzatsinlar, ariqlar va daryolar ustiga (yangi) ko‘priklar solsinlar, yo‘l ustida har manzilgohga rabotlar bunyod etsinlar”[56].

Amir Temur tomonidan bu borada amalga oshirilgan ko‘plab misollarni keltirishimiz mumkin. Endigi maqsadimiz, mana shu tuzuklarning hozirgi ahamiyatini ham ko‘rsatib o‘tishdir.

Yuqorida “Xalq qabulxonalari”ning faoliyati yo‘lga qo‘yilgani va unda aholini ko‘plab muammolari hal etilayotganini aytib o‘tdik. Bundan tashqari, hozirda respublikamiz hududidagi mavjud egasiz va qarovsiz yerlarga e’tibor berish, undan unumli foydalanish yuzasidan qator huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Bundan tashqari, hududlar iqlimi sharoitidan kelib chiqib, rivojlantirish, aholini ish bilan ta’minlashga qaratilgan ko‘plab chora-tadbirlarning amalga oshirilayotgani bunga misol bo‘la oladi[57].

O‘ninchi tuzuk, turk va tojik, arab va ajamning turli toifa va qabilalardan bo‘lgan va panohiga kirganlarning ulug‘lariga hurmat ko‘rsatish, qolganlarini ham siylash, yaxshilariga yaxshilik qilish, yomonlarni o‘z yomonlariga topshirish;

Amir Temur tomonidan o‘z tasarrufiga kiritgan mamlakatlar aholisi xavfsizligini saqlashga qaratilgan qat’iy choralar ko‘rilgan. “Fath etilgan diyorning ra’iyatini yomon hodisalardan, qatl va asiru band etilishdan, talanishdan muhofaza qilsinlar. Ularning mol-mulkini, buyumlarini talon-tarojdan saqlasinlar. O‘sha mamlakatdan tushgan o‘lja mollar egalariga qaytarib berilishini tekshirsinlar. Beklar, oqsoqollar, dehqonlar va ekin maydonlariga ishlov beruvchilar ko‘nglini xushnud etib, o‘zlariga qaratsinlar. Faqiru miskin, nogironlarga nafaqa tayin

[56] Ўша асар. – Б. 145

[57] Ахмедова М.Т. Амир Темур давлатида хавфсизликни таъминлашнинг ҳуқуқий асослари. Юрид.фан.доктори....дисс. – Т.: ЖХУ, 2020. – Б.43.

qilsinlar. Mudarrislar va shayxlarga kundalik maoshlar belgilasinlar. Avliyolar, din peshvolarining mozorlari va maqbaralariga vaqfdan mablag‘ ajratsinlar”[58].

Sohibqironning ushbu tuzugi ham bugungi kundagi eng dolzarb masalalarga tarixiy haqiqatni anglab yetishimizda javob bo‘la oladi. YA’ni, respublikamizning ko‘p millatli xalq ekanini inobatga olsak, hozirda 130 dan ortiq millat vakillarining qonuniy huquqlari Konstitusiyamizning 18-moddasida: “O‘zbekiston Respulikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar”[59], - deb mustahkamlab qo‘yilganligi fikrimizning tasdig‘idir.

O‘n birinchi tuzuk, farzandlar, qarindoshlar, yoru birodarlar, qo‘shnilar va do‘stlik qilganlarni unutmaslik;

Nihoyat bu tuzukning mazmunidan ko‘rinib turibdiki, Amir Temur davlatni idora etish bilan birga yaqinlarini e’tibordan chetda qoldirmaganini ko‘rish mumkin. Sohibqiron farzandlari tarbiyasiga juda e’tibor va qattiqqo‘llik bilan qaragan. Farzandlarini o‘qitish, harbiy-jismoniy mashqlar bilan shug‘ullantirish, ham ma’nan, ham jismonan baquvvat bo‘lib voyaga yetkazishda nihoyatda mas’uliyatli bo‘lgan. Davlatni idora qilish va tizginda ushlab turish borasida “Tuzuklar”da shunday yozadi: “Endi mening nomdor baxtiyor farzandlarim va mamlakatlarni zabt etuvchi iqtidorli nabiralarimga yo‘l-yo‘rig‘im shulki, men o‘n ikki narsani o‘zimga shoir qilib olib, saltanat martabasiga erishdim. Shu o‘n ikki tuzuk yordamida mamlakatni qo‘limda tutib, saltanatimni boshqardim va saltanat taxtiga zebu

[58] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 141.
[59] Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т. Ўзбекистон, 2021. – Б.7.

ziynat berdim. Ular ham ushbu tuzukka amal qilsinlar. Mening va o‘zlarining davlatu saltanatlarini ehtiyot qilsinlar”[60].

Qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro aloqalar yuzasidan, Yurtboshimiz SH.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Davlatlarimiz aynan yaxshi qo‘shnichilik va o‘zaro manfaatli hamkorlik tamoyillari asosida savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya, madaniy-gumanitar sohalarda, xavfsizlik va barqarorlik masalalarida o‘z salohiyatini yanada samarali amalga oshira oladi. Bugungi kunda mintaqaning barcha mamlakatlari terrorizm, diniy ekstremizm, transmilliy jinoyatchilik va narkotrafik tahdidlariga duch kelmoqda. Ushbu tahdidlarga qarshi samarali kurashishni faqat birgalikda, mintaqa mamlakatlari o‘rtasidagi amaliy hamkorlik mexanizmlari doirasida ta’minlash mumkin”[61].

O‘n ikkinchi tuzuk, do‘st-dushmanligiga qaramay, har joyda sipohlarni hurmat qilish. Chunki ular boqiy mato bo‘lgan jonlarini foniy dunyo moli uchun sotadilar. O‘zlarini ma’raka-maydonga, halokatga otib, jonlarini qurbon qiladilar[62].

Amir Temur davlati hududiga kirgan mamlakatlar sipohlariga katta e’tibor bergan. Ularni turli sovg‘a-in’omlar bilan siylab, harbiylikka qabul qilgan. Ularning harbiy mahoratini oshirishga, doimo harbiy va jismoniy tayyorgarlik ko‘rishlari uchun yetarli shart-sharoitlar yaratilgan.

Amir Temur mamlakatni yuqorida ko‘rsatilgan tamoyillar asosida adolatli boshqarishga alohida diqqat bilan qaradi. Davlat aql bilan boshqarilishi shart ekanligi, buning uchun hukmdor yonidagi vazirlar unga mos darajada donishmandlik bilan ish

[60] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 73-74.
[61] Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. Т. 2. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 265-269.
[62] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 74-78.

yuritib, davlat ishlarida aql-farosat va uzoqni ko‘ra bilishlik bilan mashaqqatlarni yengishda xalqning noroziligini orttirmaslikka harakat qilish kerakligi borasida alohida ta’kidlagan edi: “Dono vazir shuldirki, saltanat korxonasining ishlarini eng to‘g‘ri chorayu tadbirlar qo‘llab, yaxshi anglagan holda, amalga oshirib, davlatni boshqarishda tartib-intizomning barqaror bo‘lishiga harakat qildi”[63]. Bunda biz Sohibqironning mamlakatni boshqarishda ayonlarning barchasi birdek aql va bilimlilik bilan ish olib borib, elni odil boshqarib borishi kerakligini asosiy vazifa etib qo‘yilganligini ko‘ramiz.

Insonning ijobiy fazilatli bo‘lishi, eng avvalo uning aqliga, adolatni tushunish darajasiga bog‘liq deb o‘ylagan Amir Temur mamlakat ishining barcha sohalarida, ijtimoiy hayotda aql va adolatlilikning ustun bo‘lishiga intildi[64].

“Temur tuzuklari”da yozilganidek, “Har elning ulug‘larini va sharaf-e’tiborli kishilarini hurmatlab, martabalarini oshirdim. Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulmu sitam yo‘lini to‘sdim”[65].

Darhaqiqat, yuqorida sanab o‘tgan o‘n ikki tuzukning bugungi kundagi ahamiyati borasida uzoq gapirish mumkin. Jumladan, respublikamizda so‘nggi uch yilda har sohada olib borilayotgan ishlarni alohida ta’kidlash o‘rinli.

Sohibqiron davrida qonunlar barcha uchun barobar ekanligi hatto, uning ba’zi bir o‘g‘illari va nabiralari qonundan tashqari noloyiq ish qilganlarida ularni qattiq jazolanganlar. Amir Temur qattiqqo‘l va shu bilan birga adolatparvar davlat arbobi bo‘lgan[66].

---

[63] Сатторий Ҳ. Амир Темур севган юрт. –Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б. 128.
[64] Амир Темур илм-фан ва маданият ҳомийси.// Халқаро илмий конференция материаллари. -Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат. 2012. – Б. 104.
[65] Темур тузуклари. -Т.:Ўзбекистон, 2018. – Б. 137
[66] Ахмедова М.Т. Амир Темур давлатида хавфсизликни таъминлашнинг ҳуқуқий асослари. Юрид.фан.доктори....дисс. – Т.: ЖХУ, 2020. – Б.46.

Mamlakatda “Rosti-rusti” (Kuch - adolatda) shiori davlat siyosati darajasiga koʻtarilgan edi. Huddi shu davrdan eʼtiboran butun Turkiston ulusining, nafaqat Amir Temur buyuk davlatining poydevori qurildi, turli vazirliklar, devonxonalar, harbiy tizim va boshqalar shakllandi, balki huquqiy-siyosiy jihatdan Amir Temur gʻoyasining asosiy oʻzagini tashkil etgan davlat siyosatining asosiy qoidalari tarkib topdi va Sohibqiron davlat tuzumining barcha yetakchi yoʻnalishlari boʻyicha amal qila boshladi.

Bu siyosiy-huquqiy qoidalar quyidagilardan iborat edi:

a) davlat, siyosat va xalq, dunyo bilan muammolarni hal etishda mashvarat asosida ish koʻrish;

b) Temurning oʻzi yozganidek: “Sltanatni oʻz tasarrufimga olgudek boʻlsam, adolat bilan hukmronlik qilishga azmu jazm etdim”[67].

v) Amir Temur Yaso, Toʻra, Tuzuk, shariat qonunchiligiga binoan talab etiladigan barcha qoidalarga amal qilgan;

g) iqtidorga, taxtgan kelishda ham barcha qonun-qoidalarni asta-sekinlik bilan amalga oshirgan;

d) oʻsha davrda boʻlgan qonun ustuvorligi, barchaning qonun oldida tengligi kabi sof huquqiy normalar, talablar ham juda katta mafkuraviy vazifalarni bajarishi bilan birga Amir Temurning gʻoyasi asosini ham tashkil etgan. Sohibqiron hayotining koʻp davri, aniqroq aytganda, harbiy-siyosiy salohiyati davlatchiligining keyingi 35 yili ana shu asl milliy vatanparvarlik, milliy davlatchilik, turkiy ellarning ravnaqiga hissa qoʻshgan davr boʻldi.

Biz amalga oshirgan tadqiqotimiz natijasi noyob yozma manbalardagi maʼlumotlardan shunga guvoh boʻldikki, Amir

[67] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 29

Temur Movarounnahrda asos solgan kuchli markazlashgan davlatda quyidagi asosiy siyosiy-huquqiy g‘oyalar mujassam etgan va davlatchilik tariximizda munosib o‘rin egallagan:

Birinchidan, o‘troq shahar hayoti, madaniyati afzalliklarini ko‘chmanchi, dasht turmush tarzi, ruhiyati afzalliklari bilan uyg‘unlashtirildi;

Ikkinchidan, millat, qavm, tabaqa va shaxslarning qonun oldida tengligi, qonun ustuvorligi ta’minlandi;

Uchinchidan, tolerantlik, ya’ni diniy e’tiqodlar masalasida sabr-toqat ko‘rsatish, zo‘rlik va zulmga yo‘l qo‘ymay, ayni paytda din va davlat ishlari maromda olib borildi;

To‘rtinchidan, adolat – kuchda emas, balki davlat, jamiyatning kuch-qudrati, barqarorligi adolatda, degan g‘oyaga asoslanuvchi “Rosti-Rusti” tamoyili davlat siyosati yuritildi;

Beshinchidan, islomiy ma’naviy-axloqiy shar’iy qadriyatlar hamda umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi e’tirof etildi[68].

Amir Temur o‘z imperiyasini boshqarish imkoni boricha qilich ishlatmasdan, davlatlar o‘rtasidagi masalalarni chorayu tadbir bilan hal qilishga harakat qilgan. Bu fikr “Tuzuklar”da asosiy g‘oya sifatida deyarli hamma boblarda mavjuddir. U qo‘l ostidagi odamlarni, mamlakatlarni idora etish uchun ko‘p o‘yladi, dono kishilar bilan maslahat qildi[69].

Amir Temurning maslahatchilari payg‘ambar Muhammadning so‘zlari va o‘zining amri edi. Pirining quyidagi so‘zlarini alohida ta’kidlaydi: “Xudoning va xudo payg‘ambari hukmiga amal qilgin, Rasulullohning zurriyotiga yordam ber, xudoni ne’matlarini yeb, yana unga va uning payg‘ambarlariga dushmanlik qilgan podshohlarni xudoning mulkidan chiqar.

[68] Ахмедова М.Т. Амир Темур давлатида хавфсизликни таъминлашнинг ҳуқуқий асослари. Юрид.фан.доктори....дисс. – Т.: ЖХУ, 2020. – Б.48.
[69] Ахмедов Б. Соҳибқирон Темур. – Т.: Абдулла Қодирий, 1996. – Б. 22.

Xudoning mulkida adolat bilan ish tutg‘ilkim, shunday demishdirlar: “Mamlakat kufr bilan turishi mumkin, lekin zulm bor yerda turolmaydi”[70]. Bu so‘zlar Amir Temur siyosatining asosini tashkil etadi, deyish mumkin.

Amir Temur turli mamlakatlarning aholisini yo‘l-yo‘riqqa solish va maosh tayinlash, avliyolar va din peshvolarining mozorlarini tuzatish, vaqf va nazr ishlarini tartibga solishda tuzuklarini, yani qonunlarini joriy qiladi. Bu qonunga binoan fath etilgan davlat sipohiylari o‘z ixtiyorlari bilan panohiga kelsa, Amir Temur ularni navkar qilib olgan. Shu davlatlarning raiyati yomon hodisalar, qatl etilish, asiru band etilishdan himoyalangan. Ularning molu mulki, buyumlarini talon-tarojlikdan saqlagan. O‘sha mamlakatlardan olinadigan o‘lja, soliqlar miqdorini aniq hisobga olishgan. Sayyidlar, ulamo, mashoyix, fuzalo, akobirlar aziz tutilgan. Ayniqsa, dehqonlar hayoti bilan yaqindan shug‘ullanib, ularga shart-sharoitlar yaratib berish amirlardan talab qilingan. Amir Temur yozganidek, “Faqiru miskin, biron kasb qilshiga ojiz shol-ko‘rlarga nafaqa belgilansiilar. Mudarrislar va shayxlarga biron vazifa bersinlar”[71].

Amir Temurning siyosiy faoliyatida va qarashlarida yuqorida ko‘rganimizdek, adolat tarozisiga qo‘yadigan bo‘lsak, yomonlik emas, faqat yaxshilik, urush emas, tinchlik, bosqinchilik va talon-tarojlik emas, obodonchilik ustunlik qiladi. U haqiqatan ham tadbirkor, insonparvar va adolatli hukmdor bo‘lgan.

[70] Темур Тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 65.
[71] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 65.

Butun bir davlatning markazlashgan tarzda boshqarilishida so‘zsiz Amir Temurning xizmati ulkanligini quyidagi xulosalarimizda ham alohida ta’kidlashni lozim topdik:

birinchidan, u mamlakatni boshqarishda yangi tamoyillarni joriy etdi va mustaqil davlatchilik tamoyillariga asos soldi;

ikkinchidan, mamlakatni tuzuklarga (qonunlarga) asosan boshqarishni ta’minladi. Adolat va ma’rifat ishlarini “Kuch-adolatda” degan shiorga asosan yo‘lga qo‘ydi;

uchinchidan, Amir temur hukmdorni davlat qudratining ramzi deb tushungan, uning ozgina salbiy xatti-harakati ham ommaga salbiy ta’sir ko‘rsatishini bilar edi. Shu sababli davlat rahbari har qanday sharoitda ham o‘zi chiqargan qonunlarning amalda ijrosini ta’minlash shartligini uqtirgan. Qonunlarning ijrosini ta’minlashda, avvalo, uning o‘zi va oilasi xalqqa o‘rnak bo‘lgan.

Sohibqiron fikricha, hukmdor hox kichik, hox katta bo‘lsin, har ishdan ogoh bo‘lishi – bu tinch-totuvliklik va farovonlikning kafolatidir. Loqaydlik, sovuqqonlik, davlatni boshqalarga ishonib topshirib qo‘yish xalq, davlat, qolaversa, davlat rahbarlarini halokatiga sabab bo‘lishi mumkin.

Haqiqatan ham, Amir Temur asos solgan davlatda o‘rnatilgan huquqiy tizim har doim ustun bo‘lib, uning qoidalariga barcha rioya qilishining majburiyligi ta’minlangan, bu tartibni bir necha bor buzgan va o‘z vazifasini surunkali ravishda bajarmaganlarga qattiqqo‘llik bilan, lekin o‘rnatilgan qoidalar doirasida, munosabatda bo‘lingan. Ayniqsa, davlat xavfsizligiga xilof ish tutganlar va xoinlar qattiq, ayni paytda, adolatli jazolangan. Sohibqiron ta’biri bilan aytganda, “Har qanday odam mening adolat devonimdan panoh topgan ekan, gunohi bo‘lsa ham, uni kechirsinlar. Ikkinchi, uchinchi marta

yana gunoh yo‘liga kirsa, u holda gunohiga yarasha jazolasinlar”[72].

Akademik A. Saidov ta’kidlaganidek, “Amir Temur islom huquqshunosligi ilmini har tomonlama o‘zlashtirgan, bu sohada yuksak darajaga ko‘tarilib, fatvo berish salohiyatiga ega bo‘lgan. Qur’oni karim oyatlarini to‘la yod olib, ularni boshidan oxiriga va oxiridan boshiga qarab yoddan o‘qish malakasini egallagan Sohibqiron bu oyatlarning tub mazmunini chuqur tushunib, o‘zining ish dasturiga aylantirgan”[73].

Bundan ko‘rinadiki, Amir Temurning oyatlar va hadislarga ishonch va e’tiqodi shu qadar kuchli bo‘lganki, ularni o‘sha davrning buyuk binolarida chiroyli islomiy naqshlar bilan yozib qo‘yishga buyruq bergan. Temuriylar davridan qolgan barcha binolarda bitilgan ilm-adolat, hikmat, ayniqsa, fiqh ilmiga doir oyat, hadis va hikmatli so‘zlarni aynan bugun ham ko‘rishimiz mumkin.

Albatta, Amir Temurning qonun ustuvorligi va adolatli shoh davlat boshlig‘i sifatidagi mana shunday yo‘l-yo‘riqlari xali-hamon o‘zining dolzarbligini yo‘qotgan emas. Bugungi tinch va osoyishta yurtimizda ham juda ko‘p ezgu ishlarning olib borilayotgani hamda buning uchun qonuniy asoslarning takomillashtirilayotganini ta’kidlab o‘tish lozim.

1.3. “Temur tuzuklari”ning huquqiy manba sifatidagi o‘rni va ahamiyati

“Temur Tuzuklari” XIV asrning II-yarmiga oid ijtimoiy-siyosiy voqealarni o‘rganishga doir Sohibqiron saltanati uning davlati tizimi, boshqaruvi, sud tizimiga oid ma’lumotlarni o‘zida

[72] Темур тузуклари. - .Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б.68.
[73] Саидов А., Керен Л. Амир Темур ва Франция. – Т.: Адолат, 2016. – Б. 51.

mujassam etgan tarixiy huquqiy manbadir. “Temur tuzuklari” ma’muriy-harbiy kodeks sifatida huquqshunoslar uchun bebaho ma’naviy manba hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Ulug‘ ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va bugungi kunda butun ma’rifatli dunyoni hayratga solib kelayotgan ilmiy meros faqat bir millat yoki xalqniki emas, balki butun insoniyatning ma’naviy mulki bo‘lib, bu bebaho boylik yangi va yangi avlodlar uchun donishmandlik va bilim manbai, eng muhimi, yangi kashfiyotlar uchun mustahkam zamin bo‘lib xizmat qilishi shubhasizdir”[74].

Yurtboshimiz tomonidan askarlar harbiy qasmyod qilishdan oldin, O‘zbekiston tarixida muhim o‘rin tutgan “Temur tuzuklari”laridan sinov topshirishini aytib o‘tgan. Ilg‘or harbiy qismlarga ulug‘ sarkardalarimizning nomini berish, mohir lashkarboshi bobolarimiz haqida ilmiy tadqiqotlar, badiiy kitoblar, kinolar yaratishga ko‘rsatma berdi[75].

Amir Temur nomi bilan bog‘liq bo‘lgan uning siyosiy-huquqiy qarashlari to‘plami bo‘lgan “Temur Tuzuklari”, “Voqeati Temuriy” (Temurning boshidan kechirganlari) kabi nomlar bilan Sharq va G‘arbda mashhur bo‘lgan to‘plam Sohibqironning hayotiy tajribalari asosida ishlab chiqilgan, qonun darajasiga ko‘tarilgan va o‘zining vorislari uchun nasihatlarini o‘z ichiga olgan.

“Temur tuzuklari” ana shunday asarlardan biridir. Bu manba Amir Temur tarixi uning zamonida aniqrog‘i 1342-1405 yillar

---

[74] Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистондаги Ислом маданияти марказини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисидаги қарори. // Халқ сўзи, 2017 йил 24 июнь.
[74] Темур тузуклари. – Т.:Ўзбекистон, 2018. – Б. 153.
[74] Ўша асар. – Б. 153.
[75] Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Хавфсизлик Кенгашининг кенгайтирилган таркибдаги йиғилишда сўзлаган нутқи. 2018 йил 27 ноябрь. https: // kun. uz.

orasida Movarounnahrni ijtimoiy-siyosiy ahvoli Amir Temur davlati hamda qo‘shinning tuzilishi, qo‘shni mamlakatlar va xalqlari bilan bo‘lgan munosabatlari haqida hikoya qiladi.

Amir Temur davrida davlat asosini 12 ijtimoiy tabaqa va toifadagi kishilar tashkil etgan bo‘lib, uning taqdirini esa uch narsa: podshoh, xazina va askar hal qilgan. Amir Temur o‘zining ulkan saltanatini farzandlariga bo‘lib idora qilgan. Movarounnahrdan boshqa uning tasarrufida bo‘lgan barcha viloyatlar va mamlakatlar o‘zicha mustaqil bo‘lib, ularga Amir Temurning o‘g‘illari va nabiralari hukmronlik qilganlar[76].

“Tuzuklar”da vazir, amir va voliylar haqida ham muhim ma’lumotlar keltirilgan. Kitobda qayd etilishicha: “Vazirlar saltanat ustunlaridir. Mamlakat obodonchiligini, raiyatning tinchligini sipoharning birligini, ko‘zda tutadilar. Davlat, saltanat ishlarini yuzaga chiqarishda kamchilikka yo‘l qo‘ymaslik, saltanatga zararli narsalarni qaytarishda molu-jonini ayamaydilar[77].

Yirik davlat arbobi I.Karimov bu borada: “Shaxsan men Sohibqiron bobomiz bizga meros qoldirgan “Tuzuklari”ni o‘qisam, huddiki o‘zimga qandaydir katta ruhiy kuch-quvvat topgandek bo‘laman. Har bir satri bir umr el-yurt, saltanat tashvishi bilan yashagan fidoyi inson, ulkan davlat arbobining keng miqyosdagi o‘y-fikrlari, hayot va kurash tajribasi, mushohadasi, ba’zan esa dardli va iztirobli kechinmalari bilan sug‘orilgan bu asarda qanday teran ma’no mujassam ekanini ma’rifatli, zukko kitobxon yaxshi anglaydi, albatta”[78], - deganlar.

---

[76] Ахмедова М.Т. Амир Темур давлатида хавфсизликни таъминлашнинг ҳуқуқий асослари. Юрид.фан.доктори....дисс. – Т.: ЖХУ, 2020. – Б.57.
[77] Темур тузуклари. –Тошкент. Ўзбекистон, 2018. – Б. 107.
[78] Ўша асар. – Б. 8.

“Temur tuzuklari” kitobi ikki bo‘limdan iborat bo‘lib, uning birinchi qismi – birinchi maqola Sohibqiron Temurning hokimiyatga kelganidan to uning so‘nggi kunigacha bo‘lgan hayoti, siyosiy faoliyati haqida, aniqrog‘i Amir Temurning asta-sekin Movarounnahrda hokimiyatini qo‘lga kiritish va uning Buyuk Ipak yo‘lini tiklash asosida 27 davlatni birlashtirgan ulkan saltanatga asos solinishi haqida hikoya qilinadi.

Birinchi qismda 31 tadan 13 ta kengash mavzulari birma-bir sanab ko‘rsatiladi.

Ikkinchi qism esa, Sohibqiron Temur nomidan shahzodalarga qaratilgan vasiyatlari, pand nasihatlari tuzuk sifatida bayon etilgan. Unda jahongir davlatni idora qilish san’atining nozik sirlari, tamoyillari haqida yozgan. Amir, vazirlar va beklarni tanlab qo‘yish, qo‘shin boshliqlari, ularni xizmatlarini taqdirlash, sipohiylar va ularning maoshlari kabi masalalari xususida vasiyat qilinadi.

“Temur Tuzuklari” 1783 yil Angliyada, 1785 yil va 1981 yil Hindistonda, 1868 yil Eronda bosmadan chiqadi. 1787 yil fransuz, 1830 yil ingliz, 1845 yil urdu, 1894 yil, 1934 yil rus, 1835 yil, 1857 yil turkiy mumtoz o‘zbek tilida, 1968 va 1992 yillarda I.M.Mo‘minov yozgan qisqa so‘z boshi bilan N.P.Ostroumov tomonidan nashr etilgan. O‘zbekistonda esa 1991 yilda “Guliston” jurnalida Alixonto‘ra Sog‘uniy tarjimasi e’lon qilingan bo‘lsa, o‘zbek sharqshunosi Habibulla Karomatov tomonidan tayyorlangani “Sharq yulduzi” jurnalida (Toshkent, 1989, 8-son), so‘ngra alohida kitob holida 1991 yilda G‘afur G‘ulom nashriyotida chop etildi.

Yurtboshimiz SH.M.Mirziyoyev “Temur tuzuklari”ni bo‘lg‘usi harbiylar o‘rganishi zarurligini ta’kidlaganlaridan

so‘ng, u qayta-qayta krill va lotin alifbolarida, katta va kichik hajmlarda chop etilmoqda.

“Temur tuzuklari”ning 2018 yilda hozirgi O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori, tarixsi olim J.Raximov tomonidan nashrga tayyorlangan nusxasining chop etilishi respublikamizda faoliyat olib borayotgan harbiy ta’lim muassasalari harbiy xizmatchilari va kursantlari uchun yangilik bo‘ldi.

Amir Temur toju-taxtlari vorislariga vasiyat va pand-nasixatlar qilar ekan, jumladan shunday deydi: “Mamlakatlarni fath etuvchi baxtli farzandlarim va jahonni idora etuvchi qudratli nabiralarimga ma’lum bo‘lsinki, Tangri taolo dargohida umidim shulki, ko‘plab farzandlarim, avlodim saltanat taxtiga o‘tirib, mamlakatlarni idora etgay. Shuning uchun saltanat qurish, davlat tutish ishlarini bir necha tuzukka (dastur ul-amal) yozib qoldirdim, toki farzandlarim va avlodlarimdan bo‘lganlarining har biri unga muvofiq ish yuritsin, mehnatu mashaqqatlar, ko‘p harbiy yurishlar, urush-taloshlar bilan Tangrining inoyati va hazrat Muhammadning salomlari bo‘lsin, tole’i bilan millatning sharofati, on hazratning ulug‘vor avlodi va qimmatli sahobalariga qilgan muhabbat va do‘stligim orqali qo‘lga kiritgan davlat va saltanatni saqlagaylar”[79].

Amir Temurning amalga oshirgan ishlarini yirik tarixchi Muiniddin Natanziy shunday izohlaydi: “Devon ishlari tartibi va sultonlik qilish tarzlari haqida shunday bir qoidani joriy etdiki, u to olam inqirozigacha aqli komil vazirlar uchun dastur va tajribali hokimlar uchun yorliq bo‘la oladi. Uning davlati va iqboli yulduzi (balqishi) shu darajada ediki, bir otliq bilan bir diyorni olar, bir so‘z bilan viloyatlarni zabt etar, tahdid qilishi bilanoq

[79] Темур Тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 43.

tish-tirnog‘igacha qurollangan lashkarni tor-mor keltirar, bir do‘q bilan son-sanoqsiz qo‘shinni joyidan qo‘zg‘atardi. Unga qarshilik ko‘rsatish fikrini hech kim hayoliga ham keltirolmas, unga ro‘paro‘ bo‘lish istagi biron kishining ko‘nglidan joy ololmas edi. Chunonchi, Iskandarning g‘alabalari haqidagi rivoyatlar bekor bo‘ldi va rustamning shijoati to‘g‘risidagi ovozalar so‘nib qoldi”[80].

Amir Temur o‘zining yuqorida zikr etilgan fikrini davom ettirib: “Vorislarim bu tuzuklardan o‘z saltanat ishlarini boshqarishda qo‘llanma sifatida foydalangaylar, toki mendan ularga yetadigan davlat va saltanat zararu tanazzuldan ozod bo‘lgay. Endi mening nomdor baxtiyor farzandlarim, mamlakatlarni zabt etuvchi iqtidorli nabiralarimga yo‘l-yo‘rig‘im shulki, men o‘n ikki narsani o‘zimga shior qilib olib, saltanat martabasiga erishdim. Shu o‘n ikki narsa yordamida mamlakatlarni zabt etib, saltanatimni boshqardim va saltanat taxtiga ziynat berdim. Ular ham ushbu tuzukka amal qilsinlar. Davlatu saltanatimni va o‘zlarini ehtiyot qilsinlar”[81].

Amir Temur yurishlari davomida qaysi bir davlatda zulm-zo‘ravonlik bo‘lsa, shu mamlakatda adolatni tiklashga, qonun-qoidani joriy qilishga da’vat qiladi. Misol tariqasida o‘zining Hindistonga yurishini zaruratini shunday izohlaydi: “...Men Hindiston poytaxtini Firuzshohning nabirasi sulton Mahmuddan, Malluxon va Sorangdan tortib oldim, dinu shariatni tarqatdim”[82]. Demak, o‘zga mamlakatlarni zabt etshida Amir Temur u yerlarda shariatni, ya’ni musulmon qonunchiligini tiklaganini yozadi. U Iroqi Ajam, Fors va Shom mamlakatlarini ham turli-tuman dinsizlardan (ilhod) va zinddiqlikdan tozalaganini aytadi.

[80] Муиниддин Натанзий. Мунтахаб ут-таворихи муиний. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – Б. 101-102.
[81] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 73-74
[82] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 62.

Jahongirlik qilishga kirishganida Amir Temur to‘rt narsani doim xotirasida saqlaganini tuzuklarida yozadi.

Birinchisi - qaysi mamlakatni zabt etmoqchi bo‘lsa, doimo u kengash va tadbir bilan ish ko‘rgan.

Ikkinchisi - xatoga yo‘l qo‘ymasdan, ko‘p o‘ylab, ishlarni sergaklik va ehtiyotkorlik bilan xavfsizlikni o‘ylab qilgan. Har yerning, el-ulusining tabiati va mijozlarini xotirasiga keltirib, ularning tabiatiga muvofiq yo‘l tutib, shunga qarab unga hokim tayinlagan.

Uchinchisi - uch yuz o‘n uch asl zotli, shijoatli va aql-farosatli er yigitlarni atrofiga birlashtirib, ularni amir yoki bek darajasiga ko‘targan. Ularning so‘zlari, ishlari, raylari yagona bo‘lgan, - deb hisoblaydi Amir Temur.

To‘rtinchisi - bugungi ishni ertaga qoldirmasdan, “yumshoqlik qilishga to‘g‘ri kelsa, muloyimlik qilgan, qattiqqo‘llik ishlatish vaqti yetsa, qatiy choralar ko‘rgan. Shoshmaslik kerak yerda - shoshilmagan, shoshilarli ishlarni kechiktirmagan. Qaysi ishni chorayu tadbir bilan bitirishning iloji bo‘lsa, unda kuch ishlatmagan”[83].

Sohibqironning ta’kidlashicha, agar hukmdor davlatda kuchli hokimiyat bo‘lishini istasa quyidagi tamoyillarga amal qilishi kerak: “Saltanat korxonasi Tangri taolo korxonasining bir kichik nusxasidirki, unda turli mansabdagi xodim va xizmatchilar (amal va fe’li) noiblar, eshik og‘alari (hujjat) bordir, ularning har biri martabasiga yarasha o‘z yurishlari bilan mashg‘uldir. hech biri o‘z martabasidan chetga chiqmaydi va doimo Allohning amriga muntazir bo‘lib turadilar”[84].

[83] Темур Тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 64.
[84] Ўша асар. – Б. 106.

Sohibqiron vazirlarga xos bo‘lgan noyob fazilatlarni sanar ekan, yana bunday deb yozgan edi: “Kamolga erishgan vazir ulkim, davlat muomalasini tartibga keltirib, mulkiy va moliyaviy ishlarni to‘g‘rilik bilan asl-nasli tozaligini ko‘rsatib ajoyib tarzda ko‘rsatadi”[85].

Saltanat saroyiniig ishonchli va e’tiborli kishilari – vazirlar xususida esa Amir Temur quyidagicha izoh bergan, “Agarda vazirlar o‘z faoliyatlarida davlatga qarshi chiqsalar, xiyonat qilsalar, ularni jazolashga, o‘ldirishga shoshmaslikni uqtiradi. Avval xabar beruvchilarning o‘zlari kimligini va undan keyin so‘zlari rostmi yoki yolg‘onmi ekanligini aniqlash kerak”.

Boshqacha qilib aytganda, ularning ko‘rsatmalarini mahak[1] toshiga urib tekshirib ko‘rishga da’vat qiladi. Bu borada shuni aytish kerakki, Amir Temur jinoyat va jazo masalasida nihoyatda ehtiyotkorlik bilan ish ko‘rishni, avval obyektiv faktlarni aniqlashga va undan keyingina qilgan jinoyatiga yarasha jazo belgilashga, hukm chiqarishga chaqirganligi muhimdir. Biz bu o‘rinda yana bir bor uni nafaqat harbiy ishlarni yaxshi bilgan, balki huquqiy masalalarda ham juda tiyran fikr sohibi ekanligi ko‘ramiz.

Amir Temur o‘z vorislarini ogohlantirib aytadiki, ko‘p hollarda hasadchilar, ta’magirlar, g‘iybatchilar ko‘rolmay, yolg‘on to‘qib, chinday qilib odamlar orasida tarqatib, o‘zlarining razil maqsadlariga erishadilar. Davlat ichida talay olchoq, yomon odamlar bordirki, davlat dushmanlarini yaxshilab, yaxshilarni yomonlashadi. Va o‘rtaga nizo solishga harakat qiladilar. Ularning maqsadi saltanat qo‘rg‘oniga rahna solishdir, deb hisoblaydi u. Bunga yorqin misol qilib, Amir Husayn uning

[85] Темур Тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 107.

[1] Маҳак тоши - олтинни унга уриб, тоза ёки сохталига аниқланадиган тош.

vazirlaridan birini aldab, Amir Temurga sodiq bo‘lgan Amir Idigu Temur va Amir Jokuni unga qarshi qo‘yish maqsadida fisqu-fasod gap chiqaradi. Bundan xabardor bo‘lgan Amir Temur amir Husaynning maqsadini anglagandan keyin bu uydirma gaplarni eshitmaganlikka olganini hikoya qiladi[86]. Bu borada Amir Temur xatoga yo‘l qo‘yganligiga ham iqror bo‘ladi. Amir Abbosga nisbatan hasadgo‘ylarning gapiga ishonib, uni o‘limga hukm qiladi. Oxir oqibatda ularning xiyonatkorona ig‘volarining asl maqsadini anglab, keyinchalik qilgan ishidan o‘kingan va ko‘p pushaymon bo‘lgan[87].

Mamlakat xazinachilari bo‘lmish moliya vazirlari, moliya ishlarida ehtiyotsizlik qilsalar, ya’ni boylikning bir qismini o‘zlashtirib olsalar, o‘zlashtirib olgani o‘ziga tegishli ulufa miqdoriga teng bo‘lsa, mazkur mablag‘ unga sovg‘a-in’om o‘rnida berilsin. Agar o‘zlashtirib olgan mablag‘i maoshidan ikki barobar ortiq bo‘lsa, ortig‘i oladigan maoshidan ushlab qolinsin, agar maoshidan uch barobar ortiq bo‘lsa, hammasi xazinaga tortiq sifatida olinsin, deb farmon beradi.

Amir Temur vazirlarini haddan ortiq siylashga ham qarshi bo‘ladi. Chunki bunday hollarda uning o‘zining obro‘-e’tiboriga putur yetadi, deb hisoblaydi. Amir Temur uqtiradiki, “Vazirlarning dushmanlari ko‘p bo‘ladi. Sabab olam ahlining barchasi dunyo talabdir”, - deb yozadi u. Vazirlar hasadgo‘ylarning gaplariga, ig‘volariga quloq solmasliklari kerak, deb hisoblaydi. Bunga misol tariqasida Amir Temur quyidagi voqeani ibrat qilib keltiradilar: “Chig‘atoyning bir vaziri bo‘lgan ekan, g‘arazgo‘ylar uni xazinadan bir necha ming oltin o‘g‘irladi, deb xonga xat yozgan edilar. Xatni xonga

[86] Темур Тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 71.
[87] Ўша асар. – Б. 104.

koʻrsatganlarida, u mazkur vazirni huzuriga chaqirtirib, unga: “Sen nazari past odam ekansan. Mendek podshohning vaziri boʻla turib, mamlakatimdan shuncha oz narsa olibsan. Dono vazir (xonning) bu qadar katta ehsonidan mamnun boʻlibdi va bor davlatining barchasini keltirib, xonga peshkash qilibdi. Bu bilan xon oldida oʻz martabasini va obroʻ-eʼtiborini saqlab qolibdi”[88].

Amir Temur zulmkorlarga, oddiy kishilarga asossiz jabru sitam oʻtkazadiganlarga nisbatan murosasiz boʻlgan. Agarda, - deydi u, - qaysi bir sipohiy haddidan oshib, oʻz qoʻli ostidagi kishiga zulm oʻtkazar ekan, uni tutib, mazlum qoʻliga topshirishni buyuradi. Toki dodiga oʻshalar yetsinlar. Agarda qadxudolar (qishloq, jamoa oqsoqoli) va kalontarlar (shahar hukmdorlaridan) kichikroq darajadagi odamga zulm qilgan boʻlsalar, qilgan zulmiga yarasha, har kimniig koʻtarishicha jarima solsinlar, deb buyruq bergan.

Agar hokimlar tomonidan xalqqa jabr-zulm qilinib, ularni xarob qilgan boʻlsalar, qilgan ishlariga yarasha jazo berishni talab qiladi. Amir Temur bu masalada yana shunday degan. Agar biror kimsaning gunohi isbotlangandan soʻng undan jarima olsalar, boshqa yana darra urmasinlar. Agar darra urish bilan jazolasalar, undan jarima olmasinlar. Demak, Amir Temur bir jinoyat uchun ikki xil jazo tayinlashga qarshi boʻlib, jinoyat va jazo miqdorlarining tengligini yoqlaydi[89].

Sohibqiron oʻgʻrilarga nisbatan qattiqqoʻl boʻlgan. Ularni “Yaso” – “Chingizxon qonunlariga” asosan jazolashni buyuradi. Boshqa jinoyatlarni esa shariat ahkomlariga koʻra jazolashni buyuradi. “...Kimki birovning molini zoʻrlik bilan tortib olgan

[88] Темур Тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 105-106.
[89] Ахмедов Б. Соҳибқирон Темур. – Т.: Абдулла Қодирий, 1996. – Б. 23.

bo‘lsa, mazlumning molini zolimdan qaytarib olib, egasiga topshirsinlar. Agar kimda-kim tish sindirsa, qo‘zni ko‘r qilsa, quloq va burun kessa, sharob ichsa, zino ishlar qilsa, devondagi shariat qozisi yoki axdos qozisiga (urf-odat, kundalik ishlarning bajarilishini nazorat qilib turuvchi) olib borib topshirsinlar. Shariatga oid ishlarni hal etishda islom qozisi hukm chiqarsin. Urf-odat ishlarini esa axdos qozisi taftish qilib, so‘ng mening arzimga yetkazsin”[90].

Shu sababli podshohlikka tegishli muammolarning o‘ndan to‘qqizi maslahatli turda, oqillik va odil yechilishi zarurligini, qolgan bir bo‘lagini kuch ishlatish bilan amalga oshirish mumkinligini nazarda tutgan.

Amir Temur bir vaqtlar o‘zi ham mas’ul davlat lavozimida bo‘lgan. Shuning uchun uning barcha siru-asrorlaridan voqif bo‘lgan. Bu haqida uning o‘zi shunday deydi: “Xalqqa yordamu madat berish maqsadida men ham Tug‘luq Temurxonning o‘g‘li Ilyosxo‘jaga sipohsolarlik qilishga rozi bo‘lgan edim. Tangri Taoloning bandalariga yordam qilganimdan bo‘lsa kerakki, Alloh Taolo menga saltanat martabasiga yetkazdi”[91]. Sohibqiron o‘zi shaxsan fiqh ilmi bo‘yicha zo‘r salohiyatga ega bo‘lib, “Temur tuzuklari”ni diqqat bilan o‘qigan har bir kishi, fiqh tamoyillari ul zot qoldirgan to‘ra-tuzuklarga qanchalik singib ketgani va musulmon huquqining qoidalari Amir Temur qurgan ulkan saltanatning huquqiy poydevorini tashkil etganidan tashqari, amaliy hayotda nechog‘lik muhim ahamiyatga ega ekaniga amin bo‘ladi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, “Temur tuzuklari” Amir Temur asos solgan markazlashgan davlat tuzilishini, uning

[90] Темур Тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 62.
[91] Темур Тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 40.

boshqaruvini, qo‘shinning tarkibi va harbiy strategiyasini, boshqa davlatlar bilan diplomatik munosabatlarini va boshqa ilmiy masalalarni o‘rganishda qimmatli manba vazifasini o‘taydi. Albatta, ushbu noyob manbani o‘sha davr yozma yodgorliklari G‘iyosiddin Ali Yazdiyning “Ro‘znomai Hindiston”, Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”, Muiniddin Natanziyning “Muntaxab ut-tavorixi muiniy”, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Saljuqiy hukmdorlarining mashhur vaziri Nizomil-mulkning “Siyosatnoma” asarlaridagi qimmatli ma’lumotlar bilan birga qo‘shib tahlil qilganda Amir Temurning davlatchilik sohasiga qo‘shgan hissasi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Butun bir davlatning markazlashgan tarzda boshqarilishida so‘zsiz Amir Temurning xizmati ulkanligini quyidagi xulosalarimizda ham alohida ta’kidlashni lozim topdik:

Birinchidan, “Temur tuzuklari” xalqimiz azaldan o‘z davlatchiligi tarixiga hamda qonunchilik an’analariga ega ekanligini isbotlovchi beqiyos manbadir.

Ikkinchidan, mamlakatni tuzuklarga (qonunlarga) asosan boshqarishni ta’minlashga xizmat qilgan Amir Temur davlatida amalda bo‘lgan Sharq mamlakatlarida shakllangan qadriyatlarning yangicha ifodasidir.

Uchinchidan, “Temur tuzuklari” o‘z davrining Konstitusiya (asosiy qonun) ahamiyatidagi hujjati bo‘lib, Amir Sohibqiron va so‘nggi Temuriylar davlatlarida ham muhim o‘rin egallagan. O‘zbekistonda Amir Temur va “Temur tuzuklari”ni o‘rganish hozirgi kunda juda muhimdir, chunki u davlatchiligimizning yorqin namunasi sifatida bizning hududimizdan ekani har birimizning qalbimizga g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi, - desak xato bo‘lmaydi.

II BOB. AMIR TEMUR DAVLATI XAVFSIZLIGI TA’MINLANISHINING PRINSIPLARI VA USULLARI

2.1. Mamlakat chegaralari xavfsizligining daxlsizligi

Amir Temur saltanati 27 mamlakatdan iborat juda katta hududni qamrab olgani, u yerlarni boshqarish va xavfsizligini ta’minlash masalasi doimo Sohibqironning diqqat markazida bo‘lgani manbalardan ma’lum. Viloyatlarni boshqarish masalasida “Temur tuzuklarida”: “Har bir yerning tabiati, har el va shaharning rasmu odatlari, mijozidin voqif bo‘lib turdim. Har bir o‘lka va shahar ulusining ulug‘lari va buzruglari bila oshna tutindim. Alarning mijozlariga, tabiatiga to‘g‘ri kelg‘on, o‘zlari tanlag‘on odamlarini alarg‘a hokim qilib tayinladim”. Yana amr qildimki, sarhad(chegaralar) va menga tobe’ mamlakatlarga oid (ishlarga mas’ullik) uch vazirdan iborat hay’ati (“solisa” - uchlik) tuzilgan. Ular mazkur zaminlar viloyatlardagi moliyaviy muammolarni va keladigan daromadlarni boshqarsinlar”[92].

Markaziy hukmdorning viloyat (mamlakatlar)ga munosabati haqida “Temur tuzuklari”da: “Har bir mamlakatning raiyati bilan bo‘lgan muomalada, ularga nisbatan xolislik bilan ish tutsinlar. Har bir mamlakat fath etilg‘och, turfa ko‘ngilsiz hodisalardin omma omonlikda bo‘lsin, aning hosil va daromadlarini hisobga olib ish tutsinlar”[93].

G‘iyosiddin Ali Yazdiyning yozishicha: “Hindistonga yurishi davomida Kashmir hukmdori shoh Iskandar Amir Temurni o‘zining homiysi deb tan olib, ma’lum darajada soliq to‘lashga rozi bo‘ladi. Lekin devon amaldorlari Kashmir podshohiga u bajara olmaydigan ya’ni o‘ttiz ming ot berishini

[92] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 146.
[93] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 138-141.

talab qilishgan. Amir Temur o‘z vazirlarining bu ishidan xabar topadi va Shoh Iskandar bunday imkoniyati yo‘qligini tekshirish maqsadida maxsus tekshiruv guruhini yuboradi va haqiqatda ham uning imkoniyati yo‘qligini biladi. Shunda Sohibqiron vazirlariga qarata: “Odamlarga qila olishi mumkin bo‘lgan vazifa topshirilsin. Bizga qo‘shilgan mamlakatlardan shunchalik mol talab qilinglarki, bu uning hududi va imkoniyatiga mos bo‘lsin. Aql insonning rahnamosi ekan, har bir shaxs faqat o‘z bo‘yi va jismiga mos kiyim kiya olishini biladi. Shuning uchun har bir insonning qudratiga qarab unga topshiriq berish kerak”[94].

Husayn Voiz Koshifiy “Axloqi muhsiniy” asarida: “Vazirlar tarbiyati haqida. Ular mamlakat saroyinasi va mol xazonasidirlar. Arag mamlakat egasining muhim ishlari vazirsiz bitsa edi, hazrat Muso (a.s.) Alloh taolodan: “Menga ahli baytimdan bir vazir tayin qilki, u birodarim Horun bo‘lsun va bu bilan ishimni byuaroridan keltir”, - deb so‘ramas edi. Demak, ma’lum bo‘ldiki, vazirlar saltanat binosini istehkomi va mamlakat ishlari intizomiga sabab bo‘ladilar. Ular yaxshi xulqli va pokiza fe’lli bo‘lishlari lozim. Ularning tarbiyatlari shundaki, sulton iltifoti sharafidan aziz va xoqoniy inoyatidan musharraf bo‘lsinlan. Toki kattayu kichik nazarida mukarram va muazzam ko‘rinsinlar, so‘zlari va hukmlari e’tiborli bo‘lsin. Mol-mulkning muhim ishlariga hech kishi ulardan bemaslahat aralashmasin. Chunki, qalam bilan bitirsa bo‘ladigan ishni shamshir bilan amalga oshirib bo‘lmaydi”[95].

Nizomiddin Shomiyning yozishicha: “Yo‘llarni qo‘riqlashda iloj-imkon boricha harakat qilsin va ularni muhofaza qilishni mamlakatni idora etmoq shartlaridan biri, deb bilsin. Savdogarlar

[94] Гийасиддин Али. Дневник похода Темура в Индию. – М.: 1958. – С. 165.
[95] Ҳусайн Воиз Кошифий. Ахлоқи мухсиний. – Т.: Ўзбекистон. – Б .244.

va yo‘lovchilarning dillariga ozor yetishiga va (ularning) xafa bo‘lishiga aslo yo‘l qo‘ymasin”[96].

Bu haqda Husayn Voiz Koshifiy: “Sultoni odil shunday bo‘lishi kerakki, siyosat haybati bilan musulmonlar yo‘llarini o‘g‘ri va xavfidan omon qilsin. Har kishi musulmonga yo‘lda ozor bersa, uni uqubat girdobiga tashlasin, toki o‘zgalar bundan ibrat oladilar”[97].

Mamlakat xavfsizligini ta’minlashda sarhadlar vazirligi muhim o‘rin tutgan bo‘lib, ular o‘rta asrlar sharoitida aksar hollarda chegaradagi viloyatlar doimo boshqa davlatlarning hujumiga birinchi bo‘lib bardosh berishi zarurligini nazarda tutib, ikkinchidan, chegara viloyatlarining hokimlari ma’lum darajada iqtisodiy mustahkam ьo‘lib olgach, ko‘pincha markaziy davlatdan ajralib chiqishga urinib, isyon qilib turishlari mumkinligini hisobga olib, Sohibqiron bu mas’ul vazifaga uch vazirdan iborat hay’at – solisa tuzgan. Chunki Amir Temur maqsadiga ko‘ra, bu uch vazir ishlarning to‘g‘ri bajarilishi uchun bir-birini nazorat qilib borganlar. Bu uchchala vazir chegara viloyatlaridagi moliyaviy muammolarni va daromadlarni boshqarishni ham, suiiste’molga yo‘l qo‘ymasligini ham nazorat qilib, agar shunday hodisalar yuz bersa, darhol saltanat rahbariga yetkazganlar[98].

Chegara viloyatlarning hokimligiga Amir Temur odatda o‘z o‘g‘il yoki nabiralarini yoki jangu jadallarda jasorat va bahodirlik namunalarini ko‘rsatgan Amirlarini tayin qilgan. Umarshayx Mirzo, Mironshoh Mirzo, Jahongir Mirzo, uning o‘g‘li Muhammad Sulton, Pirmuhammad ana shunday mohir

[96] Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б. 383.
[97] Ҳусайн Воиз Кошифий. Ахлоқи муҳсиний. – Т.: Ўзбекистон. – Б . 213.
[98] Ахмедова М.Т. Амир Темур давлатида хавфсизликни таъминлашнинг ҳуқуқий асослари. Юрид.фан.доктори....дисс. – Т.: ЖХУ, 2020. – Б.75.

sarkardalar edilar. Sohibqiron iste’dodli sarkarda, nabirasi Mirzo Umarga Fors, Karmon, Ajam Iroqi, Arab Iroqidan Hijozgacha, Rumdan Farangacha, Shom diyoridan Nil daryosigacha mulk qilib, mamlakat podshohligini berdi. Unga amir Jokuning o‘g‘li amir Jahongirni vazir qilib yubordi.

Amir Temur tomonidan “Chegaralarga hayot sinovlari bilan tanish, zamona hodisalari bilan egizak tug‘ilgan hushyor va sergak, mardonalikda tanilgan dalir va tajribali kishilarni qo‘ysin; (ul joylarni) fahm-farosat va shijoat bobida yetuk kishilardan hech qachon holi qoldirmasin. Chunki to‘satdan biror kor-hol bo‘lib qolsa yoki qandaydir zarurat tug‘ilsa, zudlikda g‘aflat oqibatlaridan himoyalangan bo‘ladi hamda nadomat sharmandaligi va malomat tamg‘asi unga bitilmaydi. Yo‘llarni qo‘riqlashda iloj-imkon boricha harakat qilsin va ularni muhofaza qilishni mamlakatni idora etmoq shartlaridan biri, deb bilsin”[99].

Saltanat tarkibiga kirgan Sarhad vazirlarining vakolat va vazifalari, huquqiy maqomlari va faoliyat tamoyillari “Temur tuzuklari”da alohida maxsus va mufassal bayon etilgan. “Yana har o‘lkaga uch vazir tayinladim.

Birinchisi, raiyat uchun bo‘lib, andin yig‘iladigan oliq-soliqlarning undirilmog‘ini kuzatib, hisobotini olib borsin. Oliq-soliq miqdori, soliq to‘lovchilarning nomlarini bitib borsin va ra’iyatdan yig‘ilg‘on mablag‘ni saqlasin.

Ikkinchisi, sipoh ishlarini boshqaradi. Sipohga berilgan va berilmog‘i lozim bo‘lgan mablag‘ hisobini olib yurguvchilar (sayohatchilar va savdogarlar), har xil yo‘l ila yig‘ilib qolg‘on hosil, aqldan ozganlarning mol-mulki, vorissiz qolgan mol-

[99] Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б. 383.

mulkni, qozilar va shahulislomlarning hukmi bila olingan jarimalarni tartibga keltirsin.

Yana amr etdimki, **uchinchi vazir** vafot etgan va daraksiz yo‘qolgan kishilar, kelib-ketib yuruvchilar (sayohatchi va savdogarlar), har xil yo‘l bilan yig‘ilib qolgan hosil, aqldan ozganlarning mol-mulki, vorissiz mol-mulkni, qozilar va shayxulislomlarning hukmi bilan olingan jarimalarni tartibga keltirsin. Yana amr etdimki, o‘lganlarning mollarini o‘z vorislariga yetkazsinlar. Agar vorisi yo‘q bo‘lsa, uni xayrli ishlarga sarf qilsinlar yoki Makkai muazzamaga yuborsinlar[100]”

Sohibqiron Amir Temurning moliya vazirlarining ustamonliklarini juda chuqur va aniq bilgan, ularga qilmishlariga yarasha iqtisodiy jazo belgilangan.

Sipoh vazirining vakolatlari. Harbiy vazirlik ixtiyorida tavochilarni, qo‘shin boshliqlarini tayinlash, bo‘shatish yoki almashtirish vakolati bor edi. Manbalarning guvohlik berishicha, Amir Temur davlatida ilk davrlarda ham, keyin ham hukumatni boshqarishda avval Chingizxon avlodlari qatnashgan qurultoy muhim qonun va farmonlarni chiqarish huquqiga ega bo‘lgan. Masalan, Amir Husayn halokatidan keyin chaqirilgan qurultoyda Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha, quyidagi masalalar ko‘rilgan.

Amir Temur saltanatining tashkiliy tuzilishida, yuqorida aytganimizdek, tobe’ mamlakatlarning podshohlariga avvalgidek, davlat ishlarini mustaqil hal qilish, viloyat va tumanlarga o‘zi istagan odamlarini hokimlikka tayinlash huquqlari qaytarib berildi. Endi bu mamlakatlar mo‘g‘ullar davridagi kabi mutlaq asoratda emas, balki nisbatan mustaqil-vassal, tobe’

[100] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 146.

mamlakatlarga aylantirildi. Bu mamlakatlarning podshohligiga ham Sohibqiron adolatli, bag‘rikengligi, insonparvarligi bilan tanilgan yaqin safdoshlari, farzandlari, nabiralarini tayinladi. Saltanat boshlig‘i va mustaqil va tobe’ mamlakatlarning podshohlari – vassallar o‘rtasida qonuniy va ma’rifatli munosabatlar yo‘lga qo‘yildi. Nazoratchi, harbiy rahbar – dorug‘alik umumiy idora va boshqaruvning tarkibidagi madaniy pog‘ona ko‘rinishini oldi.

Endi vassal podshohlar Sohibqiron Amir Temur huzuriga qimmatbaho sovg‘a-salomlar bilan kelib, lutf va kamtarinlik bilan o‘zini – faqir qulingiz, deb atasa ham, Sohibqiron ularning qaddini ko‘tarib, hurmatlab, farzandim, birodarim, deb atar, bu podshohlarga munosib izzat-hurmatlar ko‘rsatilsin, deb farmon berar, ketayotganlarida ba’zan keltirilgandan ham ziyod sovg‘a-salomlar jo‘natardi[101].

Ba’zi viloyatlar – mamlakatlarning voliylari, podshohlari o‘zlari kelmay, elchilarni sovg‘a-salomlar bilan yuborishi ham bu podshohlarga yetarli hokimiyat huquqi berilganligini anglatadi.

Ilgari Amir Temur davlatiga tobe’ – vassal bo‘lishni istamay, unga qarshi urush ochgan ba’zi podshohlar keyinchalik elchilar orqali tobe’ligini izhor qilib avvalgi isyonkorligi, muxolifati uchun avf so‘rab, maktub yo‘llagan edilar. Sohibqiron bu elchilarni yaxshi kutib olib, ularni kechirar edi. “Sohibqiron hazratlari afv qalamini alarning gunohlari daftariga tortdi va iltimoslarini qabul qilib, podshohona sovg‘alar, xusravona tuhfalar ila sarafroz etdi va (elchilarga) qaytmoqlariga ijozat berdi”. Amir Temur Gilon, Jurjon, Mozandaron, Ozarbayjon, Shirvon, Fors va Iroq mamlakatlarini zabt etish haqidagi

[101] Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б.226.

kengashida: “Bu mamlakatlarning podshohlari ittifoq bo‘lib, menga qarshi urushga ko‘tarilsalar-chi? Demak, jangga shay bo‘lish lozim!” – degan fikrga keldim. Biroq mening panohimga kelgan birinchi odam Mozandaron hokimi amir Ali bo‘ldi. U menga peshkash jo‘natib, maktubida: “Biz hazrati Ali avlodidan bo‘lgan bir jamoamiz. Shu yerda qanoat qilib kun kecharayotibmiz. Bu yerni olsangiz, quvvatu kuchingiz ortar, ammo kechib yuborishingiz taqvoga yaqinroq ishdir”, - degan gaplar bitilgan edi. Men Mozandaron hokimining itoat bildirib qilgan bu murojaatini yaxshilikka yo‘ydim”[102].

Shu o‘rinda Nizomiddin Shomiyning bergan ma’lumoti keltirib o‘tishni lozim topdik: “Muruvvatlilik qoidasi va davlat arboblarining urf-odatlarida biror davlatdan panoh istab kelgan odamni dushman qo‘liga topshirish ravo kshrilgaymu?! Bunday bo‘lish amri maholdur. Albatta agar bu xususda janjalu nizo ko‘tarilsa, zaruratan jangga tayyor bo‘lish kerak”[103].

Viloyat hokimining asosiy vazifalari. O‘ziga topshirilgan shahar va qal’alarni mustahkamlash, raiyatga adolat bilan muomala qilish, shahar, qal’a va ulusni dushmanlar hujumidan saqlash, soliqlarni fuqarodan vaqtida undirib, markaziy hukumat xazinasiga topshirish, urush vaqtida o‘z qo‘shinlari bilan davlat, saltanat hukmdori ko‘rsatgan joyga borish, jang vaqtida hukmdor (podshoh, xon, lashkarboshi) tayinlagan qo‘shinning ma’lum qismi o‘ng, chap qo‘l qalbida yoki qanotida jang qilish va hokazolardan iborat edi.

Viloyat hokimiga qo‘yilgan yuqoridagi talab, burch va majburiyatlar imom al-Movardiy sanab o‘tgan Bosh valiyga

[102] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 57.
[103] Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Т.: Зафарнома. – Б. 104.

qo‘yiladigan yetti va sakkizta asosiy talabga to‘la mos keladi[104]. Mana shu vaqtda markaziy boshqaruv idoralari bilan mahalliy boshqaruv vakillari o‘rtasidagi munosabat va muomalada Amir Temur juda nozik siyosat yuritganligini, islom shariati ahkomlaridan chekinmay payg‘ambar hadislariga, gunohkorlarni ko‘p marta kechirganligini, o‘zi “Tuzuklar”da aytganidek, ba’zi ishlarni bilib-bilmaslikka solmoq – javonmardlar odatidandir”, - degan naqlga amal qilganini ko‘ramiz.

Amir Temur o‘z ixtiyoridagi va yangi zabt etilgan juda ko‘p viloyatlarning hokimlariga shohona lutfu marhamat ko‘rsatadi, ular uch-to‘rt marta va’dalariga xilof ishlar qilsa ham, agar tavbaga tayanib, uzr so‘raganlarida, barcha gunohlaridan kechib, yangi viloyatlarga hokim qilib tayinlaydi.

Sohibqiron Amir Temur tomonidan Eron viloyatlarining ko‘pchiligi zabt etilgach, bu viloyatlarni janglarda qahramonlik ko‘rsatgan mirzo Umarshayx ixtiyoriga berish haqida farmon chiqarib, unda mahalliy hokimiyatning asosiy vazifalarini ko‘rsatib o‘tadi: “Mamlakat ishlarini boshqarmoq, dinu davlat qoidalarini mustahkamlamoq uchun Forsda turmoq va bu mamlakat o‘zga mamlakatlarga nisbatan bamisoli gardandband o‘rtasindagi bog‘lovchi durdona va barcha shaharlar debochasining ziynati bo‘lganligi bois, bu diyorning (yomonliklarni) ma’n etmoq va (muhim masalalarni) hal qilmoq ishlari jahon amirzodasi Umarshayxning o‘tkir rayi va uzoqni ko‘ra bilguvchi aqliga havola etilsin”.

Davlat sarhadlarini boshqarishda viloyatlar o‘rtasidagi munosabat juda ahamiyatli bo‘lgan. Sohibqiron viloyatlardagi ulusni doimiy urush-qirg‘inlardan, falokatlardan, jabr-zulmdan

[104] El-Maverdi. El-Ahkamo`s – Sultaniye. – S.78-79.

qutqarib, bir-birining qoni, nomusi va mol-mulkiga nisbatan tajovuzlarni bartaraf etishga, tinchlik, osoyishtalik o‘rnatishga, dehqonchilik, obodonchilik rivojiga katta e’tibor bergan.

Sohibqiron Amir Temur viloyat hokimlariga, jumladan, bir necha viloyat va malakatlarga rahbarlik qilib turgan farzandlari va nabiralariga ko‘pgina sohalarda mustaqillik bergan. Viloyat hokimlari va mamlakat podshohlari o‘ziga tobe joylardagi rahbarlarni, viloyat va shaharlarning voliylarini, qal’a shihnalarini, dorug‘alarini o‘zi tayinlash va mansabidan olish huquqiga ega bo‘lgan. Ammo juda muhim chegara viloyatlari yoki yirik poytaxt shaharlarning hokimlarini tayinlash, markaziy hokimiyat ruhsatisiz bir-birlariga qarshi urush-janjal qilganlar.

Odatda Sohibqiron yangi hokimlar, o‘zining noiblari viloyatni qanday boshqarayotganini tekshirish uchun ma’lum vaqtlarda vakillarini, obro‘li amirlarini viloyatlarga jo‘natgan, ba’zan esa o‘zi ham tashrif buyurgan. Viloyat hokimlari Sohibqiron kelishi sharafiga o‘z poytaxtlarini bezatib, yanada obod qilishga harakat qilganlar.

Amir Temurning ikkinchi o‘g‘li Mirzo Umarshayx (1356-1394) va uchinchi o‘g‘li Mirzo Mironshoh (1366-1408)ga va nabiralariga avval Chig‘atoy ulusiga kirgan viloyatlarni qaytadan zabt etish, Xulaguxon avlodlaridan qolgan yangi-yangi mamlakatlarni qo‘lga kiritish va boshqarish ishlarini topshirgan.

Amir Temur sinalgan safdoshlari, farzandlari va nabiralarini juda katta viloyatlarga va mamlakatlarga hukmdor qilib tayinlar ekan, ularni podshoh deb, atamaydi. Holbuki, bularning tobeligida ko‘pchilik podshohlar bo‘lgan, balki ularni o‘ziga, markaziy hokimiyatga so‘zsiz itoat etuvchi viloyat hokimi, noib, voliy deb hisoblaydi. Sohibqiron mahalliy hokimiyatni

boshqarishda ularga yetarli haq-huquqlar, vakolatlar ham beradi. Yuqorida aytganimizdek, Umarshayx Mirzo o‘z vakolatidan foydalanib, Fors mamlakatlarini zabt etish ishlarini boshqa bir sarkardaga topshiradi.

Umarshayx Mirzoning vafotidan so‘ng, Fors mamlakatining hukmdorligi uning o‘g‘li Pirmuhammad Mirzoga (1380-1410) topshiriladi. Amirzoda Sherozda hokimlik qila boshlagani uchun, Pirmuhammad Sheroziy deb ataydilar. Sohibqiron Pirmuhammad uning ukalaridan Rustam Mirzoni Isfahonga, Iskandar Mirzoni Hamadonga hokim qilib tayinlaydi. Pirmuhammad ibn Umarshayx yaxshi harbiy sarkarda bo‘lish bilan birga, manbalar guvohlik berishicha, uning tabiatida harbiylarga xos qattiqqo‘llik bo‘lsa-da, o‘zi mehribon, ra’iyatga, ukalariga mehr-shafqatli edi. Amir Temur vafotidan so‘ng, Pirmuhammad Shohrux Mirzo huzuriga borib, uning xizmatida bo‘lishga qaror qiladi[105].

Amir Temur farzandlari va nabiralariga katta viloyatlarni bahodirligi uchun suyurg‘ol tariqasidagi berar ekan, o‘zining sinalgan safdoshlaridan biri yo bir necha amirlarni ularga yordamchi, vazir yoki otabek qilib yuborgan.

Amir Temur yangi qo‘lga kiritilgan viloyat va shaharlarga hokim va dorug‘alar qilib, eng sadoqatli, ko‘p yillar birga bo‘lib, og‘ir sinovlardan o‘tgan, mashaqqatlarga bardosh bergan, mard, oliyjanob, bahodir, adolatli, imon-insofli safdoshlarini va farzandlarini qo‘ygan. Sohibqironning safdoshlari amir Joku, amir Sayfiddin, Shayx Nuriddin, Shoh Malik, Abbos Bahodir, farzandlari – Jahongir, Mironshoh, Umarshayx, Shohrux, nabiralari: - Pirmuhammad ibn Jahongir, Pirmuhammad ibn

[105] Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи Саъдайн ва Мажмаи баҳрайн. – Т.: Ўзбекистон, 2008. – Б. 61-62. Хидиров С.М. Амир Темур давлатининг ташкил топиши ва давлат тузуми. Юрид.фан.номзоди... Дисс. – Т.: 2002. – Б. 95.

Umarshayx, Xalil Sulton, Muhammad Sulton, Ulug‘bek, Boysung‘ur Mirzo, Ibrohim Sulton ana shunday jasur, sadoqatli, kamtarin, ra’iyatparvar sarkardalar va hokimlar edilar. Hokimlarning eng asosiy vazifasi o‘z hududida tinchlik-osoyishtalikni saqlash bo‘lgan.

Nizomiddin Shomiyning yozishicha: “Mufsidlar yolg‘on so‘zlashni boshlab, fitnayu fasodga asos soldilar. Hokim bo‘lib turgan amir Husayn bo‘lsa fe’li buzilib, xalqning moliga ta’ma qilmoqda va fasodchilarning gapiga quloq solmoqda. Agar tekshirmay turib nogoh hazabiga olsa, ish qo‘ldan ketadi. Kimda-kim oldindan hushyorlik shartlariga rioya qilmasa ehtiyotkorlik chorasiga beparvolik bilan qarab, yovuz niyatli dushmaniga e’timod qilsa, o‘z halokatiga o‘zi intilgan va o‘z davlatining zavoliga o‘zi harakat bo‘ladi. shunga binoan Amir Sohibqironning iqboli uni ushbu fikrga olib keldiki, u bu ish ustida chuqur o‘ylab, o‘z ishida g‘aflatu beparvolikka yo‘l qo‘ymadi, yovuz niyatli dushman undan ustun kelishidan ilgari chorayu tadbir maqomiga qadam qo‘ydi”[106].

Hajga yoki savdo ishi bilan borayotgan ziyoratchi, savdogarlar va boshqa yo‘lovchilarni qaroqchilar talashiga yo‘l ochib bergan, talonchilardan tozalamagan hokimlarni Amir Temur mansabidan tushirar va ularning o‘rniga mehnat ahlini, fuqarolarni himoyalashga kuchi yetadigan jasur, bahodir odamlarni tayinlar edi.

Bu haqda “Zafarnoma”da: “Amir Sohibqironning qulog‘iga Kichik Lur[107] hududida xojiga ketayotgan bir guruh musulmonlarga hujum qilingani yetganida, vaqti kelib fursat topilgach, ularning adabini berib, hojilar uchun qasos olishdek

[106] Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б. 52.
[107] Исфаҳон ва Хузистон ўртасида бўлиб, кенг тоғлик ерлардан иборат ҳудуд

muborak niyatni diliga tukkan edi. Mana endi Feruzko‘hga kelib tushgan bir vaqtida, uning huzurida bu atrofdagi mamlakatlar haqida so‘zlay turib, gap orasida Kichik Lur hamda u yerliklar tomonidan qilingan va qilinayotgan buzg‘unchiliklar yangitdan zikr etildi. Amir Sohibqiron sharafli xotiriga kechmishni keltirib dedi: “Ularning qilmishlari, musofirlar, ayniqsa, baytullohga borayotgan hojilarga nisbatan qilgan nomaqbulchiliklari haqida eshitganimga ham ancha vaqt bo‘ldi. Raiyat Tangri taoloning bizga topshirgan omonatidir. U bizdan tongla qiyomatda qiyomatda so‘raydi-ku! Qanday ravo bo‘ladiki, mamlakat o‘rtasida shunday buzuq bir jamoa bo‘lsa va biz ularni yo‘qotish va ildizidan qo‘porib tashlashga qodir bo‘la turib, bu bobda beparvolik qilsak! Shunday ekan, vaqti kelganda ularning buzuqligini daf qilish, viloyat va mamlakatni u badkirdorlardan tozalash bizning himmatimiz zimmasiga vojib va lozimdir”[108].

Husayn Voiz Koshifiy o‘zining “Axloqi muhsiniy” asarida shunday yozadi: “Adolatning ulug‘ shartlaridan biri shuki, zulm ko‘rgan odamlar adolat talab qilib kelsalar, ularning so‘zlariga shafqat qulog‘ini tutish, mushkullarini hal etish uchun ularga marhamat ko‘zi bilan qarash lozim. Adolat so‘rovchi so‘zni uzaytirsa, malol olmaslik lozim. Negaki, podshoh tabib, sitam ko‘rgan odam bemorga o‘xshaydi. Bemor tabibga o‘zining barcha holini bayon qiladi, tabib uning barcha so‘zini eshitib, illatning haqiqatiga yetmasa, unga munosib davoni qanday qilsin?”[109].

Sohibqiron ham mana shu adolat shartlariga to‘liq rioya etgan holda eng avvalo, raiyat ahvolini, jinoyat va jazo masalalarida ham adolat bilan ish yurtilishini qat’iy talab etgan.

[108] Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б. 133-134.
[109] Ҳусайн Воиз Кошифий. Ахлоқи муҳсиний. – Т.: Ўзбекистон. – Б . 47-48.

“Amir Temur bir guruh yo‘lto‘sarlarning jabru bedodligidan dod so‘rab kelgan Varkuni qabilasi aholisining murojaatiga ham jiddiy qaradi. Ularning arzini eshitgach, Amir Sohibqironning hamiyat o‘ti alangaladiki, ulardan qasos olish jazmi muborak peshonasi ajinida zohir bo‘ldi. Shu sababli G‘aznin yo‘lidan yuz o‘girib, Eryob tomoniga jo‘nadi. U joy qal’asining atrofiga yetgach, salobatligu ulug‘vorlik saropardasi tanobini tortdilar, askarlar guruh-guruh bo‘lib uning aylanasini o‘rab oldilar”[110].

Sohibqiron Amir Temur saltanati kengayib, kuch-qudrati oshgach, juda katta hududlarni, bir necha mamlakatlarni birlashtirib barchasiga bir ishonchli odamni rahbar qilib, boshqaruv ishini soddalashtirigan.

Huquqshunos S.Xidirov yozishicha, viloyat hokimlari uchun eng muhim xislatlar quyidagilardan iborat bo‘lgan:

Birinchidan, taqvodorlik. Taqvodor odam xudodan qo‘rqib, adolatsiz, yomon ishlarga qo‘l urmaydi. Davlat xizmatchilari (xodimlar) va lashkarlarga maosh, in’om, ulufa (askarlarga pul sovg‘a qilish), suyurg‘ol berishdan maqsad – xayrli ishlarga keng yo‘l ochishdir.

Ikkinchidan, davlat sarf-harajatlarini meyorini bilish. Sohibqiron viloyat hokimiga maslahatlarida mahalliy hokimning ziqna, hasis bo‘lishi ham, aksincha, isrofgarchilik qilishi ham yomon ekanligini, har ishda meyorni bilish, o‘rtacha yo‘l tutish yaxshi ekanligini tushuntiradi.

Uchinchidan, xalqqa, raiyatga zulm qilmaslik. Shunday (o‘rtacha) yo‘l tutilsinki, ishlarning ravishi to‘g‘rilik (imon-insof, adolat) qonundan chetga chiqmasin. Ana shundagina (viloyat amiri, hokimi, voliy, noib, vazir) zulm qilmoq va hasislikdan

[110] Ҳусайн Воиз Кошифий. Ахлоқи муҳсиний. – Т.: Ўзбекистон. – Б. 230.

uzoq bo‘ladi. (Viloyat rahbari) daromad va buromadni bir meyorda tutsin, shundagina yurtin boshqarmoqdagi jamiki zarur ishlar anga oson bo‘lg‘ay va zulm qilmoqqa hech bir zarurat qolmagay[111].

Sohibqiron Amir Temur saltanati shu darajada kuchayib va kengayib ketganki, ilgari bu hududlar goh Chingiziylar tarkibiga, goh mustaqil davlatlar bo‘lib turgan butun-butun mamlakatlarning ko‘pchiligi endilikda Temuriy shahzodalarga suyurg‘ol qilib berilgan yoki oliy farmon bilan mahalliy, viloyat hokimiyatlariga aylangan. Bu viloyatlar (sobiq mustaqil mamlakatlar) farmonda goh mamlakatlar majmuasi sifatida, goh bir shahzodaga berilgan alohida, tarixan yangi bir mamlakat sifatida tilga olinadi. Bu mamlakat ham tabiiy ravishda Sohibqiron Amir Temur saltanati tarkibiga kiradi.

Sohibqiron shu tarzda juda kuchli, qudratli, markazlashgan buyuk saltanatni bunyod qildi va uning hududlarida avvalgi vaqtlarda doimiy bo‘lib turgan o‘zaro qonli, qirg‘in urushlarga chek qo‘yib, bularning barchasini buyuk bir davlatga birlashtirdi.

Viloyat hokimiga qo‘yilgan yuqoridagi talab, burch va majburiyatlar imom al-Movardiy sanab o‘tgan Bosh valiyga qo‘yiladigan yetti va sakkizta asosiy talabga to‘la mos keladi[112].

Sohibqiron qurgan saltanati davlati tuzilishining ikkinchi asosiy belgisi tobe fuqarolar, raiyatning hududiy bo‘lak va qismlarga ajratilganligi edi. Ular quyidagilar edi:

Ulus hukmdori – mamlakat miqyosidagi katta viloyat hukmdori, Sohibqiron tomonidan tayinlangan. Hindiston va uning atrofidagi viloyatlar Jahongir Mirzoga, vafotidan so‘ng

[111] Хидиров С.М. Амир Темур давлатининг ташкил топиши ва давлат тузуми. Юрид.фан.номзоди... Дисс. – Т.: 2002. – Б. 97.
[112] El-Maverdi. El-Ahkamo`s – Sultaniye. – S.78-79.

(1376), o‘g‘li Pirmuhammadga berilgan. Ular o‘z devonlari, xazinasi va qo‘shiniga rahbarlik qilganlar.

Vazifalari – o‘z ulusini tasarruf qilish, ulus raiyatiga adolat bilan g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, tinchlik, osoyishtalikni saqlash, obodonchiliik ishlari bilan shug‘ullanish, urush vaqtida aytilgan miqdordagi qo‘shinlari bilan Amir Temur o‘rdasiga yetib kelib, yurishlarda qatnashishdan iborat edi. Ulus hukmdori o‘z ulusida davlatga yaxshi xizmat qilganlarni mukofotlash, qonunga xilof, jinoiy ishlarni taftish qilib, isyonkorlarni jazolash, ulusga kiruvchi viloyat, shahar, tuman, qishloq mansabdorlarini tayinlash va ishdan olish vakolatlariga ega edi.

Voliy – viloyat hukmdori, bu mansab saltanat uchun buyuk xizmatlar qilgan, nufuzli amirlarga yoki Sohibqironning vorislariga berilgan. Voliy o‘z viloyatidagi shahar hokimlarini tuman beklarini, qishloq oqsoqollarini ulus hukmdori bilan kelishgan holda mansabga tayinlash va ishdan olish, xizmatni yaxshi ado etganlarni rag‘batlantirish, qonunga xilof ishlarni, aybdorlarni jazolash vakolatlariga ega bo‘lgan.

Shahar hokimi – ulus poytaxti yoki viloyat markazi bo‘lgan shaharlarga hokimlar shaxsan Sohibqiron Amir Temur tomonidan yoki ulus hukmdorlarining tavsiyasi bilan qo‘yilgan. Muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lgan shaharlarga Sohibqiron vorislari – shahzodalar, nufuzli amirlar yoki ularning farzandlari qo‘yilgan.

Tuman amiri yoki tuman begi – viloyatlar (shaharlardan tashqari) tumanlarga bo‘lingan. Tuman amiri o‘sha joy fuqarosining tinchlik vaqtida dalalarda, korxonalarda, ustaxonalarda mehnat qilishiga sharoit yaratgan, urush vaqtida esa bir tuman (10-12 ming) qo‘shin yetkazib berishi shart edi.

Mingboshilar, qishloq oqsoqollari – bular tuman amiri, viloyat hokimi, ulus hukmdoriga bo‘ysungan va ularning farmonlari bajarilishini ta’minlar edilar[113].

Mazkur shakl saltanatning markaziy boshqaruv tashkilotlariga o‘xshab ketishning sababi – Sohibqiron saltanati eng rivojlangan davrida (1380-1405) avvallari mustaqil davlat bo‘lgan bir qancha mamlakatlar saltanat oliy dargohi uchun mahalliy viloyatlarga aylanib qolgan. Masalan, avvallari Xulaguxon ulusiga kirgan Fors, Sheroz, Isfaxon, Nishopur, Xuroson viloyatlari Amir Temur saltanatiga tobe mamlakatning hukmdori, podshohi – voliyga bo‘ysundirilgan.

1.Bu voliylarning o‘z devoni, vazirlari, arzbegisi, sadri, qozikaloni, muftiysi, shayxulislomi, tavochisi, muhtasibi, munshiylari bo‘lgan.

2.Voliy hisoblanuvchi hukmdor, uning devoni saltanat poytaxtidagi oliy devonga itoat qilgan.

3.Bu devonlarning boshqarilishi viloyat hisoblanuvchi mamlakatning hukmdor – voliy orqali amalga oshirilgan.

4.Voliylar ko‘p hollarda Sohibqironning eng ishonchli mohir sarkardalik va davlat tashkilotchiligi qobiliyatlariga ega bo‘lgan farzandlari yoki nabiralariga topshirilgan.

5.Sohibqiron yirik viloyatlarning voliylariga Vazir va Otabek qilib yuborgan shaxslarga juda katta vakolatlar bergan. Bu Vazirlar va Otabeklar Sohibqironning eng sodiq safdoshlaridan bo‘lib, ular adolatsiz, noto‘g‘ri ishlarga, jiddiy kamchiliklarga yo‘l qo‘yilsa, shahzodaga tanbeh berish va bu haqda Sohibqironga yetkazish huquqiga ega bo‘lganlar. (Misol uchun Mirzo Ulug‘bekning otabeklari – Shoh Malik va Shayx

[113] Ахмедова М.Т. Амир Темур давлатида хавфсизликни таъминлашнинг ҳуқуқий асослари. Юрид.фан.доктори....дисс. – Т.: ЖХУ, 2020. – Б.85.

Nuriddin Sohibqironga bir necha marta shahzodaning o‘zboshimcha ishlari haqida xabar berganlar).

6.Mamlakat voliylari o‘z qo‘l ostidagi viloyat va shaharlarning hokimlarini, tumanlarning beklarini mansabga tayinlash yoki mansabdan bo‘shatish, mukofotlash yoki jazolash vakolatiga ega edilar. Viloyat hokimlari o‘z qo‘l ostidagi shaharlarning hokimlarini, tumanlarning beklarini voliy-hukmdor bilan kelishgan holda ishga tayinlar yoki ishdan olar edilar. Tuman beklari o‘z navbatida qishloq oqsoqollari, mingboshilarning faoliyatini boshqarib turar edilar.

Xulosa qilib aytganda, saltanatga tobe mamlakat, viloyat va shaharlarning daromadlari, harajatlari, suyurg‘ol, tanho, tiyul va boshqalar ustidan markaziy rahbarlikni amalga oshirgan. Amir Temur saltanatida ba’zi hududlar, mamlakatlar (xususan, Iroq, Rum, Gurjiston) saltanat podshohiga vassal sifatida tobeligiga qaramay, ichki ishlarida muxtoriyat, homiylik maqomiga ega edi. Bu jihatdan Sohibqiron saltanati jahon tarixida noyob davlat ekanini hamda mutlaq markaz mustaqilligi uning asosiy o‘ziga xosligini ko‘rsatar edi.

2.2. Jamoat tartibi va xavfsizligi ta’minlashning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari

Amir Temur davlatida amalda faoliyat yuritgan huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifalari, vakolatlari va davlat xavfsizligini ta’minlashdagi o‘rnini o‘rganish davlatchilik tariximizni chuqurroq bilishimizda katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, sud tizimi sohasi Amir Temur davlatida majburlov apparati bo‘lib, u davlatning kuch-qudrati, qonun ustuvorligini saqlashda katta o‘rin tutgan.

Ma’lumotlarga ko‘ra, har bir shaharda hokimning saroyi – dorulimorat, sud idorasi – qozixona – adliya boshqarmasi – dorul adolat qurilgan va faoliyat olib borgan. Bu idoralar davlat xavfsizligini saqlashga va ta’minlashga mas’ul hisoblangan.

Podshoh davlat boshqaruviga mas’ul bo‘lsa, qozi, sadr, shayul islom, muhtasib aholi tomonidan shariat ahkom (hukmlari)ni bajarilishini nazorat qilgan. Podshoh yaso, to‘ra va tuzuk asosida ish ko‘rgan.

Bu haqda Husayn Voiz Koshifiyning “Axloqi muhsiniy” asarida: “Adolatning ulug‘ ishlaridan yana biri shuki, podshoh xalq haqida niyatini to‘g‘ri qilishi kerak, ularga yaxshilik qilishga moyil bo‘lishi lozim. Negaki, podshohning niyati va so‘zida har bir sohaga ta’siri kuchli bo‘ladi. Agar adolatni niyat qilsa, xaloyiq ichida barakat va xotirjamlik bo‘ladi. Alloh o‘zi asrasin, agar niyatida zulm qilish bo‘lsa, mamlakatdan baxt va baraka ketadi, xalqning xotirjamligi va tinchligiga putur yetadi”[114], - deyilgan.

Shuning uchun ham ichki xavfsizlikni ta’minlashda uch narsani pinhon tutish zarurligi haqida yozilgan: “Avval safarni, ya’ni yo‘l maqsadidan boshqa kishiga xabar bermaslik, chunki dushmanlar har joyda hozir va tayyordilar; ikkinchisi mazhabni, ya’ni o‘z dinidan boshqalarni ogoh qilish kerak emas, chaqimchi va hasadchilar juda ko‘p; uchinchi oltinni, ya’ni molni yashirin saqlash kerakki, chunki tama ahli behad va besanoqdirlar, shunday ekan har bir sirning pinhonligi yaxshiroqdir, chunki sir mahrami olamda har qanday narsadan kamroqdur”[115].

[114] Ҳусайн Воиз Кошифий. Ахлоқи муҳсиний. – Т.: Ўзбекистон. – Б . 53-54.
[115] Ҳусайн Воиз Кошифий. Ахлоқи муҳсиний. – Т.: Ўзбекистон. – Б . 179.

“Temur tuzuklari”da yoziladi: “Amr etdimki, o‘g‘ri va qaroqchilarni “Yaso” asosida jazolasinlar; fasodchi, buzuqi, nafsi yomon kishilarni mamlakatdan haydasinlar.

Har bir shahar va qishloqqa qutvol tayinlasinlarki, sipohu raiyatga soqchilik qilsin va kimning biron narsasi o‘g‘irlansa, buning mas’uliyati uning zimmasida bo‘lsin. Va yana buyurdimki, yo‘l ustida kuzatuvchilar, zobitlar tayinlasinlar, ular yo‘llarni qo‘riqlab, yo‘lovchilar, savdogarlar, musofirlarni kuzatib, mol-mulki va boshqa narsalarini manzildan-manzilga yetkazib qo‘ysinlar. Yo‘l ustida birontasining narsasi yo‘qolsa, o‘zi o‘ldirilsa, yoki boshqa kor-hol yuz bersa, bular uchun javobgarlik ularning zimmasida bo‘lsin”[116].

“Yomon kishilar ikki guruhdir, birini daf qilish shart, ya’ni ularni viloyatdan yo‘q qilish kerak va yana birini man qilish lozim, ya’ni ular bilan suhbatlashishni taqiqlash kerak. Ammo o‘g‘ri va qaroqchilarni daf qilish qudrat ahli zimmasiga qo‘yilgan shart bo‘lib, bundan musulmonlarga foyda bo‘ladi. fosiqlarga jazo berish kerak, hamisha ularni siyosat bilan ushlab turish, badkirdor va fasodkorlarni xor va zabun qilish, o‘g‘ri va qaroqchilar zararini viloyat hududi va yo‘ldagi guzarlar boshidan yo‘qotish, toki musofirlar omon bo‘lgaylar, savdogarlar turli tarafdan shaharga kelgaylar va borgaylar, toki mamlakatning har xil ro‘zg‘or buyumlari va matolar, turli taomlar ularning kelishidan paydo bo‘lib, xaloyiq bundan foyda ko‘radi”[117].

Asaslar esa tungi qorovullar hisoblanib, o‘z xodimlari bilan, ya’ni posbonlar bilan turli hududlarda tinchlikni saqlashdek mas’uliyatli vazifani olib borishgan.

[116] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 138.
[117] Ҳусайн Воиз Кошифий. Ахлоқи муҳсиний. – Т.: Ўзбекистон. – Б . 212.

Muhtasib deb atalgan lavozimga ega bo‘lgan amaldor shariat qonun-qoidasi asosida faoliyat olib borgan bo‘lib, ular bozorlardagi toshu tarozilarni to‘g‘ri ishlashini nazorat qilib borgan.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, yuqoridagilardan tashqari, “soqchi”, “qorovul”, “chokar”, “shihna”, “yasovul”, “ko‘kaldosh”, “posbonboshi”, “sarboz”, “mirshabboshi” va “mirshab”lar faoliyat yuritgan bo‘lib, qishloq va shaharlarda jamoat tartibi va osoyishtalikni, aholi xavfsizligini ta’minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish, aybdorlarni jazolash kabi vazifalarini bajargan.

Amir Temur davrida ichki ishlar idoralari mansabdorlari **yasog‘liq** davlat va jamiyat tinchligini saqlashga mas’ul etib tayinlangan bo‘lib, sodir etilgan jinoyatlarni ochishda muhim rol o‘ynaganlar. Shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi amaldorlardan biri **shihnalar** harbiy ma’murlar hisoblanib, shahar va qishloqda tinchlikni saqlashga hissa qo‘shishgan.

Yurtboshimiz tashabbusi bilan 2017 yilda tashkil topgan O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi vazifasi etib, jamoat tartibi va xavfsizligini saqlash masalasi bilan yaqindan shug‘ullanish topshirilgani, bundan buyon mamlakatimizda jamoat tartibi va xavfsizligini saqlash masalasiga Ichki ishlar bilan birga Milliy gvardiya mas’ul ekani belgilangani[118], fikrimiz isbotidir.

Jamoat tartibini va xavfsizligini ta’minlashda, shu jumladan ommaviy tadbirlar, mitinglar, yig‘ilishlar, namoyishlar o‘tkazilayotganda hamda fuqarolar gavjum bo‘ladigan joylarda jamoat tartibini va xavfsizligini ta’minlashda, shuningdek tabiiy

[118] Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. Т.2. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 157.

va texnogen xususiyatga ega favqulodda hodisalarni bartaraf etishda ishtirok etish, qo‘riqlanadigan shaxslarning xavfsizligini ta’minlashda ishtirok etish va huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo‘yish maqsadida aholi punktlaridagi jamoat joylarida patrullik qilishda ishtirok etish Milliy gvardiyaning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Mahalliy hokimlar o‘zining hududida sodir etilgan jinoyatlar uchun mas’ul bo‘lib, buning natijasida aholiga yoki savdo karvonlariga yetkazilgan zararni o‘z hisobidan qoplashi lozim bo‘lgan.

Bugungi kunda hududiy huquqni muhofaza qilish organlari zimmasiga davlatimiz rahbari tomonidan aynan shunday talab qo‘yilmoqda. YA’ni, o‘ziga biriktirilgan hududda jinoyat sodir etilishiga yo‘l qo‘ymagan, uning oldini olgan rahbar va xodimlar oylik maoshining bir necha baravari miqdorida rag‘batlantiriladi, aksincha bo‘lsa, oylik maoshining ma’lum qismi jarima ko‘rinishida ushlab qolinadi. Bundan maqsad ularning mas’uliyatini yanada oshirishdir”[119].

Bu haqda Husayn Voiz Koshifiyning “Axloqi muhsiniy” asarida: “Huquqni rioya qilish hamma mo‘minlar zimmasiga, xususan qudrat va shavkat ahli javobgarligiga lozimdir. Chunki bu xususiyat zot va sifat pokligi, nasab va hasab balandligiga ravshan dalil va sodiq guvohdir”[120].

Amir Temur “Tuzuklari”da bu haqda alohida to‘htalib o‘tgan: “...g‘arazgo‘y, nafsi buzuq kimsalarning tuhmati bilan katta va kichik shaharlar aholisidan hech kimni jazolamasinlar. Faqat gunohi to‘rt kishining guvohlik berishi bilan isbotlansa,

[119] Миразов Д.М. Амир Темур давлатида жамоат хавфсизлигини таъминлаш масалалари // “Ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда “Темур тузуклари”нинг ўрни ва аҳамияти” мавзусидаги илмий-амалий конференция тўплами. –Тошкент. Ҳарбий-техник институти нашриёти, 2019. – Б. 15-17.
[120] Ҳусайн Воиз Кошифий. Ахлоқи муҳсиний. – Т.: Ўзбекистон. – Б . 187.

gunohiga yarasha jazolasinlar. Amr etdimki, hech bir shahar va qishloqda odamlardan jon solig‘i, uy solig‘i olmasinlar. Sipohiylardan biron kishi raiyatning xonadoniga zo‘rlik bilan kelib tushmasin, raiyatning ot-ulovini tortib olmasin”[121].

SH.O‘ljayevaning ta’kidlashicha, Amir Temur mansabparast va molparast amaldorlarning o‘z maqsadlariga yetishish uchun har qanday yo‘lga kirishi, buning oqibatida korrupsiyaga yo‘l qo‘yilishi mumkinligini yaxshi tushungan va shunga yarasha chora-tadbirlarni qo‘llagan[122].

“Bu davrda ham jinoyat va jazo ishlari shariat qonunlari asosida hal etilgan bo‘lib, aholining tinchligi va osoyishtaligi uchun mirshabboshilar mas’ul hisoblangan. Mirshablar shaharlar va qishloqlarda kechayu-kunduz soqchilik qilishgan, jamoat joylari, bozorlar va ko‘chalarda tartib-osoyishtalikni ta’minlagan. Shuningdek, qozilar tomonidan jinoyat uchun tayinlangan jazoni ijro etish ham ularning zimmasiga yuklangan”[123].

Yuqoridagilardan ko‘rish mumkinki, Amir Temur saltanatida jinoyatchilikka qarshi kurashishda huquqiy asos – qonunlar to‘plami yaso, to‘ra, tuzuk, Qur’oni karim, hadis, fiqh kitoblari mavjud bo‘lib, shuningdek, mahalliy hokimlar hududdagi tartib-osoyishtalikka ham mas’ul bo‘lgan.

Amir Temur unga in’om etilgan mamlakatlarda adolat va qonunga so‘zsiz amal qilishi shartligi alohida ta’kidlangan, “Toki mazkur mamlakatning podshohlari, hokimlari, voliylari, amirlari, ayon, ashrof va taniqli kishilari nomi yuqorida eslatilgan eng aziz farzandni ul joylar saltanat taxti va viloyatlarning egasi, nufuzli

---

[121] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 138.

[122] Ўлжаева Ш. Амир Темур давлат бошқаруви. Монография. – Т.: Академнашр, 2018. – Б. 25.

[123] Миразов Д.М. Амир Темур давлатида жамоат хавфсизлигини таъминлаш масалалари // “Ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда “Темур тузуклари”нинг ўрни ва аҳамияти” мавзусидаги илмий-амалий конференция тўплами. –Тошкент. Ҳарбий-техник институти нашриёти, 2019. – Б. 15-17.

hokimi hamda arzigulik hukmdor deb bilib, muhim ishlarda va yurtning barcha zaruratlarida to‘la-to‘kis unga va uning noiblariga murojaat qilsinlar; uning mamlakat obodonchiligining asl nizomi va ular osoyishtaligining mazmun-mohiyatidan iborat bo‘lmish farmon va buyrug‘idan bosh tortmoqni lozim topmasinlar”[124].

“Farzand ushbu ulug‘ ishni shu yo‘sinda olib borsinki, toki u adolat, haqiqat, hukmdorlik zaruriyatlari va raiyatparvarlik uchun kafolat bo‘lolsin hamda uning qoidalariga shunday bir tarzda amal qilsinki, toki u olamning obodligi va insonning tinch-totuvligi bilan yakun topsin; solih kishilar ahli taqvo va irshod as’hobi sidq va xalqparvarlarni qo‘llab-quvvatlash va e’zozlashda, masjid va madrasalarni ta’mirlashda va xayrli dargohlarni ko‘paytirishda, tirishqoqlik namoyish etib, jinoyatchilar va qaroqchilarni hamda shariatga xilof ishlarning ko‘payishini va nodonlik qonun-qoidalarini tag-tugi bilan yo‘qotishni zarur va lozim deb bilsin. Shundagina mamlakat ishlari bir tekis boradi, saltanat mavqei va to‘g‘ri yo‘l-yo‘riq barqaror bo‘ladi”[125].

“Bundan murod shuki, har kim nimaki bilsa, bexavotir bizning arz izzatgohimizga yetkazsin, har narsaki, mamlakat islohi unga aloqador va mazlumlar boshidan zararni daf etish unga bog‘liq bo‘lsa, u haqda bizga yetkazishga beparvolik qilmasin, e’timod va to‘la ishonch bilan ochiq ko‘satsin”[126].

Sharafiddin Ali Yazdiy shunday ma’lumot keltirgan: “Sohibqirondin avval holdakim, olamdagi viloyatlarning har birida bir podshoh bor erdi va alarning muxolifat va

[124] Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б.385.
[125] Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б. 370.
[126] Ўша асар. – Б. 371.

munozi’atlari jihatidin musulmonlar ichida ko‘p tashvish bor erdi. Va hech yerda amin va amonlik qolmaydur erdi. Va yo‘llar o‘g‘ri va qaroqchi jihatidin bog‘lanib erdi. Va hech musulmon hech sori borolmas erdi. Viloyatlarni zolimlarning eliklaridin qutqarib, adlu ehson bila orasta qildi. Va aning adlidin andoq bo‘ldikim, agar birov bir tabaq oltin yo kumush boshig‘a qo‘yub yolg‘uz sahroda Boxtardin Xovargacha borg‘ay, hech kishi anga tik boqa olmas erdi. Ammo ul holda ko‘b yerlarni talab asiru toroj qildi zururat jihatidinkim, agar andoq qilmasa erdi, olam nizom topmas erdi”[127].

Akademik I.Mo‘minov bu haqda shunday ta’kidlab o‘tgan: “Sohibqiron yozishmalaridan anglanishicha, saltanatda vaqti-vaqti bilan so‘roq va taftishlar o‘tkazib turilgan. O‘z amalini suiiste’mol qilish, poraxo‘rlik, ichkilikbozlik, maishiy buzuqlik og‘ir gunoh hisoblanib, bunga yo‘l qo‘ygan kishilar qattiq jazolangan”[128].

Toshu tarozilar, ma’naviy gunohlar uchun ijro etuvchi kishilar ihtisob ahli deb yuritilib, ularga muhtasib boshchilik qilgan. Muhtasib beradigan jazo chorasi sifatida darra urilgan. Darra urilayotgan paytda aybdor kechirim so‘rashi, qilgan gunohi uchun tavba qilishi jazo chorasini yengillashtirishga xizmat qilgan. Tavba va minnatdorchilik muhim shartlardan bo‘lib, ado qilinmagan taqdirda jazoni davom ettirish mumkin bo‘lgan[129].

Bu haqda Husayn Voiz Koshifiy o‘zining “Axloqi muhsiniy” asarida: “Gunohkor gunohini tilaguvchilar huquqiga rioya qilish kerak. Chunki, gunohkorga shafoat qiluvchilar, albatta, sharafli kishilardan bo‘ladi. Shafoatni uzrxohlik tili bilan

[127] Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. – Т.: Шарқ, 1997. – Б .292.
[128] Мўминов И.М. Асарлар. Уч жилдлик. – Т.: Фан, 1969. 1 жилд. – Б.434-435.
[129] Ҳусайн Байқаро. Рисола / Нашрга тайёрловчилар Алибек Рустам ва Каримбек Ҳасан. – Т.: Шарқ, 1991. – Б. 35.

tilash kerak. Shunday ekan, bunday kishilarning so‘zlarini hurmat qilish va aybdorlar gunohini afv qilishda bularning shafoatlarini qabul qulog‘iga olish saodat ahli odatidandir”[130].

Sharafiddin Ali Yazdiy asarida ham bunday ma’lumotlar ko‘plab keltirilgan. Jumladan, u shunday yozadi: “Sohibqiron komkor shahzoda Shohruh mirzoni Samarqandda yibardikim, anda borib zabtig‘a mashg‘ul bo‘lg‘ay va dod adli bila mashg‘ul bo‘lib, ra’oyo, fuqaro va masokin avlodlaridin g‘ofil bo‘lmag‘ay deb shahzodagi ko‘p pand so‘zlar va nasihatlar qildi. Va avval nasihat so‘zi bu erdim, “Anda borsang, o‘zingdan g‘ofil bo‘lmag‘il va ra’iyat ahvolidin xabardor bo‘lg‘il. Ikkinchi ulkim, toat va ibodatda komilik qilg‘aysen. Har viloyatdakim, devon va zobit va dorug‘a qo‘ysang, mo‘min va musulmon kishini qo‘yg‘il va andek kishini qo‘ymag‘ilkim, musulmonlarga zulm qilg‘ay”[131].

Amir Temur: “Adolat va insof bilan Tangrining yaratgan bandalarini o‘zimdan rozi etdim. Gunohkorga ham, begunohga ham rahm-shafqat bilan, hoqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim. Fuqaro va qo‘l ostimdagilarga rahmdillik qildim, sipohiylarga in’omlar ulashdim. Zolimga qarshi mazlum dodiga yetdim. Vazirlardan qaysi biri agar saltanat ishlarida xiyonat etsalar va saltanatni ag‘darishga jazm qilgan bo‘lsalar ham ularni o‘ldirishda shoshilmasinlar. Avvalambor ularni ayblovchi va xabar yetkazuvchilarning kimligini tekshirib ko‘rsinlar. Qoralovchilar da’volarining rost-yolg‘onligini sinchkovlik bilan sinab ko‘rsinlar. Chunki ko‘p hollarda hasadchilar bilan g‘iybatchilar yo ko‘rolmay yoki ta’magirlik bilan yolg‘on to‘qib, uni chinday qilib ko‘rsatadilar va (chirkin) maqsadlariga

[130] Ҳусайн Воиз Кошифий. Ахлоқи муҳсиний. – Т.: Ўзбекистон. – Б .200.
[131] Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. – Т.: Шарқ, 1997. – Б. 172.

yetishadilar. Talaygina pastkash, razil odamlar borki, davlat dushmanlarini yaxshilab, uning jonfidoiylarini hiylagarlik va makkorlik bilan harob qiladilar, makru sotqinlik bilan saltanat qo‘rg‘oniga putur yetkazmoq payida bo‘ladilar”[132].

Fransuz olimi Lyusyen Keren ma’lumotlariga ko‘ra, “Sohibqiron Amir Temur yurishdan qaytganidan so‘ng ertasi kundan boshlab saltanat yumushlariga sho‘ng‘ib ketdi: uning qahri qattiqligini bilgan amaldorlar va sipohiylar qaltirab turishardi. O‘zi uzoq vaqt bu yerda bo‘lib o‘tgan voqealar bayonini diqqat bilan tinglagach narx-navoning haddan tashqari oshib ketishiga yo‘l qo‘ygan savdogarlar va aybdorlarni dorga ostirdi. Beva-bechoralarga kiyim-kechak va oziq-ovqat ulashildi, fuqarolar esa uch yil davomida barcha soliqlardan ozod qilindilar”[133].

L.Keren uning jinoyatlarga jazo berishi haqidagi ma’lumotlarni Rui Gonsales de Klavixo asariga tayanib Konigilda ro‘y bergan voqeani shunday sharhlaydi: “Jarchilar Amir Temur adolat o‘rnatishini ma’lum qilganlarida olomonning quvonchiga quvonch qo‘shildi. Nihoyat, kulgilar to‘xtadi. Chodirlar orlig‘idagi bo‘shliqlarga jallodlar bir necha dor tikkan edilar. Amir Temur o‘qigan hukmlar vazifasini sovuqqonlik bilan ado etgani uchun shu zahotiyoq dorga osildi. Davlat mablag‘ini va otlarini talon-taroj qilgan qator yuksak martabali amaldorlarning ham qismati shunday bo‘ldi; o‘g‘irlangan mablag‘lar qayerga yashirilganini aytmaganliklari uchun ularning ayrimlari oldin qiynovlarga olinib, keyin osildilar. Shundan so‘ng do‘konlarda mollarining narhlarini haddan tashqari ko‘tarib yuborgan savdogarlar va tijoratchilarga navbat keldi,

[132] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 104.
[133] Керен Л. Амир Темур салтанати. – Т.: Ўзбекистон, 2918. – Б. 80.

ba’zilarining boshlari tanasidan judo etildi, ba’zilarining mol-mulklari musodara etildi”[134].

Demak, bu kabi qat’iy qoidalar, jazo tizimi davlat apparati va jamiyat o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlagan.

O‘sha paytda sodir etilgan jinoyatlar va ularga berilgan jazo usullarini obdon o‘rgangan olim H. Vamberi bu haqda shunday xulosaga kelgan: “Temurni Chingiz ila bir safga qo‘yub, uni vahshiy, zolim, qaroqchi deb atagan kishilarning fikrlari ikki marotaba xatodir. U, avvalo, Osiyo sarkardasi edi. O‘zining g‘olib askarlari va qurollaridan o‘z zamonasining taomilicha foydalangan. Uning faoliyati, xususan, dushmanlari tomonidan gunoh hisoblangan ishlari va urushlari, teranroq qaralsa, jinoyatga jazo tarzida qo‘llanilgan. To‘g‘ri, jazo qattiq, lekin adolatli bo‘lgan”[135].

Xavfsizlikni saqlashga nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar yoki davlat lavozimidagilar, balki hamma fuqarolar mas’ul bo‘lgan. Hatto rasmiy yoxud boshqa marosimlar saroy, o‘rda va boshqa yerlarda barchaning sergak, ogoh yurishini talab etgan[136].

Xavfsizlikni ta’minlash maqsadida sipohiylar, amirlar, mingboshi, yuzboshi va o‘nboshilar devonxonaga, bazmu majlislarga kuloh, etik, kovush, bo‘rk yoqalik chakmon, hanjar va qilich kabilar bilan qatnashishi lozim bo‘lgan[137].

Mintaqada urushni oldini olish va uning xavfini bartaraf etish maqsadida Amir Temur, eng avvalo, saroy va devonni qo‘riqlash masalasini muhim deb bilgan. Urush paytida o‘n ikki

[134] Керен Л. Амир Темур салтанати. – Т.: Ўзбекистон, 2918. – Б. 151-152.
[135] Вамбери Ҳ. Бухоро ёҳуд Мовароуннаҳр тарихи. – Т.: Ғофур Ғулом, 1990. – Б. 18
[136] Ўлжаева Ш. Амир Темур давлатида бошқарув. Ташқи сиёсат. Дипломатия. – Т.: Академнашр, 2017. – Б. 131.
[137] Темур тузуклари.. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б.121.

amirdan har biri, mingboshilar, yuzboshilar, o‘nboshilar o‘n ikki ming qurollangan otliq sipohiy bilan bir kecha-kunduzda o‘z hukmdorini qo‘riqlash uchun hozir bo‘lganlar. Bu o‘n ikki ming otliq lashkar to‘rt qismga bo‘lingan va bir qismi barong‘orga (o‘ng qanot), bir qismi javong‘orga (so‘l qanot), bir qismi o‘rduning oldiga, to‘rtinchisi o‘rduning orqasiga joylashtirilgan. Ushbu to‘rt qism navbatma-navbat o‘rdudan yarim farsang uzoqlashib soqchilik qilgan. To‘rt sipohiy favj o‘zlari uchun hirovul belgilangan. Hirovuldan qorovullar tayinlangan. Ular ehtiyotkorlik va hushyorlik bilan o‘rduga xabar yetkazib turishgan[138]. Sohibqiron lashkarlar va o‘rduga alohida **qutvol** tayinlagan. O‘rduning qo‘riqlash, soqchilik ishlari uning zimmasiga yuklangan. Bundan tashqari, qutvollar harbiy yurishlar vaqtida o‘rdu atrofida savdo-sotiq ishlari bilan mashhul bo‘lgan kishilardan soliq olish ishlari bilan ham shug‘ullanishgan. Agar o‘rdu ahlidan birontasining narsasi o‘g‘irlansa, ular javobgarlikka tortilgan[139].

Amir Temur qo‘shin va o‘rduning himoyasini yanada kuchaytirish maqsadida qo‘shin orqasidan to‘rt favj (qism) chopqunchilar tayyorlashni buyurgan. Ular to‘rt farsang masofada lashkar yonida yurib, ularni qo‘riqlab borgan. Bordiyu chopqunchi lashkardan biron kishi o‘ldirilganini yoki yaralanganini ko‘rsa, uning ishini o‘z zimmasiga olgan. Xavfsizlik xizmati uchun belgilangan to‘rt favj chopqunchi lashkarning uchdan bir qismi chegaralarni qo‘riqlash ishiga tayinlangan. Qo‘shinning uchdan ikki qismi esa doimo saltanat ishiga shay turgan.

---

[138] Ўша асар. – Б. 122.
[139] Темур тузуклари.. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 122.

Amir Temur saltanatida ichki xavfsizlik va jinoyatchilikka qarshi kurashish masalasi davlat e’tiborida bo‘lgan. Bu davrda tinchlik va osoyishtalik uchun mirshablar, ya’ni harbiy amaldor mas’ul hisoblangan.

Sohibqiron Amir Temur ham o‘z davrining an’analariga binoan davlatni boshqargan. Saltanatda jamoat xavfsizligining ta’minlanishida avvalo, qonuniylik va adolat tamoyili muhim ahamiyat kasb etgan. Biz yuqoridagilarga asoslanib, Amir Temur davlati taraqqiyotiga adolat va qonun ustuvorligi katta turtki bergan, - deyish mumkin.

2.4. Davlatning ichki va tashqi siyosatida axborot xavfsizligi

Amir Temur davlat xavfsizligini ta’minlashda ichki va tashqi siyosatning o‘rni juda muhim hisoblangan. Binobarin, Sohibqiron saltanatining boshqa mamlakatlar bilan o‘rnatgan diplomatik aloqalari, qo‘shnichilik va savdo-sotiq sohasidagi o‘zaro munosabatlari davlat xavfsizligini ta’minlashda nihoyatda ahamiyatli bo‘lgan.

Ajdodlarimiz azaldan xalqaro munosabatlar va diplomatiya qonun-qoidalariga amal qilib, bu sohani rivojlantirib kelganlar. Mehmondo‘st xalqimiz qadimdan o‘zga xalqlarni hurmat qilish, ular bilan do‘stona munosabatlar o‘rnatishga intilib kelgan. Amir Temur diplomatiyasida tinchlik, o‘zaro hurmat, raqibiga shafqat qilish va unga katta imkon yaratish, har qanday og‘ir sharoitda ham elchini qadrlash, diplomatiya qoidalariga qat’iy amal qilish, inson hayotining dahlsizligi, gumanizm g‘oyalari ustuvor bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Yurtboshimiz SH.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Amir Temur bobomiz va temuriylar saltanatini oladigan bo‘lsak, ushbu

sulola hukmronlik qilgan yillarda o‘lkamizda diplomatik munosabatlar naqadar yuksak darajagi ko‘tarilganiga guvoh bo‘lamiz. Ayni vaqtda Amir Temur va Temuriylar saltanati nomidan Yevropa va Osiyo mamlakatlariga vakil bo‘lib borgan, asli shahrisabzlik Muhammad Keshiy, shuningdek, Mavlono Hofiz, G‘iyosiddin Naqqosh, Abdurazzoq Samarqandiy kabi elchilarning nomlari tarix sahifalarida saqlanib qolgan”[140].

Albatta, boshqa davlatlar bilan teng huquqli tashqi siyosat olib borishda va diplomatik munosabatlarni rivojlantirishda mamlakat elchisining roli nihoyatda kattadir. Elchi o‘zining huquq va majburiyatli to‘liq bilishi, vazifalarini sidqidildan bajarishi har doim talba etiladi. Bu borada: “Elchining xalq, Vatan oldidagi burchi va vazifasi, uning kasb malakasi, ma’naviy dunyosi haqida gapirganda, avvalo, bugungi o‘zbek diplomati, elchisi qanday xususiyat va fazilatlarga ega bo‘lishi kerak, degan savol tug‘iladi. “Elchi” so‘zi elning, xalqning vakili, mamlakatlarni bir-biriga bog‘laydigan inson, degan ma’noni anglatishi o‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdi”[141].

Sohibqiron Amir Temur diplomatiyasi dunyo hamjamiyati bilan uyg‘unlikda rivojlangan va o‘zida o‘sha zamon xususiyatlarini yaqqol aks ettirgan. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, o‘sha vaqtda Markaziy Osiyo jahon diplomatiyasining markaziga aylandi[142].

“Amir Temur Hirot mamlakatini zabt etishda, - deb yozadi Nizomiddin Shomiy, - Malik G‘iyosiddin (Hirot maliki – M.A.) o‘zining katta katta o‘g‘lini jasurligi va botirligi bilan

[140] Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 282.
[141] Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 281.
[142] Ўзбек дипломатияси тарихидан: Тарихий очерклар ва лавҳалар / Академик М. Хайруллаев умумий таҳрири остида. – Т.: 2003. – Б. 376.

zamonasining yagonasi bo‘lgan Iskandar Shayxiyga qo‘shib, Amir Sohibqiron uni e’zozlab, navozish va tarbiyatiga sazovor etdi. Xil’at va kamar berib qaytararkan, ushbuni aytib qo‘yishini buyurdi: “Malikka bizdan salom yetkazib aytgilki, o‘rtamizda qadimdan adovat bo‘lmagan, aksincha do‘stlik munosabatlari barqaror bo‘lib, qarindoshlik bilan mustahkamlangan edi. Bo‘lib o‘tgan voqea mulk ishlari va falak hodisalari taqozosiga binoan yuz berdi, endilikda tortinmasdan zudlikda biz tomonga kelsin, toki o‘sha (do‘stligimiz) qoidalari saqlanib qolgay, balki undan ham kuchayib ketgay”[143].

O‘sha davr Yevropa hukmdorlari orasida Kastiliya va Leon Qiroli Don Enrike III Sharqqa alohida qiziqish bilan yondashgan. U 1402 yili Kichik Osiyoga o‘z elchilarini yuborar ekan, ularga “bu olis yurtlar xalqlarining urf-odatlari, xulq-atvori, dinu e’tiqodi, kuch-qudrati va maqsad-muddaolariyu yetkazadigan manfaatlari to‘g‘risida” ma’lumotlarni yig‘ib kelishni buyurgan[144].

Amir Temur diplomatiyasi haqida gap ketganda, Rui Gonsales de Klavixo esdaliklarini alohida ta’kidlash kerak. Klavixo Kastiliya va Leon Qiroli Don Enrike III tomonidan Amir Temur saroyiga yuborilgan ispan elchisidir. 1403-1406 yillarda saroyda yashab, ko‘rgan-kechirganlarini xotira kitobiga yozib qoldirgan.

Konstantinopol imperatori Yevropaga yordam so‘rab jo‘nab ketgan davrda, ya’ni 1402 yil yozida Amir Temur Imperatorning noibi huzuriga ruhoniy Fransuani diplomatik xat bilan yuborgan. Ayni vaqtda uning Venetsiya arxivlarida saqlanadigan ushbu maktubda Sohibqiron Fransuani qabul qilganini, monax unga

[143] Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б. 115.
[144] Саидов А., Керен Л. Амир Темур ва Франция. – Т.: Адолат, 2016. – Б. 179.

yoqqanini va u Trapezund imperatoridan o‘zaro ittifoq uchun yigirmata yaxshi qurollangan galerlarni, ya’ni harbiy kemalarni talab qilganini yozgan, shuningdek, Boyazid huzuriga ruhoniy Fransua hamkorligida elchilar jo‘natganini ma’lum qilgan[145].

O‘sha davrda Qora dengizning janubi-sharqiy sohilidagi mustaqil Tarabzun yunon xristian qirolligi muhim dengiz porti, Sharq bilan G‘arb savdo yo‘lidagi yirik vositachi bo‘lib, unda Genuya savdogarlarining mavqei ustun bo‘lgan. Ushbu qirollik Amir Temurga tobelik izhor etgani Sohibqironning diplomatik munosabatlari nechog‘lik ta’sir kuchiga ega ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shunday qilib, Amir Temurning G‘arbi davlatlari bilan diplomatik yozishmalari va elchilik aloqalarining dastlabki sabalari Sohibqironning Usmonlilar saltanatiga harbiy yurishi bilan bog‘liq bo‘lgan va Sulton Boyazidga qarshi hamkorlikdagi harakatlarni tashkil qilishga qaratilganini ko‘rishimiz mumkin.

Davlat tashqi siyosatida elchilarning o‘rni naqadar yuqori bo‘lgan bo‘lsa, xalq orasidagi muammolarni aniqlashda ichki xabargirlar bu borada nihoyatda ehtiyotkorlik bilan ish yuritishlari qattiq talab qilingan bo‘lsa, **arzbegi** davlatning ichki siyosatidan, ya’ni sipoh, raiyat hamda arz-dod qilib keluvchilarni qabul qilish, muhim ishlarning qaysi biri bitgan va bitmaganlari yuzasidan Amir Temurni xabardor qilib turishi kerak bo‘lgan[146].

Amir Temur “Tuzuklar”da yozganidek, “Amr qildimki, har yerda, viloyatu shahar va lashkar o‘rdusida kundalik voqealarni yozuvchilarni tayin qilsinlarki, hokimlar, raiyat, sipoh, o‘z lashkari va yot lashkarning xatti-harakati haqida meni xabardor

[145] Саидов А., Керен Л. Амир Темур ва Франция. – Т.: Адолат, 2016. – Б. 170.
[146] Ахмедова М.Т. Амир Темур давлатида хавфсизликни таъминлашнинг ҳуқуқий асослари. Юрид.фан.доктори....дисс. – Т.: ЖХУ, 2020. – Б.107.

qilsin. Atrofdan kirgan-chiqqan mol-mulk, chetdan kirgan, chetga chiqqan yot kishilar, har turli mamlakatlardan kelgan karvonlar, qo‘shni podshohlar, ularning gap-so‘zlari, ishlari haqidagi xabarlar va uzoq o‘lkalardan bo‘lib, mening dargohimga yuzlangan ulamo, fuzalo haqidagi so‘zlarni to‘g‘rilik bilan menga yozib tursinlar. Agar bunga xilof ish tutgudek bo‘lsalar, (bo‘lib o‘tgan) voqealarni yozmasalar, yozuvchining xabar yozgan barmoqlari kesilsin. Agar xabar yozuvchi biror sipohiyning xizmatini yashirsa yohud xabarni boshqa libosga kiyintirib (yolg‘on) yozgan bo‘lsa, u holda uning qo‘lini kessinlar. Agar yolg‘on xabarni tuhmat yoki g‘araz bilan yozgan bo‘lsa, uni qatl etsinlar va yana amr etdimki, ushbu xabarlarni kunma-kun, haftama-hafta, oyma-oy mening arzimga yetkazib tursinlar”[147].

Shuningdek, “....Amr qildimki, mingta tezyurar tuya mingan, mingta ot mingan yelib-yuguruvchi kishini chopqunchi, ming nafar tezyurar piyodani chopar etib tayinlasinlarki, turli mamlakatlar, sarhadlarning xabarlarini, qo‘shni hukmdorlarning maqsadlari va niyatlarini bilib, huzurimga kelib, xabar qilsinlar, toki biron voqea, kor-hol yuz bermasidan burun chora va ilojini qilaylik”[148]. Bu bilan Amir Temur xabargirlarning voqea tafsilotini yozishda va birovga yetkazishda faqat rostini yozishini, yolg‘on va tuhmatning aralashishi inson haq-huquqlarining poymol bo‘lishini bir necha asr ilgari ta’kidlagan, desak xato bo‘lmaydi. Binobarin, hozirda qonunchiligimizda ham bu tamoyillar o‘z aksini topgan deyishimiz mumkin.

Bu haqda Husayn Voiz Koshifiyning “Axloqi muhsiniy” asarida: “Podshohlar uchun dorussaltanat – poytaxt, ya’ni o‘rda

[147] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 139.
[148] Ўша асар. – Б. 139.

oddiy kishi uchun hovli kabidir, shahar va sahro joylar uning himoyasida bo‘lib, u yerdagi har bir benavo va muhtoj kishining hamsoyalik haqlari bo‘lib, podshoh ular ahvolidan xabardor bo‘lishi lozim va shartdir”[149].

Amir Temur o‘z “Tuzuklari”da yozishicha, Amir Xusayn xizmatida bo‘lgan do‘stlarimga xat yuborib, uning nayranglaridan meni ogoh etib turishlarini so‘radim. Do‘stlarimdan biri Sher Bahrom amir Husaynning niyati shum ekanligidan ogohlantirdi. Amir Husayn (buni sezib qolib) Sher Bahromni qatl ettirildi, mening ustimga esa ming otliq askar bilan hujum boshladi.

Sh.O‘ljayevaning ta’kidlashicha, “Xalqaro vaziyatni mushohada qilsak, Amir Temur davri ham zo‘ravonliklar, informatsion kurashlar davri bo‘lganligini alohida ta’kidlash lozim. O‘z mamlakatining xavfsizligi va barqarorligini saqlash uchun qo‘shni davlatlarda sodir bo‘layotgan siyosiy voqealarni sinchiklab kuzatish talab etilgan”[150].

“Sultonlarga davlat arkoni va hashmat ayonlari, shuningdek, o‘zga mulozim va mutaalliqlar (podshohning qarindosh va farzandlari – M.A) lozim va zaruriydir. Chunki, podshohlardan biri zamin mulklaridan ba’zini tasarrufga olgan bo‘lsa, barcha odamlar ixtiyori unga o‘tsa, u ehtiyotkorlik qonuni bilan o‘z mamlakatining umumiy va juz’iy ahvolidan xabardor bo‘lishi, raiyat, vazir va qo‘l ostidagilar g‘amini yeyishi, o‘z mamlakati ayonlaridan har katta va kichik kishilar ahvolini vojib darajada bilishi zarur. Xabargirlar muntazam xabar yetkazib va ahvol arz qilish bilan mashg‘ul bo‘lsinlarki, podshohdan viloyat

[149] Ҳусайн Воиз Кошифий. Ахлоқи муҳсиний. – Т.: Ўзбекистон. – Б .193.
[150] Ўлжаева Ш.Амир Темур давлат бошқаруви. Ташқи сиёсат. Дипломатия. – Т.: Академнашр, 2017. – Б.130.

va raiyat ahvoli, atrof va joylar xabarlari yashirin tutilsa, mamlakatga juda katta ziyon yetadi”[151].

Amir Temur xavfni bartaraf etishdan butun uning oldini olish muhimligini yaxshi tushungan, shu bois qo‘shni davlatlarda yuz berayotgan voqealarni ham o‘z davlati xavfsizligiga daxldor deb hisoblagan. U o‘zga yurtlardagi ahvoldan xabardor bo‘lish uchun diyorlarga shayx, savdogar, tilanchi va boshqa niqoblar ostida o‘z ayg‘oqchilarini yuborgan, shunga monand tashqi siyosat yo‘nalishlarini belgilagan. Sayyoh, savdogar, munajjim kabi qiyofalarda yurgan josuslardan olingan ma’lumot – dalillar ko‘pincha yopiq yig‘ilishlarda ko‘rib chiqilgan va mamlakat yaxlitligiga solingan xavflar o‘z vaqtida bartaraf etilgan[152].

Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”sida: “Amir Temur Buxoroda bo‘lgan vaqtda Idiguy[153] qochib kelib, O‘rusxon lashkarlar to‘plab To‘xtamish talabida kelayotganligi xabarini yetkazdi. Bu xabar ketidan O‘rusxonning elchilari – kepak Monkqut va Tulujon yetib keldilar va podshoh (O‘rusxon)ning gaplarini arz qildilar va Amir Sohibqiron ularga yordam berdi”[154]. Bundan ko‘rinadiki, tinchlik va barqarorlikni saqlash uchun davlatda barcha mas’ul bo‘lmog‘i lozimligini tushunish qiyin emas.

Amir Temur O‘rusxon tomonga yurishi vaqtida Muhammad Sltonshoh va Mubashshir ikkisini ikki tomonga xabar olib kelish uchun yuborgan edi. Har biri dushmandan bir kishini tutib qaytdilar. Ularning ikkalasi bir xilda so‘zlab: “Har ikkisining ham ismi Sotqin bo‘lgan ikki bahodir dushman tomonidan

[151] Ҳусайн Воиз Кошифий. Ахлоқи муҳсиний. – Т.: Ўзбекистон. – Б .235.
[152] Ўлжаева Ш.Амир Темур давлат бошқаруви. Ташқи сиёсат. Дипломатия. – Т.: Академнашр, 2017. – Б. 133-134.
[153] Ҳофизи Абру берган маълумотга кўра, бу ерда юқорида зикр этилган Эдигуй барлос эмас, балки Дашти Қипчоқ подшоҳларидан қочиб келган Эдигуй Манқут назарда тутилган.
[154] Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б. 104.

xabargirlik qilish uchun yuz kishi bilan bu tomonga kelganlar”, deb xabar berdilar[155].

“Siroj ul-muluk” kitobida[156] yozilishicha, No‘shiravon: Mamlakat zavoli uchta narsadan, birinchisi, podshohdan davlatning ahvoli xabari yashirin tutilsa, ikkinchisi, davlatda razil va pastkash odamlar tarbiyalansa, uchinchisi, zolimlar ishidan yemirilishi aytib o‘tilgan.

“Agar viloyat va raiyat xabarlari podshohga yetmasa, u do‘st va dushmandan forig‘ va g‘ofil bo‘lur. Har kim nima xohlasa qiladi, u bexabar bo‘lsa, turli fitna har burchakdan bosh ko‘taradi va mamlakat fitnachilar ahliga o‘tadi. Ikkinchisi, past va razil kishilar tarbiya topsa, himmat pastligi va tab’ xasisligidan mol yig‘ishga o‘ch bo‘ladi va har kishidan bir narsa tama qiladi. Ulug‘lar va kattalarning qadrlari qolmaydi, ulug‘ xalqning hurmatini saqlamaydi, hamma haloyiq ko‘ngillari bunday axloqdan og‘riydi. Va bu xususda aytadilarki, “davlatning zavoli pastkashlarning yuqorilashuvidandir”. Pastkashlar ko‘tarilganida razillar taraqqiy darajasiga yetadi, davlat tanazzzulga yuz tutadi”[157].

“Amir Temur Xurosonda vaqtida Alibekning (Alibek - Hirot voliysi – M.A.) hozir bo‘lishi uchun kishi yubordi va tezda yetib kelishini tayinladi. Alibek esa kelolmasligiga vaj-sabablar ko‘rsatib, ahdiga vafo qilmadi. Buning ustiga borgan elchini tutib qolib, qaytishiga ijozat bermadi.

Amir Sohibqironning qulog‘iga Po‘shang[158] qal’asining ahli muholifat izhor etib, jang asbobini muhayyo qilib turganligi

---

[155] Ўша асар – Б. 105.
[156] Абу Абдулла муҳаммад Туртусий (1126 ёки 1131 й вафот этган). “Сирож ул-мулку” (Подшоҳлар чироғи). Ҳусайн Воиз Кошифий. Ахлоқи муҳсиний. – Т.: Ўзбекистон. – Б .235.
[157] Ҳусайн Воиз Кошифий. Ахлоқи муҳсиний. – Т.: Ўзбекистон. – Б .235-236.
[158] Фушанж – Ҳирот яқинидаги мавзеларидан бири.

haqida xabar yetkazdilar. Shunga binoan farmon berildi va g‘alaba yor lashkar ul hisorni o‘rab oldi. Hisor atrofida va handaqda suv ko‘p edi, ikki-uch kun to‘xtab turib, qal’ani zabt etish uchun lozim anjomu yaroqlarni tayyorlash bilan mashg‘ul bo‘ldilar. Shunda “har kim o‘z qarshisidagi yerdan hisorga ko‘tarilsin” degan hukm joriy bo‘ldi”[159].

Amir Temur Hirot mamlakatini zabt etish vaqtida Alibek Jovuniy Qurboniyga elchi yuborib, uni muxoliflik qilishdan qaytarmoqchi bo‘ldi va hamjihatligu muvofiqlikka undab shunday yozadi: “O‘z davlatingdan qochish, kelgan baxtni zo‘rlab o‘zidan nariga haydash oqillarning ishi emasdir. Podshohga qullik qilish ko‘chasidan yuz o‘girma. Fosid kishilarning gapiga uchib, o‘z qoning, moling va nomusingni yo‘qotmagin!”[160].

Shundan so‘ng Alibek Sohibqiron taklifiga rozi bo‘lgandek bo‘ladi, ammo oz vaqt o‘tmay, uning xiyonat qilgani ma’lum bo‘ladi. Shu yerga yaqin hududdagi darada Sohibqiron bilan ko‘rishmoqchiligini bildiradi. Alibekning taklifi bilan Amir Temur u yerga borayotgan vaqtda xiyonatkor tabiatiga (muvofiq) bevafolik va makkorlik qilish andishasida bo‘lib, bir necha odamni pistirmalarda qoldirgan edilar. Ular bilmadilarki: “Kimki o‘z ahdini buzsa, bas, u faqat o‘z ziyoniga buzur. Ulug‘ Tangri Amir Sohibqironni o‘z panohida saqlab himoya qildi”[161].

Sohibqironning katta hayotiy tajriba to‘plashida, davlatni adolat bilan boshqarishda, butun saltanat hududida bir vaqtning o‘zida tinchlik va xavfsizlikni ta’minlay olishida, qolaversa, Sharq va G‘arb mamalakatlari bilan Buyuk Ipak yo‘li orqali

[159] Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б. 113.
[160] Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б. 119.
[161] Ўша асар. – Б. 120.

iqtisodiy munosabatlarni tiklab, diplomatik aloqalarni mustahkam o‘rnatishida uning nihoyatda bilimdonligi, keng mushohada qila olishi, teran fikrlashi, kuchli mantiq egasi ekani, diniy va dunyoviy kitoblarni juda ko‘p o‘qiganligi, o‘zining tili va dili bir ekani katta rol o‘ynagan.

Amir Temur tomonidan chegaralarga hayot sinovlari bilan tanish, zamona hodisalari bilan egizak tug‘ilgan hushyor va sergak, mardonalikda tanilgan dalir va tajribali kishilarni qo‘ygan, (ul joylarni) fahm-farosat va shijoat bobida yetuk kishilardan hech qachon holi qoldirmagan. Chunki to‘satdan biror kor-hol bo‘lib qolsa yoki qandaydir zarurat tug‘ilsa, zudlikda g‘aflat oqibatlaridan himoyalangan bo‘lishini hamda nadomat sharmandaligi va malomat tamg‘asi unga bitilmasligini ko‘p uqtirgan. Yo‘llarni qo‘riqlashda iloj-imkon boricha harakat qilishi va ularni muhofaza qilishni mamlakatni idora etmoq shartlaridan biri ekanini ham ta’kidlagan.

III BOB. MUDOFAA VA HARBIY XAVFSIZLIKNING ASOSIY VAZIFALARI VA YO‘NALISHLARI

3.1. Xavfsizlikni ta’minlashda harbiy-siyosiy kengashlar

Amir Temur davlatni boshqarishda kengashlarning ahamiyati juda katta hisoblangan. Mamlakat tinchligi va xavfsizligini ta’minlashda, harbiy boshqaruvda, davlatning ichki va tashqi siyosatida Sohibqiron tomonidan o‘tkazilgan barcha kengashlar o‘z o‘rniga ega bo‘lgan. Kengash asosida qaror yoki farmoni oliy chiqarilib, uning ijrosi bo‘yicha ishlar amalga oshirilgan.

Husayn Voiz Koshifiyning yozishicha, “Maslahatning foydasi ko‘pdir. Birinchisi, ishlarni yaxshi bo‘lishini ta’minlaydi; ikkinchisi, har qanday kishining ishi maslahatlashgandan so‘ngra, mabodo u yaxshi natija bermasa ham, undan hech foyda ko‘rmasalar ham, oxirida xaloyiq unga ta’na qilmaydilar, balki uni kechiradilar; uchinchisi, bir kishining aqli muhim ishni atroflicha va turli tomonlarini qamrab ololmaydi, lekin ko‘pchilik yig‘ilib, u yuz bergan muhim voqeani mohiyatiga e’tibor bersalar, har birining xotiriga bir tasavvur yetadi va bulardan qaysi fikr va maslahat yaxshi va savob ekanligi zohir bo‘ladi. demak, tanlash huquqiga ega kishilarga lozimki: “Kengashni tark qilish bilan ish o‘nglanmaydi”, so‘zi taqozosi bilan ular hal qilishi zarur bo‘lgan har bir ishda va paydo bo‘lgan har bir muhim masalada uni oqillar bilan kengashmay boshlamasin. Mushkul masalalarni hal qilishda kengash qilish ahamiyatini odil hokim va haqshunos olimlar yaxshi biladilar. Qancha ko‘p aqlning tadbiri bir aqlning tadbiridan shuncha yaxshi va foydaliroqdir”[162].

[162] Ҳусайн Воиз Кошифий. Ахлоқи муҳсиний. – Т.: Ўзбекистон. – Б .127-128.

H.Boboyevning ta’kidlashicha: “Amir Temur yirik davlat ahamiyatiga ega qarorlarni qurultoy chaqirib, unda muhokama qilgan. Avval kengash qurgan, keyin Qur’ondan fol ochgan va uning hukmiga binoan ish ko‘rgan. U o‘zining tuzuklarida imperiyani tashkil qilish uchun o‘tkazgan 31 muhim kengashlari haqida alohida-alohida juda katga aniqlik bilan yozadi. Ana shunday muhim kengashlarning ahamiyati shundaki, ularda juda ko‘plab tarixiy voqealar, Amir va xonlar, davlatlarning shahar va qishloqlarning nomlari tilga olinadi. Ayniqsa, davlat, huquq va harbiy sohalarga tegishli atamalar ko‘plab ishlatilganki, ularning hozirgi kundagi ahamiyati beqiyosdir”[163].

Amir Temur kengashni **ikki turga** bo‘ladi. **Biri** - til uchida aytilgani bo‘lsa, **ikkinchisi** esa yurakdan chiqqan kengashdir, deb hisoblaydi u. Til uchida aytilgan maslahatlarni shunchaki tinglagan bo‘lsam, deb uqtiradi Amir Temur, yurakdan aytilgan maslahatni “Qalbim qulog‘iga quyardim va dilimga joylardim”, - deb hisoblaydi u. Demak, kengash, maslahatning hammasi ham to‘g‘ri yoki sidqidildan aytilgan bo‘lmas ekan. Kengashda davlat boshliqlarini Amir Temur hushyorlikka, ziyraklikka chaqiradi. Kengashlarda ko‘rilayotgan masalalar ustida muzokaralar, tortishuvlar bo‘lganda, sabr-toqat bilan ularni tinglab, xulosalar hosil qilishga da’vat qiladi. “Qaysi kishi aqliga siqqan bir ishni kuyinib gapirsa, - deydi u, - suyib eshitar edim. Kimki oqilona gaplarni erlarcha keskinlik bilan so‘zlasa, unga ham quloq solar edim[164]. Masalan, Tug‘luq Temurxon bilan uchrashish natijasida bo‘lgan kengashni oladigan bo‘lsak, Xonning sarkardalari Bekchik, Hojibek, Ulug‘ Tuqtemur kabi Jetening boshqa amirlaridan tashkil topgan uch favj, ya’ni harbiy bo‘linma

[163] Бобоев Ҳ.Б. Ўзбек давлатчилиги тарихи. 1-китоб. – Т.: Фан ва технологиялар, 2004. – Б. 153.
[164] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б.16.

tuzilgani va ularni Movarounnahrni talon-taroj qilish uchun Huzor (g‘uzor)ga kelib tushganligi haqida xabar beriladi. Amir Temur bundan xabar topib, ularning huzurida bo‘ladi. Mamlakatni mo‘g‘ullar zulmidan tinchlik yo‘li bilan qutqarib qolishga intiladi. Bu haqda uning o‘zi shunday degan: “...Men tajribamdan shuni bildimki, yuz ming otliq askar qila olmagan yukni bir to‘g‘ri tadbir bilan amalga oshirish mumkin ekan”[165].

Amir Temur, “...Tajribamda ko‘rilgankim, ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat’iy, tadbirkor va hushyor bir kishi, ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir...”[166]. Amir Temur hokimiyat uchun kurashga otlanar ekan, u tadbirkorlik, azmu qat’iylik, hushyorlik hamda kengash bilan ish ko‘rish kabi hislatlarga amal qildi. Shuning uchun ham, tashqi dushmanlar tomonidan bosib olingan, kuchsizlantirilgan va tarqoq holda qolib ketgan Vatanni asta-sekin oyoqqa qo‘yib, so‘ngra bo‘lajak buyuk imperiyaga zamin tayyorladi.

Sohibqiron Amir Temur kengash bilan ish tutishga katta e’tibor berib, bunday deydi: “Kengash egalari birlik, ittifoqlik bila so‘zida sobit, ishda chidamli bo‘lmoqlari shartdur. Qilmoqchi bo‘lg‘on ishlarini qilmasdin (o‘lda-jo‘lda) qoldirmasinlar. Agar biror ishni qilmaslikka so‘z berar ekanlar, aning yaqiniga yo‘lamasinlar”. Sohibqiron davlatining ustunlari bo‘lgan sohib devon, vazir, viloyat hokimlari, beklar (amir Joku, amir Dovul, amir Sayfiddin, Shoh Malik, Shayx Nuriddin va boshqalar) og‘ir vaqtlarda sinalgan, aytgan so‘zlaridan qaytmagan, sadoqatli lashkarboshilar, davlat arboblari bo‘lgan edilar.

[165] Бобоев Ҳ.Б. Ўзбек давлатчилиги тарихи. 1-китоб. – Т.: Фан ва технологиялар, 2004. – Б. 153.
[166] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б.16.

“Podshohlar har bir murakkab masalani tadbir qo‘li uchi bilan hal qilishlari lozim. Har bir murakkablik ro‘zg‘or havosidan paydo bo‘lsa, kengashning yordami bilan uni daf qilsinlar”[167].

“Temur tuzuklari”da Sohibqironning o‘zi aytadi: “Garchi ishning qanday yakunlanmog‘i taqdir pardasi orqasida pinhon bo‘lsa ham, aqli raso va hushyor kishilardin kengashu tadbir istab, fikrlarini bilmoq lozimdur. Shunga ko‘ra, davlat ishlarining to‘qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvarat, qolg‘on bir ulushi esa, qilich bila bajo keltirilmog‘ini angladim”[168].

Sohibqiron kengashlarida Chig‘atoy avlodidan bo‘lgan amir, no‘yon va chingiziy shahzodalarning qurultoyida saylangan xon, vaziri a’zam (sohibi devon), sipoh vaziri, omonat vaziri, saltanat ishlarini yurituvchi vazir (devonbegi, sohib devon), sarhad mamlakatlarining vazirlari, arzbegi, sadri a’zam, muftiy, qozikalon hamda boshqa davlat va jamoat arboblari qatnashgan. Davlat kengashida yoki oliy devon majlisida arkoni davlat o‘ziga xos tartibda hozir bo‘lganlar.

S.Xidirov o‘z ishida, “Sohibqiron kengashlarini ilmiy nuqtai nazardan uch turga bo‘lish ahamiyatlidir”, - deb e’tirof etadi va quyidagilarni ko‘rsatadi. YA’ni,

birinchisi, davlat hokimiyatini qo‘lga kiritish uchun kurashga aloqador bo‘lgan kengashlar;

ikkinchisi, saltanatga xavf soluvchi dushmanlarni bartaraf etish uchun kurashga aloqador bo‘lgan kengashlar;

uchinchisi, saltanatni kengaytirish uchun kurashga bag‘ishlangan kengashlaridir”[169].

[167] Ҳусайн Воиз Кошифий. Ахлоқи муҳсиний. – Т.: Ўзбекистон. – Б .132.
[168] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 15.
[169] Хидиров С.М. Амир Темур давлатининг ташкил топиши ва давлат тузуми. Юрид.фан.номзоди. Дисс. – Т.: 2002. – Б. 118.

Amir Temur turkiy xalqlar milliy udum va an’analariga tayangan holda barcha ishlarni kengash asosida amalga oshirishni o‘z davlatining asosiy prinsipi qilib olgan edi. Qurultoy va majlislarda saltanat saroyida o‘tirish va o‘rin olish tuzugi ishlab chiqilgan. Bu qoidaga ko‘ra, quyidagicha tartib o‘rnatilgan edi. Amir Temurning o‘g‘il, nabiralari va qavmu-qarindoshlari o‘z daraja va mansablariga ko‘ra, oysimon shaklli taxtni o‘rab o‘tirishlari kerak. Sayyidlar, qozilar, ulamo, fuzalo, shayxlar, ulug‘lar va atrof (oliy tabaqa vakillari) o‘ng tomondan o‘rin olgan. Amir ul-umaro, beklarbegi, amirlar, no‘yonlar, ulus, tumanlar va qo‘shinlarning sardorlari va amirlari, mingboshilar, yuzboshilar, o‘nboshilar o‘z martabalariga yarasha chap qo‘l tomondan joy olganlar.

Devonbegi va vazirlar taxt qarshisidan joy olganlar. Qolganlari taxtning orqa tomonlariga joylashadilar. Xirovul amiri taxtning ro‘parasidan o‘rin olsa, ichki, xususiy yasovul katta chodir eshik oldida, taxtning poyasi to‘g‘risida tik turgan. Dodxohlar esa o‘ng va chap tomonlarida tik turganlar. O‘rin olish qoidalarini nazorat qilish to‘rt amirga toshirilgan. Majlis qoida bilan boshlangandan so‘ng ming tovoq osh, ming dona non keltirilgan va yig‘ilganlarga berilgan, buni shohona ziyofat (shilon) deb ataganlar. Ming tovoq oshni esa, mumtoz va xos kishilar bazmiga olib kelib, shundan besh yuz tovog‘ini ulus amirlarga, sarkardalarga, oqsoqollarga, har qaysisining nomiga atab tarqatilgan[170].

Amir Temur amalga oshiriladigan ishlarni maslahat tarozisiga qo‘yib, tegishli xulosalar chiqarib oladi. Sohibqironning o‘zi ham boshqa xonlarga, amirlarga maslahatlar

[170] Бобоев Ҳ.Б. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Т.: Фан, 2004. – Б.204.

bergan. Masalan, Dashti Jete[171] amirlari Tug‘luq Temurxonga qarshi isyon ko‘targanlarida Tug‘luq Temurxon Amir Temurga murojaat qiladi va undan maslahat so‘raydi. Amir Temur unga shunday maslahat beradi: “...Agar g‘animni tor-mor etgali lashkar yuborsa, ikki xatar, o‘zi borsa, bir xatar borligini bildirib, unga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatdim. **Mening kengashim** bilan dashtga, isyonchilar ustiga o‘zi borib edi, barcha ishlari men aytganimday bo‘lib bajarildi”[172].

Amir Temur o‘z “Temur tuzuklari”da jami 31 ta kengash haqida so‘z yuritiladi. Ishda ulardan 13 tasini mazmunan tahlil etishga harakat qilamiz:

Birinchi kengashda Amir Temur mo‘g‘ul xoni Tug‘luq Temurxonga saltanat ishlarini yuritishga doir maslahatlar bergan. Tug‘luq Temurxon Amir Temurning maslahatiga quloq tutib, o‘z salatnatini saqlab qolgan.

Ikkinchi kengash – Tug‘luq Temurxonning ikkinchi marta Movarounnahrga bostirib kelishi va avvalgi ahdini buzishi, Amir Temur mansabini pasaytirishi uning o‘g‘li Ilyosxo‘ja bilan bebosh mo‘g‘ul amirlarining mahalliy aholiga jabr-zulmni kuchaytirishi bilan bog‘liq. Vaziyatga ko‘ra, mana shu ikkinchi kengash, xalq hokimiyatchiligi qoidalariga ko‘ra, xalqning ma’naviy rahnamolari – sayyidlar, ulamolar ishtirokida o‘tgan va kengash qarorida islom shariati qonun-qoidalarini yaxshi bilgan Amir Temurni bo‘lajak adolatli davlatning rahbari, deb e’tirof etish haqida hujjat – fatvo qabul qilingan. Bundan tashqari, Amir Temur Samarqand aholisining ishonchini oqlagani bilan birga unga kim sadoqatli-yu, kim sadoqatsiz ekanligini boshidan kechirgan. Qolaversa, juda ozchilik, ya’ni oltmish otliq askar

[171] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б.15.

[172] Жете - Чиғатой улуси (1269 й.) икки қисмга бўлинган эди. Еттисув, Чу воҳаси ва Шарқий Туркистонни ўз ичига олган.

bilan Xivak (Xiva – M.A.) hokimi To‘kal Bahodirning ming otliqdan iborat qo‘shinini yengib, zafar qozongan[173]ini ko‘rishimiz mumkin.

Uchinchi kengash – Amir Temurning 1362 yilda Xorazm hududida boshidan kechgan og‘ir va qiyinchiliklarga sabr qilgani, shu orada turkmanlar sardori Alibek Joniqurboniy tomonidan hibsga olinib, 62 kun qamab qo‘yilgani va bundan to‘g‘ri kengash asosida qutulgani haqida so‘z yuritiladi. Biroq Amir Temur yengilmas bahodir sifatida ham aql bilan, ham kuch bilan kurashib, Alibekning qo‘shinlarini yengadi[174].

To‘rtinchi kengash – bunda Amir Temur yonida bor 60 nafar otliq qo‘shinini qanday bo‘lmasin ko‘paytirish haqida kengash qiladi. Biroq ma’lum muddat Samarqandga kelmay, Xurosonda joylashgan Moxon[175] hokimi Muborakshoh Sanjariy bilan aloqa o‘rnatadi. Natijada Muborakshoh yuz otliq navkari bilan Amir Temurga qo‘shiladi. Shu vaqtda Temurning qo‘shini 200 kishiga yetgan edi. Biroq Temur Samarqandni bu kabi ozchilik qo‘shin bilan yengolmasdi. U yana qo‘shin to‘plashi kerak edi. Shu orada, o‘zi yashirincha Samarqandga kelib, 48 kun davomida shahar hayotini tubdan o‘rganadi, uning kelganini payqab qolishlari bilan yana Samarqanddan chiqib, Xorazm tomonga ketadi[176]. U Amudaryo bo‘yidagi Achig‘i degan mavzeda favqulodda vaziyatda kengashgan. Bu kengashda Mohon hokimi Muborakshoh, Sayid hasan, Temur xo‘ja o‘g‘lon, Bahrom jaloyir qatnashgan. Unda ming otliq askar bilan Boxtarzamin[177] (Balx) va Qandahor[178] yerlarini tasarrufga olish haqida qaror qabul qilingan.

---

[173] “Темур тузуклари”. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б.24.
[174] Ўша асар. – Б.24-25.
[175] Марв шаҳри яқинидаги қишлоқ
[176] “Темур тузуклари”. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б.27.
[177] Қадимги Бақтрия; ўрта асрларда Балх ва унга ёндош ерлар

Beshinchi kengash – bunda butun Garmsir[179] viloyati o‘zining mingga yaqin qo‘shini bilan Amir Temurga qo‘shiladi. Shu orada Seyiston[180] voliysi Temurga noma yozib dushmandan qutqarishni iltimos qiladi va uni evaziga Amir Temur askarlariga 6 oy vaqt oziq-ovqat berishini va’da qiladi[181]. Uning iltimosiga ko‘ra, Amir Temur Seyistonni dushmanlardan ozod qiladi. Seyiston voliysi Temurning juda kuchli ekanini, mahoratli sarkardaligini ko‘rib, bu ketishda Seyistonni ham bosib oladi deb o‘ylab, Temurga qarshi jang qilishadi. Jangda Amir Temur qo‘li va oyog‘idan jarohatlanib, umr bo‘yi oqsoqlanib qolgan. Biroq, shunday bo‘lsa-da, ular Amir Temur ustidan g‘alaba qozonadi.

Oltinchi kengash – endigi asosiy maqsad Movarounnahrni zabt etish bo‘lgan. Biroq, atrofida 40 otliq kishigina qolganini biladi. Bularning barchasi aslzoda, amirzoda, nasli pok yigitlar bo‘lgan. Balx tog‘larida Siddiq Barlos o‘n besh otliq kishisi bilan, Amir Temurning sobiq navkari Qozonchi bahodir yuz otliq kishisi bilan, navkarlar Tug‘luq Xoja Barlos, amir Sayfiddin va Tutak bahodirlar 70 ta otliq kishisi bilan unga qo‘shiladi[182]. Bir so‘z bilan aytganda, avvalgi kurashlarda talofot yetib, parokanda bo‘lib ketgan ozodlik kuchlarini yana birlashtirish masalasi ko‘rilgan.

Yettinchi kengash – Amir Temur lashkarlarining soni hammasi bo‘lib, uch yuz o‘n uch otliq bo‘ldi. Dastlab Alachu qal’asini qo‘lga kiritishga qaror qildi. Bu qal’aga Ilyos Xoja tomonidan Mengli Bug‘a Sulduz[183] bu qal’aga qo‘yilgan edi.

---

[178] Ҳозирги Афғонистоннинг жанубидаги қадимий ва катта шаҳарлардан

[179] Гармсир (форсча – иссиқ ўлка) – Сейистон ва Балужистоннинг туташ ерлари.

[180] Ҳозирги Эроннинг жануби-шарқида ва Афғонистоннинг жануби-ғарбида жойлашган ўлка. 1872 йили Эрон ва Афғонистон орасида бўлинган. Ҳилманд дарёсигача бўлган қисми Эронга, ундан шарқи Афғонистонга ўтган.

[181] “Темур тузуклари”. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б.28.

[182] “Темур тузуклари”. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б.29-31.

[183] Сулдуз – нуфузли мўғул қавмларидан бирининг номи.

Do‘lon Javun qavmidan uch yuz yigit qo‘shildi. Yana Tuman Bahodirning o‘g‘li Amlas ikki yuz otliq kishisi bilan qo‘shildi, Jeta lashkarida ot surgan Sulaymon Barlos, amir Muso Barlos, amir Jaku Barlos, amir Jaloliddin, amir Hinduka Barlos kabilar ming otliq askari bilan qo‘shildi. Bunda Amir Temur Movarounnahrning tarqoq kuchlarini birlashtirishga birmuncha muvaffaq bo‘lgan.

Sakkizinchi kengash – Amir Temur o‘zining harbiy taktikasi va mahoratli lashkarboshi sifatidagi obro‘si yanada oshdi. Uning Jeta lashkari tomoniga qilgan yurishi, jangdagi harbiy san’ati ko‘pchilikni hayratga soldi. Jeta lashkari ustidan mutlaq g‘alaba qozonishi oqibatida barcha parokanda kuchlar Amir Temur atrofiga birlashtiriladi va Mo‘g‘uliston istilochilariga qarshi kurashni keng yo‘lga qo‘yishga zamin yaratdi.

To‘qqizinchi kengash – Chig‘atoy ulusida kuchli saltanatni tiklash masalalariga bag‘ishlangan. Amir Temur Jeta lashkarini yenganidan so‘ng, saltanatni mustahkamlash uchun, to‘plangan xazinadan naqd pullar va (qimmatbaho) buyumlarni sipohga taqsimlab berishga qaror qiladi. Bu kengash qarorini amalga oshirish uchun qurolli kuchlar yetishmasligiga qaramay, baribir Temur qo‘shinlari g‘alaba qozongan.

O‘ninchi kengash – amir Xusayn bilan birlashib, Jeta qo‘shinlariga qarshi kurashiga bag‘ishlangan. Badaxshonni esa tinch yo‘l bilan zabt etdi.

O‘n birinchi kengash – ilgari Amir Temurning navkari bo‘lgan Tug‘luq Sulduz va Kayxusrav Jetaning olti minglik askari Amir Temur ustiga yurish boshlaydi. Amir Temur lashkarlari o‘rtasida ittifoqsizlik kuchayadi.

O‘n ikkinchi kengash - Amir Temur birinchi navbatda qo‘shinini ittifoqqa keltirishni va Jeta qo‘shinlariga qarshi kurashiga bag‘ishlangan. Amir Temur lashkarini ittifoqqa keltirish uchun birinchi navbatda ularga mol-mulk, sovg‘a-salom, mansab va martaba berish yo‘lini tutdi. Ularni ijtimoiy himoyasiga katta e’tibor qaratdi. Harbiylarga ko‘pdan ko‘p mablag‘ ajratishi bilan birga ularni ham moddiy, ham ma’naviy rag‘batlantirdi[184].

Natijada uning atrofida yana kuchli armiya birlashdi. To‘g‘ri yuritilgan tadbir orqali Ilyos Xoja lashkarini yengdi.

O‘n uchinchi kengash[185] – bunda yana Ilyos Xoja lashkarini oxiriga qadar mutlaq yengishga oid kengash hisoblanadi. Ilyos Xoja o‘z otliq navkarlari bilan tekislik, yalanglikka qarab ketishini Amir Temur onggi va tafakkuri bilan to‘g‘ri anglaydi, ya’ni Ilyos Xojaning maqsadi Amir Temurning qo‘shinini tog‘dan tekislikka tushishiga majbur qilish va tekis joyda ularni tor-mor etish bo‘lgan. Biroq, Amir Temur uning bu rejasini bilib, tog‘dan qo‘shinini tushirmasdan, ularni shu holatda tor-mor qildilar. Amir Xusayn[186]ni o‘ziga do‘st deb bildi, ammo Amir Xusayn Temurga xiyonat qildi. Amir Xusayn bilan o‘zaro kurashi davom etdi. Amir Temurning hujumidan qo‘rqqan amir Xusayn yana Temurga makru hiyla yo‘li bilan, do‘st-oshno bo‘lishini bildiradi. Lekin, bunga Amir Temur butkul ishonmasdi, hatto nikohida bo‘lgan Uljay Turkon oqa[187]ning akasi bo‘lsa ham.

---

[184] “Темур тузуклари”. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б.39.

[185] “Темур тузуклари”. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б.40-43.

[186] Амир Темур билан амир Ҳусайн 1365 йилгача иттифоқдош бўлишган. Лекин 1365 йили “Лой жанги” давомида амир Ҳусайн ўз иттифоқчисини қўллаб-қувватламасдан, жанг майдонини ўзбошимчалик билан ташлаб чиқиб кетганидан бошлаб муносабатлари бутунлай бузилган.

[187] Бу ерда амир Ҳусайннинг синглиси Улжай Туркон оқа назарда тутилган. Амир Темур уни 1356 йили ўз никоҳига олган. Бу никохдан Амир Темурнниг қизи Султон бахт бегим туғилган.

“Tuzuklar”da Jete va Ilyosxo‘ja lashkarlariga shikast yetkazish haqidagi kengashda qo‘llanilgan tadbirlar, kengashlar muhimdir. Dushman jangchilari ko‘ngliga g‘ulg‘ula soladigan ruhiy tazyiqlar Amir Temur tomonidan nihoyatda ustalik va ehtiyotkorlik bilan olib boriladi. Masalan, katta sonli Ilyosxo‘ja sipohi turgan joyga Amir Temur to‘satdan kelib, tunda tog‘ tepaligini egallab, atrofga ko‘plab gulxanlar yoqishga amr qiladi. Bundan vahimaga tushgan dushman tuni bilan uyqudan qolib, qo‘rqinchda tong ottiradi. Tong otgandan so‘ng Ilyosxo‘ja o‘z lashkarlari bilan favj-favj bo‘lib, keta boshlaydi. Bu holni kuzatib turgan Amir Temurning amirlari darhol ularning ortidan quvishga ijozat so‘raganlarida, shoshmaslikni ularga maslahat berib, dushmanning asl maqsadini bilmaguncha hujum qilmaslikka amr qiladi. Ilyosxo‘ja Amir Temur lashkarlariga tuzoq qo‘yib, tepaliqdan pastlikka tushishlari bilan ularga qarshi jang qilish niyatida ekanligi oshkor bo‘ladi. Xiyla rejasi amalga oshmagan Ilyosxo‘ja orqaga qaytib, jangga kirishadi va bu jangda yengilib, Movarounnahrni tark etib, Xo‘jand shahrida Sirdaryodan narigi tomonga o‘tib ketadi. Movarounnahr va uning poytaxti Samarqand shahri Amir Temur qo‘liga o‘tadi. Amir Temur saltanat tepasiga kelar ekan, endiliqda uning oldida og‘ir vazifa - mahalliy mansabparastlikka berilib ketgan amirlar, beklarning boshlarini bir joyga qovushtirishdek o‘ta og‘ir ish, boshqacha qilib aytganda, feodal tarqoqlik oqibatida halokatga uchragan mamlakatni yagona markazlashgan, kuchli davlatga aylantirishdek vazifa turar edi.

Buni yaxshi tushungan Amir Temur shunday degan edi: “...saltanatimning mustaqilligi va mustahkamligi borasida kengashlar o‘tkazdim. Kengashlarim o‘zini shavkatli buyuk amir (amiri azim ush-sha’n) deb hisoblagan va boshqa amirlardan

o‘zini ulug‘roq bilayotgan amirlarni itoat ettirib, bo‘ysundirishga qaratgandim...”[188].

Hindistonga yurishda ko‘pchilik amirlar rozilik bermayotganini sezgan Amir Temur ularga nisbatan darg‘azab bo‘lmasdan, aksincha, yanada xush muomalada bo‘lib, ularni o‘z fikriga qo‘shilishlariga erishgan. Amir Temur buyuk sarkarda sifatida har qachon yurishlari oldidan, ayniqsa, jangga kirish oldidan o‘z amir va lashkarlariga imkoni boricha yaxshi gapirib, sharoit yaratishga harakat qilgan. Hindistonga yurishda ham u ana shu tadbirni qo‘llab, uni zabt etadi va juda katta boylikni qo‘lga kiritadi.

Amir Temurning janglari orasida eng mashhuri – Yildirim Boyazid bilan bo‘lgan jangdir. “Temur tuzuklari”da Boyazidni Rim mamlakatining qaysari deb xisoblaydi. Amir Temur Boyazidning kuchi ko‘pligini va uning taniqli podshoh ekanligini e’tiborga olib, unga eng avval xat bilan murojaat qilishga qaror qiladi. Ammo u Boyaziddan rad javobini oladi. Uning sarosimaga tushib, jang qilishga kelayotganidan Amir Temur xabardor bo‘ladi. Bu davrda Qora Yusufdek amirlarning beboshliklari ortib ketgan edi. Hijriy 804 yilning rajab oyida, milodning 1401 yil fevralida Ozarbayjondan Qaysar Boyazid ustiga yurish qiladi. Bu urushda har ikki tomondan saralangan juda katta sonli qo‘shin ishtirok etadi. Masalan, birgina Boyazid lashkarlarining soni to‘rt yuz mingdan ortiq otliq va piyodalardan iborat edi. Amir Temurda ham undan kam emas edi. Urush Amir Temur foydasiga hal bo‘ldi. Boyazidning yengilishi va uning qudratli qo‘shinining yengilishi Farbiy Yevropa mamlakatlarini uning tasarrufiga o‘tishidan saqlab qoladi. Bu eng uzoq

[188] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б.28.

cho‘zilgan va og‘ir janglar natijasida zafar qozongan yurish edi. U yetti yil davom etgan.

Demak, Amir Temurning fikricha, boshqalarning gaplariga, maslahatlariga quloq solish, ularni tinglash va tegishli xulosalar chiqarish shohdan katta jasoratni, sabr-toqatni talab qiladi. Davlatni idora qilishda; lashkarlarni jang maydonlariga chorlashda shoshma-shosharlikka, manmanlikka zinhor yo‘l qo‘yib bo‘lmasligini va bunday og‘ir siyosiy, harbiy masalalarni faqat kengash va tadbir orqali amalga oshirilsagina, to‘g‘ri bo‘lishligini, xatoga yo‘l qo‘yilmasligiga e’tibor berishga da’vat qiladi[189].

Amir Temur o‘z oldidagi ishni qilish-qilmaslikni, undan ko‘radigan foyda va zararning miqdorini bilishga harakat qiladi. Ayniqsa, u ishning xatarli tomonlariga ko‘p e’tibor berib, boshqalarning fikr va mulohazalarini bilishga harakat qilgan.

3.2. Davlatda harbiy xizmat tartibi va intizomi

Saltanatni boshqarishda Amir Temur buyuk sarkardalar qatorida qo‘shinlar orasida tartib-intizomni mustahkamlashga butun borlig‘ini bag‘ishlagan. Amir Temur davlatda tartib-intizomni yo‘lga qo‘yish uchun o‘z e’tiborini quyidagilarga qaratgan: a) keksa donishmandlar bilan suhbat; b) “Temur tuzuklari”ni o‘qish; v) hayotiy tajriba; g) chidam va sabot bilan intilish.

Amir Temur o‘z davlatini tuzishga Movarounnahr yoki Chig‘atoy ulusi hududlarini mustahkamlashga kirishar ekan Samarqand boshqa shafar Xorazm va ay rim ajratib olingan

[189] Ахмедова М.Т. Амир Темур давлатида хавфсизликни таъминлашнинг ҳуқуқий асослари. Юрид.фан.доктори....дисс. – Т.: ЖХУ, 2020. – Б.126.

joylarni qayta o‘z davlatiga kiritadi. Bu haqda “Temur tuzuklari” va “Zafarnoma”da uning zafarli yurishlari bitilgan.

Amir Temurning zafarlar qozonishida “uch yillik yurish”, “besh yillik yurish”, “yetti yillik yurish”lari mashhurdir. U davlatni idora qilishda kuchli va ko‘p sonli qo‘shinga tayanadi. U o‘z imperiyasini boshqa qo‘shni davlatlarni qo‘shib olish yo‘li bilan kengaytiradi va mustahkamlaydi. Tarixchilar tomonidan ko‘rsatilgan “ko‘p yillik yurishlar” deganda, bir narsani to‘g‘ri tushunimiz talab etiladi. Amir Temurning boshqa davlatlar hududlarida ko‘p yil bo‘lishini har kuni jang qilgan deb o‘ylash xatodir.

Birinchidan, hech qaysi jang tinimsiz uch, besh yoki yetti yil davom etgan emas, balki bir necha kun va oyda jang bo‘lgan, qolgan vaqtda u hududni tiklagan, obodonlashtirgan va iqtisodiy tomonidan Buyuk Ipak yo‘lini tiklashga qaratilgan xavfsizlikni o‘rnatgan, deb aytish mumkin.

Ikkinchidan, Amir Temur Chig‘atoy ulusi hududi yaxlitligiga erishgach, Buyuk Ipak yo‘lini tiklash maqsadida, tinchlik va barqarorlik ta’minlanmagan mamlakatlarni birin-ketin o‘z davlatiga qo‘shib ulkan saltanat yaratdi. Ularning aksariyati ixtiyoriy ravishda iqtisodiy va siyosiy manfaatlarni ko‘zlab bu davlat tarikibiga qurgan[190].

Nizomiddin Shomiy “Zafarnoma” asarida yozishicha: “Bir muddatdan so‘ng Ulug‘ amirzoda u diyor ustiga adl soyasini solib raiyatni yupantirib, imorat va ziroatga mashg‘ul qildi va u viloyatning toqu ravoqiga yetishgan kasr-vayronlikni Kisrodek o‘z adli bilan tuzatishga kirishdi. U mamlakat ovoralari va viloyatdan qochib ketganlar bu xabardan shodmonu masrur

[190] Ахмедова М.Т. Амир Темур давлатида хавфсизликни таъминлашнинг ҳуқуқий асослари. Юрид.фан.доктори....дисс. – Т.: ЖХУ, 2020. – Б.130.

bo‘lib, davlat haqiga duo qildilar va bu tomonga qaytib kelishga azm etdilar. Ular viloyatlarning go‘zali, bandalarga marg‘ub bo‘lgan Bag‘dod tez orada qaytadan amnu amonlik maqomida jilva qilib, bu davlat shonu shavkati tufayli obodonlik suvi ariqlarga yana qaytishiga umid qo‘yib, chin ko‘ngildan ishondilar!”[191].

Amir Temur o‘z davlati tarkibiga kirgan mamlakatlar aholisini mol-mulklarini xavfsizligini ta’minlaganligi manbalardan ma’lum. Masalan, Gurjistonga yurishi vaqtida uning hukmdoriga shunday mazmunda xabar yuborgan: “Senga biror yomonlik istamayman, moling, oru nomusing, xotin-bolalaring salomat qoladilar, seni aziz tutib, mamlakatni senga muqarrar qilib, qaytarib yuboraman”. Amir Temurning nomini eshitgan faranglarning ulug‘laridan Soqiz shahriga hokim bo‘lib turgan Sata ismli bittasi Sohibqiron huzuriga bir elchini yuborib, itoat va bandalik izhor qildi “Xilofot panoh hazratning amru ko‘rgazmalariga muti’ va farmonbardordurman”, dedi. Amir Sohibqiron uning uzrini qabul qildi hamda jizya va xiroj olish bilan rozi bo‘lib, panohiga oldi”[192].

Amir Temur yetuk va mahoratli harbiy doktrinaga ega shaxs sifatida tarixda o‘z o‘rniga egaligi bilan boshqa sarkardalardan alohida ajralib turadi. Urushlar asosiy masala bo‘lgan o‘rta asrlarda uning yanada harbiy qudratga erishishi mintaqalarda himoya va nazoratni amalga oshirishda muhim vosita bo‘lgan. U juda ham kuchli razvedka maktabini yaratdi. Sohibqiron dunyoda birinchi bo‘lib qo‘shinni yetti qismga bo‘lgan va tog‘larda yuradigan piyoda jangchilar guruhiga asos solgan.

Sohibqironning harbiy mahorati uning yoshligidan turli

[191] Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б. 373.
[192] Ўша асар. – Б. 347-348.

janglarda qatnasha boshlagani, mashqlar bilan shug‘ullanishi oqibatida malaka orttirgani, misli ko‘rilmagan kuchli sarkarda bo‘lib yetishishida zamin yaratdi.

Amir Temurning harakatlari bilan dunyo siyosiy xaritasida o‘rta asrlarda buyuk markazlashgan davlat barpo etilib, o‘ziga xos tizim orqali boshqarilgani hali-hamon o‘rganilib kelinmoqda. “U raqibiga to‘satdan zarba berish usuli bilan shuhrat qozongan. U o‘ta tahlikali onlarda ham sarosimaga tushmas, hissiyotga berilmas, irodasi ikkilanishiga aslo yo‘l qo‘ymas edi. Jang oldidan jangchilarning ruhini ko‘tarish uchun sovg‘alar berilgan”[193].

Amir Temur nafaqat Sharq, balki Yevropa olimlarining ham doimo nigohida bo‘lganligini alohida ta’kidlash lozim. Masalan, nemis olimi F.Shlosserning “Jahon tarixi” (III tom) asaridagi “Baxtiyor jangchi, jahongir, uzoq Sharqda qonunshunos bo‘lishi bilan birga o‘zida, Osiyoda kam uchraydigan taktik va strategik bilimlarni ifodaladi”, - deb yozsa, fransuz tarixchisi Du Sayenkeyo “Buyuk Temur tarixi” (1678 y.) asarida: “... bu zot hatto Makedonskiy va Yuliy Sezardan ham ustunroq bo‘lgan. Chunki, Amir Temur ularning barcha afzal jihatlarni qabul qilgan holda, yo‘l qo‘ygan xatolarini chetlab o‘tgan. Oqibatda jahongirlik va zafar qozondi. Amir Temur ulardan o‘zib ketdi”, - deb ta’kidlagan.

Darhaqiqat, professor R. Mahmudov yuqoridagi fikrlarga asoslanib, Amir Temurni “Sohibqiron ajabtovur jangovar xususiyatlar, psixologik nazorat egasi bo‘lgan”[194], - deb o‘rinli ta’riflaydi.

Amir Temurning harbiy mahoratini Nizomiddin Shomiy

[193] Зиёев Ҳ. Буюк Амир Темур салтанати ва унинг тақдири. – Т.: Маънавият, 2008. – Б 8-9.
[194] Махмудов Р.М. Ҳарбий психология ва педагогика. Дарслик. -Т.: Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Ҳарбий-техник институти, 2019. – Б.17-18

shunday yozadi: “Amir Sohibqironning o‘zi bir ming besh yuz tajribali, jangovar otliqlar bilan Esan maydonidan to Kesh tevaragigacha borib, yarim kechada suvdan o‘tdilar va tog‘ ustiga chiqib, har joy har joyga o‘t qo‘ydilar. G‘anim qorovullari bularning xabarini yetkazdilar. Xavf va qo‘rqinch g‘alaba qilib, dushman qochishga yuz tutdi. Amir Sohibqiron ularning ketidan quvib yengdi. So‘ng Kujroti maydoniga yetib, Amir Sohibqiron yana ming kishiga mangloy bo‘lib Qahlag‘aga yetdi. Amir Sulaymon, amir Choku, amir bahrom, amir jaloliddin barlos, Hoji Sayfiddin va Yo‘l Temurga ikki yuz kishini berib, ulardan to‘rt qo‘shin tuzishni va har bir otliqqa ikkitadan daraxt shohini ikki yoniga osiltirib bog‘lati, yo‘lga tushishni buyurdi, toki dushman yo‘lning changu to‘zoni osmonga ko‘tarilganini ko‘rib, ko‘p lashkar kelayotgan ekan deb tasavvur qilsin. Ular bu buyruqni bajo keltirdilar. Kesh shahriga kirdilar”[195].

Amir Temur 1360 yilda o‘zining 60 ta jangchisi bilan Amudaryo ortiga ketishda Balx viloyatining hokimi Amir Husayn va uning ko‘p bo‘lmagan ayonlari bilan kelib qo‘shildi. Bu yerda Xorazm hokimi To‘kal Bahodir Amir Temurning juda kam sonli askari borligini bilib, hujum qildi. Murosasiz sodir bo‘lgan jang natijasida To‘kal Bahodirning 50 ta jangchisi va Amir Temurning 10 kishi – 7 ta otliq va 3 ta piyoda askari tirik qoldi.

Amir Temur o‘zining 12 kishilik askari bilan yo‘lda ketayotganlarida turkmanlar hujum qiladi, shu orada ulardan biri uni tanib qolib, jangni to‘xtatadi va unga qo‘shiladi. Bu vaqtda Sohibqironning jangchisi 60 kishiga yetdi. Yo‘l davomida payg‘ambar avlodlari (sayyid va sayyidzodalar) kelib qo‘shiladi va uning mulozimlari 200 kishiga yetdi. Sal o‘tmay, Buxoroga

[195] Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б. 41.

ketish arafasida Amir Temur hamrohlarining soni 2000 ga yetdi. Endi u Samarqandga borib, xalqni Ilyosxo‘ja zulmidan ozon qilishni rejalashtirish maqsadida kengash chaqiradi. Birok, qo‘shin soni juda kamligi tufayli keyinroqqa qoldiradi. Qandahor tomonda yana bir necha ming kishi Amir Temur tarkibiga qo‘shiladi. Bu orada Garmsir viloyati qo‘lga olinib, Seyiston viloyati hokimi bilan ijobiy aloqalar o‘rnatgan.

Amir Temurning nomi va shuhrati kundan-kun ortib borardi. Mohir sarkarda, din va davlat homiysi kabi nomlar bilan mashhur bo‘lib ulgurgan edi. Shuning uchun ham Balh viloyatidan ko‘plab oliy tabaqaga mansub harbiylar uning qo‘shiniga ixtiyoriy qo‘shildi.

Sohibqiron ular orasidan eng vafodor, jasur va qobiliyatli 313 kishini tanlab olib, ularni o‘ziga yordamchi qilib tayinladi. O‘z qo‘shinlarini borgan sari kuchaytirib borayotgan Amir Temur ularning modniy ta’minoti masalalari borasida ham jon kuydirdi. Shu maqsadda oziq-ovqat va boshqa narsalarni g‘amlab qo‘yish mumkin bo‘ladigan omborga ega bo‘lish uchun Amir Temur Aloju qal’asini qo‘lga kiritdi. Ilyosxo‘jadan qattiq norozi bo‘lgan ushbu qal’aning 300 kishidan iborat himoyachilari ham unga kelib qo‘shildi. Bu vaqtda Ilyosxo‘ja Termiz yaqinida jangga hozirlik ko‘rardi[196]. Ilyosxo‘ja qo‘shini o‘n barobar ko‘p bo‘lsa-da, mahalliy aholining undan noroziligi, boshqaruvni Amir Temur tomoniga o‘tishini hoxlagani qo‘l keldi. Harbiy san’atda egallangan beqiyos mahorati va botirligi unga janglarda derli hamisha g‘alabalar keltirishining asosiy sababi Amir Temurning xalqparvarligi, aholi moliga ko‘z tikmasligi, urush sodir bo‘lgan hududlarning jangchilaridan boshqa aholisiga tegmasligi, huzuriga uzr so‘rab kelganlarni kechirishi, o‘z so‘zida

[196] Иванин М. Икки буюк саркарда: Чингизхон ва Амир Темур. – Т.: Янги аср авлоди, 2018. – Б. 168-169.

turishi, barcha ishlarda adolatni ustun qo‘yishi kabi fazilatlari uning obro‘-e’tiborini kuchayishiga zamin yaratgan.

Amir Temur Katur[197] tomonga yurish vaqtida butun lashkariga shunday deydi: “Qachonki dushman hisoriga yetsangiz hisor atrofini qurshab, to bizning tomonimizdan sizlarga biror xabar yetguncha qo‘zg‘almay turinglar”[198], deb tayinlagan edi.

Sohibqironning harbiy sohada erishgan yutuqlarining asosiy sabablaridan biri yurishlar vaqtida ham maslahat bilan ish tutganligidir.

“Zafar topish va g‘alaba qozonish lashkarning ko‘pligida emas, balki Tangri hazratining qo‘llab-quvvatlashidadir. Mardona bo‘linglar, agar ozgina sustlik qilsak, ish qo‘ldan ketadi. Lashkarning barisi jonbozlik ko‘rsatib olg‘a qadam tashladilar va hamla qilib zo‘r jangga kirishdilar. Ular haqiqatda mardligu mardonalik ko‘rsatib, yevuz niyatli dushmandan o‘chlarni oldilar va nusratu zafar yorlig‘ida uning lashkarini qochirdilar. Tangri taolo aytgan: “Qancha-qancha kichkina guruhlar Allohning izni bilan katta guruhlar ustidan g‘alaba qilgan”[199].

Amir Temur harbiy mahoratining asosiylaridan biri, jang qilishga juda qulay joyni tanlashda adashmagan. Qolaversa, tinimsiz jangovar tayyorgarlik natijasida qo‘shinini har yerda turli usullarda jang qilishga katta e’tibor berganidadir. Bundan tashqari, qurol-aslaha bilan foydanish va to‘g‘ri qo‘llashni butun lashkariga o‘z vaqtida yetkaza olganidadir. Masalan, “Amir Sohibqiron hazrat qal’a ro‘barosidan qal’a orqasiga o‘tdi va manjaniq ham arroda otishga qulay joyga borib tushdi. Manjaniq

[197] Қобулнинг Шимолий шарқидаги тоғли вилоят
[198] Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б. 228.
[199] Ўша асар, 1996. – Б. 100.

va arrodalar adadini koʻpaytirishg, qaro bugʻro – katta toʻplani tartibga keltirishga ishorat qildi. Narvonlarni rostladilar va qal'aning tepa tomonida tosh va yogʻochlardan bir panogoh yasashga kirishdilar. Farmonga binoan uni shu qadar baland koʻtardilarki, (gurjilar) qal'asiga roʻbaroʻ turardi. Koʻp kishilarning gumoni shu ediki, bir necha kun ediki, bir necha kun bahona bilan turiladi, agar qoʻrqinch va xavfdan biror ish amalga oshsa, xoʻb-xoʻb, boʻlmasa (qal'ani) shunlay qoldirib ketishdan oʻzga chora boʻlmaydi. Qal'adagi gurjilar jamoasi esa amnu amonlikda forigʻ oʻtirishar hamda bu qal'aga qush uchib yetolmaydiku, biz manjaniq va arrodalardan nega choʻchiymiz, derdilar"[200].

Tarixiy manbalardan guvohlik berishicha, Kastiliya va Leon (hozirgi Ispaniya) qiroli Don Enriko III ning Sohibqiron huzuriga yoʻllagan elchisi Klavixoning yozishicha, qirol ularga Amir Temur va uning raqibi Boyazidning qudratini, boyligini, bir-biriga qarshi qancha askar tashlaganini oʻrganish va boʻlajak jangni kuzatishni topshirgan edi. Elchi, Amir Temur armiyasining a'lo darajadagi tuzilishini, uning jang usullarini, Hindiston yurishidan olib kelingan oʻrta asr "Tanklari" (jangchi fillar – M.A.) ning xususiyatlarini ta'riflagan. Zabt etilgan hududlarda tartib-intizomning ta'minlanishi, hayotning qayta izga tushirishdagi ulkan xizmatlarini hayrat bilan tilga oladi[201].

Amir Temur qoʻshinni tuzishda asosan oʻz zamonida mashhur boʻlgan oʻnlik, yuzlik, mingliklar tizimiga amal qiladi. Uning lashkarlarining eng quyi boʻgʻinini oʻnliklar tashkil etgan boʻlsa, eng yuqori boʻgʻini esa Amir ul-umaro rahbarlik qilgan sipoh edi. Uning eng tepasida yakka oʻzi cheksiz huquqqa ega

[200] Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б. 362-363.
[201] Хайдаров Б. Соҳибқироннинг ҳарбий маҳорати / Vatanparvar. 2018 йил 13 апрель. 15-сон.

bo‘lgan holda qo‘mondonlik qilardi. Eng muhimi shundaki, sipoh tashkil qilishda Amir Temur ularga o‘nboshi, yuzboshi, mingboshi amirlar tanlashda shunchaki tanish-bilish orqali emas, balki jang maydonida o‘zining mahoratini ko‘rsatgan tajribali shaxslarni tanlagan. Bu haqda Amir Temur shunday deydi: “Cherik tuzib navkar olmoqda uch qoidaga amal qildim: birinchidan – yigitning kuch-quvvatiga, ikkinchidan qilichni o‘ynata olishiga, uchinchidan aql zakovatiga-yu kamolatiga e’tibor qildim. Shu uch fazilat jamuljam bo‘lsa, navkarlik xizmatiga oldim...”[202].

Ana shu yo‘sinda tanlangan navkarlarga rahbarlar etib saylash qoidasini Amir Temur quyidagicha hikoya qiladi: “Amir qildimki, qachonki asl sipohlardan ish ko‘rgan, jang jadal bilan suyagi qotgan o‘n kishi yig‘ilsa, bulardan qaysi birining shijoat, botirligi, ortiqroq bo‘lsa, qolgan to‘qqiztasining roziligi va ma’qullashi bilan uni o‘zlariga boshchi saylab, otini o‘nboshi deb atasinlar”[203].

Amir Temur harbiy boshqaruv o‘z lashkarini tuzishda tabiiy qonunchilikka amal qiladi. U har bir jangchini tanlashda uning suyagi jangu jadallarda qotganiga e’tibor beradi. Yana eng muhimi shundaki, ularning boshlig‘i qilib, o‘zlarining oralarida hammalaridan ham botirligi, shijoati ortiqroq jangchini tanlab qolgan to‘qqiztasining roziligi asosida o‘nboshi qilib tayinlaydi. Bu yerda Amir Temur tomonidan lashkarni boshqarishda tabiiy tanlash va o‘z kasbini mutaxassisligiga asosiy e’tibor beriladi. Undan tashqari rahbar qo‘mondonlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yishda asosiy mezon qilib, jang maydonini, ya’ni amaliy hayotni hamda o‘ziga xos harbiy demokratik ya’ni boshqalarning

[202] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 98
[203] Ўша асар. – Б. 99

roziligi ma’qullashlariga asoslanadi. “O‘n nafar o‘n boshi jam bo‘lsa, o‘z ichlaridan eng ish ko‘rgan, jang maydonlarida toblanib, tajriba orttirgan, bahodirlikda nomi chiqqan birovini amir qilib, uni yuz boshi deb nomlasinlar”[204]. Ana shu tartibda mingboshi (Amiri hazora) va boshqa qo‘mondonlarni tayinlashni joriy qiladi.

Amir Temur qo‘shinni o‘nlik, yuzlik, minglik (hazora), o‘n minglik (tuman)larga bo‘lingan edi. Shu bilan birga, mo‘g‘ullarga xos ushbu boshqaruv yanada takomillashtirilib, yangiliklar kiritildi. Elliktadan mingtagacha bo‘lgan askarlar “qo‘shin”, undan ko‘proqlari “qo‘l” deb, qo‘shin boshliqlari “sardor”, “amir” deb ataldi. Amir Temur qo‘shinni yetti qismga ajratgan, o‘ng va chap qo‘lni zahira (rezerv) qo‘shin bilan ta’minlagan. Otliq qismlarda jang boshlanishi jarayonida suvoriylarni muhorabaga solish uchun maxsus suvoriy dovulchilar ajratilib, ularga ikkitadan dul nog‘ora dovullari berilgan.

Amir Temur jang paytida yoki jang maydonida o‘zini himoyalash uchun ham ba’zi bir tadbirlarni bajarishga ulgurgan. Masalan, urush paytida o‘rdugoh jang maydonida yoki dushmanga yaqin joyda joylashganda tezlik bilan uning atrofi mudofaa chiziqlari, ya’ni chuqur handaqlar (bular handaq, chorpar, kochimarza nomlari bilan atalgan – M.A.) va turli-tuman materiallar bilan to‘r shaklida o‘rab olingan. Jumladan, qo‘shinning izofa qismlari hamisha hushyor va jangovar ruhda turgan tajribali va dovyurak, dushmanni tahlikaga sola oladigan, g‘alabani ta’minlaydigan saralangan askarlar bo‘lib, Sohibqironning eng kuchli jangovar gvardiyasini tashkil qilardi.

[204] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 99.

Amir Temurning harbiy mahoratini jangovar faoliyatidagi aql bovar qilmas jasoratli janglaridan ham bilishimiz mumkin. Jumladan, 1366 yili Qarshida Temurbek bor-yo‘g‘i 243 kishi bilan 12 ming kishilik dushmanga qarshi jang qilgan va zafar qozonganidan ko‘rishimiz mumkin.

Shuningdek, 1368 yilda Badaxshonda qo‘li baland kelgan dushman Sohibqiron askarlarining ko‘pini qirib tashladi va 130 kishini asir oldi. Yonida 13 nafar navkar qolgan Amir Temur Dobon tog‘i tepasiga chiqib, dushman yo‘lini to‘sgani va g‘alaba qozonganini ham misol qilsak bo‘ladi.

Amir Temurning o‘rnatgan qonun-qoidasiga binoan lashkarlar orasida biror-bir kimsa vafot etsa yoki qochib ketsa, uning o‘rniga yangi kishini tayinlash quyidagi tartibda o‘tkazilgan: oddiy jangchi o‘nboshi, o‘nboshi yuzboshi, yuzboshi esa mingboshi bo‘lishiga huquq beriladi. Barcha o‘zgarishlar va yangi tayinlanganlar haqida va uning sabablarini shaxsan o‘zi xabardor qilishlarini talab qilgan. Bundan tashqari, Amir Temur jang maydonlarida hamda saltanat ishlarini boshqarishda mingboshining hukmi yuzboshiga, yuzboshining hukmi o‘nboshiga va o‘nboshining hukmi bajarilishini qo‘l ostidagi jangchilarga qatiy qilib belgilab qo‘yadi. Agarda kimda-kim bu qoidani buzsa, u qonuniy jazoga tortilib, o‘z lavozimidan bo‘shatilgan va o‘rniga boshqa tayinlanadi.

Qo‘shin tuzishda yuqoridagi tamoyillarga, qoidalarga qat’iy amal qilish natijasida Amir Temur o‘rta asrlarda misli ko‘rilmagan jangovarliklarni qo‘lga kiritgan va eng og‘ir shiddatli janglarda ham doimo zafar qozongan. Bu esa intizomli, malakali sipoh tuzilishiga asosiy sabab bo‘ldi.

Amir Temur qo‘shin tarkibini tuzib, tartib bilan o‘rinlarini hamda vazifalarini belgilagan edi. Jumladan, o‘sha davrning

mashhur tarixnavisi Sharafiddin Ali Yazdiy o‘zining “Zafarnoma” asarida yozishicha, “Qo‘shin turida piyoda askarlar va otliq suvoriylar bilan birgalikda maxsus qurollarni ishga soladigan guruhlar ham bo‘lgan. Masalan, **randandoz, naftandoz** – yondiruvchi o‘totar qurollar; **sangandoz** – tosh otadigan qurollar; **manjaniq** – qal’a devorlarini buzuvchi qurollar va o‘ziotar qurollar bilan qurollangan jangchilar guruhi ham mavjud bo‘lgan[205].

Amir Temur ishlab chiqqan eng samarali taktik usullardan biri – qo‘shin qanotlarini dushman hujumidan himoya qiluvchi suvoriy harbiy qism – qumbul (qanbul)lardan foydlanish bo‘lgan. Oltin O‘rda ko‘chmanchilari Amir Temur bilan janglarda uning qumbulariga jiddiy zarar yetkaza olmagan. Oqibatda, Amir Temur Oltin O‘rdaga hal qiluvchi zarbani berib, shu bilan Rusning mo‘g‘ul-tatar tutqunidan qutilishiga bilvosita ta’sir qilgan[206].

Amir Temur harbiylarning umumiy kayfiyati, holati to‘g‘risida: “Ularning hammasini umid va qo‘rqinch orasida saqladim...”[207] deb yozadi. Oddiy jangchilarni esa yaxshi so‘z, kiyim-kechak, oziq-ovqatni serob qilib, ularning ham ko‘ngillarini oladi. Qo‘rquv ostida to‘zib ketayotgan lashkarlarni ko‘rilgan tadbir va choralar natijasida yana o‘z atrofida birlashtiradi va ularning jangovorlik ruhlarini qayta tiklaydi. Amir Temur lashkarlaridan ko‘ngli xotirjam bo‘lganidan keyin, u dushman bilan yana jang qilish tadbirlarini tuza boshlaydi. Bu bilan Amir Temur birinchi navbatda o‘z tarafdorlarining, amiru, jangchilarining holu ahvolidan xabardor bo‘lgan. Ularning istak va talablarini o‘z vaqtida, ayniqsa, jang oldidan to‘la qondirgan.

[205] Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. – Т.: Шарқ, 1997. – Б. 43.
[206] Ҳайдаров Б. Соҳибқироннинг ҳарбий маҳорати. Vatanparvar. 2018 йил 13 апрель. 15-сон.
[207] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б.137.

Shuning uchun ham, uning amir, jangchilari unga sodiq bo‘lgan va zafar ustiga zafar qozongan. Hatto, dushman lageridan qochgan lashkarlar, amirlar Amir Temur xizmatiga birin-ketin kela boshlaydilar. Uning dovrug‘i Movarounnahr va Xurosonda tez tarqaladi.

Fransuz olimi L.Keren shunday yozadi: “Qo‘shinning holatiga kelganda esa Sohibqiron lashkarlari juda og‘ir sharoitlarda ham zafar quchganini eslatdi. G‘alaba na qo‘shinning soniga va na uning qurol-yarog‘iga bog‘liq. Zafar Xudo yorlaqagan bandalariga ato etadigan inoyatdir. Sizning hukmdoringiz ham Alloh suygan bandalardan biri ekanligidadir”[208].

Amir Temur hayoti va faoliyati borasidagi ma’lumotlar, asosan 1360 yillardagi harakatlaridan boshlanadi. “Amir Temur davlati qurilishi harbiy san’ati ko‘p asrlar davomida Sharqu G‘arb davlatlariga o‘rnak va andoza bo‘ladi. Insof-imon tuyg‘usi, diyonat mezoni Amir Temur hayotining mazmunini tashkil etadi. Olamning qariyb yarmiga ega jahongir ersa-da, u kuch-qudrat zo‘ravonlikda emas, aksincha, adolatda ekanini teran angladi”[209].

Amir Temurning jangovar yurishlari uning naqadar kuchli bilim egasi ekanligidan dalolat beradi. Sarkarda lashkarga ruhiy quvvat bag‘ishlovchi juda ko‘p usullar va vositalardan foydalanganini, masalan: “Agar yov bostirib kelib, chopovul, ishqovul, barong‘or va jovong‘or qismlarini mahv etib, lashkarning qo‘l qismiga etib kelar ekan, u chog‘da sulton shijoat oyog‘ini sabr uzangisiga mahkam tirab dushmanni daf etib

[208] Керен Л. Амир Темур салтанати. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 111.
[209] Алимов Ў. Хайбатли қўмондон Темур // Vatanparvar. 2017 йил. 24 ноябрь. (Ушбу муаммо бўйича Темур тузукларини ўқинг. Т. Ўзбекистон. 2014 йил – 181 бет.

yo‘qotish uchun oldinga tashlansin”[210], - degan harbiy taktikani doimo lashkarlariga uqtirib kelganini, bu esa ularga ruhiy madad bo‘lganini alohida ta’kidlash lozim.

“Temur tuzuklari”da bu haqida shunday deyiladi: “Chunonchi men Shoh mansur bilan bo‘lgan jangda shunday qildim. U turgan yerga yetib oldim va u bilan yuzma-yuz to‘qnashdim, toki uni halokat tuprog‘iga qormagunimgacha urishdim”[211].

Amir Temur urush va tinchlik paytlarida lashkarni qo‘riqlash, ehtiyot qilish masalalarini hech qachon esdan chiqarmagan. U shunday tartib o‘rnatadiki, lashkarni va o‘rdaning to‘rt tomonida tegishli farsang masofada qorovullik qilish tartibi quyidagicha belgilanadi.

Birinchidan, amir, mingboshi, yuzboshi va o‘nboshi sipohiylar devonxonaga, bazm-majlislarga quloqsiz (bosh kiyimsiz), hanjar va qilichsiz hozir bo‘lmaganlar. **Ikkinchidan,** o‘n ikki ming askar urushu-tinchlik vaqtida qurollangan holda devonxonaning to‘rt tarafidan qurshab turganlar. Ulardan har kecha navbatma-navbat ming kishi soqchilikka ajratiladi. Har yuz soqchiga bir yuzboshi tayinlanib, shartlashilgan mahfiy so‘z[212] aytiladi. Soqchilarni tayinlashidan ko‘rinib turibdiki, Amir Temur O‘rdani va lashkarni nihoyatda dushmandan ehtiyot qilgan. U ayniqsa, urush paytida lashkarlarining atrofini qo‘riqlashga alohida e’tibor berib, butun bir jangovar tartibni ishlab chiqadi va uni joriy qiladi.

Urush paytida o‘n ikki amirdan har biri, mingboshilar, yuzboshilar, o‘nboshilar o‘n ikki ming qurollangan otliq sipohi

[210] Холиқова Д. Соҳибқирон ҳарбий санъатининг психологик жиҳатлари // Vatanparvar, 2018 йил 16 апрель.
[211] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б.134.
[212] Матнда “Йўқий” – яъни ўран (пароль) дейилмоқчи.

bilan bir kecha-kunduz davomida har qaysilari o‘z xonalarini qo‘riqlash uchun hozir bo‘lganlar. Bu o‘n ikki ming otliq lashkarni to‘rt favjga bo‘lib, bir favjini barong‘orga, boshqasini javong‘orga, bittasini O‘rdaning oldiga, boshqasini esa uning orqa tarafiga tayin qiladi. Qo‘yilgan soqchilarga hushyorlik bilan barcha voqeiyliklardan O‘rdani xabardor qilib turish tayinlanadi. “Yana hukm qildim, - deb yozadi Amir Temur, - atrofimda joylashgan lashkar va o‘rduga, har birida (alohida) bittadan qutvol[213] tayinlasinlar va o‘rduni qo‘riqlash, soqchilik qilish ishlari shular ustiga yuklansin... Agarda o‘rdu ahlidan biror kimsaning narsasi o‘g‘irlansa, ular javobgarlikka tortilsinlar”[214].

Bundan tashqari, Amir Temur qo‘shin orasidan to‘rt favj chopqunchilar tayinlashni buyuradi. Ular to‘rt farsang masofada lashkar yonida yurib, qo‘riqlab boradilar. Lashkarning uchdan bir qismi sarhadlarni qo‘riqlash ishiga tayinlangan, uchdan ikki qismi esa doimo saltanat xizmatiga hozir bo‘lib turgan.

Amir Temur sipohning tuzilishi, uning qurol-yarog‘i, qo‘riqlanishi, maoshlari bilan bir vaqtda navkarlarning o‘z beklariga va aksincha, beklarning o‘z navkarlariga bo‘lgan munosabat masalalarining huquqiy va axloqiy jihatlarini ham tartibga soladi. Amir Temur navkarlaridan to‘g‘ri, adolatli bo‘lishlarini talab qiladi[215]. Navkarlar o‘zlarini doimo beklarning xizmatchilari deb bilganlar.

Amir Temur qo‘shinni Chingizxon kabi o‘nlik, yuzlik, minglik va o‘n mingliklarga (tumanlarga) bo‘lib boshqargan. Boshqaruvni osonlashtirish, tezkor harakatni ta’minlashni talab etgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, Sohibqironning tartibsiz sochilgan

[213] Қутвол - қалъа бошлиғи, комендант.
[214] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 122.
[215] Олимов А. Амир Темур салтанатида қўшин тузилиши. Амир Темур сабоқлари материаллари. – Т.: Шарқ, 2001. – Б. 31.

minglab qo‘shinlari bir zumda qat’iy tartibda saflanishi mumkin edi. Ko‘pincha “bu tartibsiz qo‘shinning saflanishiga katta vaqt kerak” degan ishonch dushmanlarni dog‘da qoldirgan[216].

Dunyoning rivojlangan davlatlari siyosatchilari va harbiylari Amir Temur saltanatining harbiy tizimini chuqur o‘rganishga intildilar[217]. Bu ehtiyoj va zaruriyat bo‘lib, ular ham hududlarda, xazinada barqarorlikni saqlash va lashkarni tashkil etish kabi ko‘plab muammolarni hal qilish ishida uning tajribasidan foydalandi. Shu davrgacha dunyoning eng taraqqiy etgan Yevropa mamlakatlarida va boshqa davlatlarning o‘quv yurtlarida Amir Temurning harbiy san’ati chuqur o‘rganib kelinmoqda. Sohibqiron harbiy kuchga tayanib, mintaqalardagi tartibsizliklarning oldini olish, adolat, tinchlik va barqarorlikni o‘rnatish, mazlumlarni zolimlardan himoya etish, umuminsoniy g‘oyalarni keng yoyish, qonun ustuvorligiga erishish, islomiy qadriyatlarni tiklash kabi ishlarni amalga oshirdi. “Tuzuklar”da: “Biron mamlakatda jabr-zulm va fisqu fasod kuchayib ketarkan, asl podshohlar adolat o‘rnatish, fisq-fasodni, zulmni yo‘qotish niyatida ana shunday mamlakatga hujum boshlashi lozim”[218], - deyilishi bejizga emas.

SH.O‘ljayevaning yozishicha, “Sohibqiron mukammal harbiy-siyosiy tizimni yaratdi va bu tizim keyinchalik yirik davlatlar boshliqlari, sarkardalarga muhim dastur vazifasini o‘tadi. U lashkariy qismlarni Chingizxon davridagidan ham mukammalroq qaytadan tashkil etib, kuragi yerga tegmagan harbiy sarkarda, bugungi kungacha o‘tgan qo‘mondonlarning eng

---

[216] Ахмедова М.Т. Амир Темур давлатида хавфсизликни таъминлашнинг ҳуқуқий асослари. Юрид.фан.доктори....дисс. – Т.: ЖХУ, 2020. – Б.141.

[217] Иванин М. Икки буюк саркарда. Чингизхон ва Амир Темур. – Т.: Хазина, 1994. Росляков А.А. Военное искусство Средней Азии и Казахстана в VI-XV вв. // Ученые записки. – Ашхабад: ТуркМГУ, 1962. Вып.21; Дадабоев Ҳ. Амир Темурнинг ҳарбий маҳорати. – Т.: Ёзувчи, 1996. – Б. 96.

[218] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 115.

buyuklaridan biri sifatida dovrug‘ qozondi. Aynan mana shu harbiy san’ati orqali mamlakatda kuchli mudofaa tizimi yaratildi. Amir Temur harbiy ilmu salohiyati orqali davlatda tinchlik va barqarorlikni ta’minlash bilan birga dunyo geosiyosiy maydonida yetakchi mavqeini egalladi”[219].

Sobiq ittifoq davrida Amir Temurni “bosqinchi”, “zo‘ravon” deb atashlariga qaramay, ba’zi tadqiqotchilar uning harbiy faoliyatiga ancha haqqoniy baho berishgan.

Jumladan, A.Y.Yakubovskiy: “Harbiy tarix Amir Temurni o‘rta asr Osiyosidagi eng buyuk lashkarboshilardan deb hisoblaydi. Uning harbiy mahorati ikki yo‘nalishda: harbiy qismlarni qayta tashkil etishda, lashkarboshilik, qo‘mondonlikda namoyon bo‘ldi”[220], - deb yozgandi.

Amir Temurning qo‘shinini parokandalikdan saqlay bilishi, ularning harakatlarini bir maqsadga yo‘naltira olgani, doimo janglarda g‘olib kelishi uning mukammal harbiy siyosat olib borganligida namoyon bo‘ladi.

Fransuz olimi L.Keren: “Uning qo‘shini beqiyos qo‘shin edi, unda mo‘g‘ul eroniy bilan, sobiq shaharlik ko‘chmanchi turk bilan, musulmon otashparast va nasroniy butparast bilan, begona tillarda so‘zlashadigan va ulug‘ amir irodasining sehri bilan yelkama-yelka jang qiladigan askarlardan iborat qo‘shin edi. Amir Temur qo‘shini har bir favjning alohida rangli o‘z tug‘i bo‘lib, bu favj askarlariyu otlari ham shu rangdagi sovut, zirh, qalqon, egar, yopinchiq, belbog‘, o‘qdon, xalta va nayzalar bilan ta’minlangan edi. Shu alfozda oq, yashil, binafsha yoxud qizil rangli favjlar mavjud edi”[221], - deb yozadi. Har bir harbiy

[219] Ўлжаева Ш. Амир Темур давлат бошқаруви. Ташқи сиёсат. Дипломатия. – Т.: Академнашр, 2017. – Б. 133-134.
[220] История Узбекской ССР. – Т.: Фан, 1967. Т.1. – С.453.
[221] Керен Л. Амир Темур салтанати. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 116-117.

mansabdorga bir-biridan farqlanib turadigan harbiy anjomlar berilgan. “Katta nog‘ora va bayroq ado etish tuzugi”da sipohiylarga darajasiga qarab qanday belgili mukofotlar berilganligi haqida ma’lumotlar mavjud.

H.Dadaboyevning fikrlari ham buni isbotlaydi: “Sohibqiron armiyasida muntazam qo‘shinga xos bo‘lgan ko‘pgina belgilar mavjud edi. Qo‘shin son jihatdan aniq va puxta tashkil etilgan, uning jangovar tartibi – yasol takomil darajasiga ko‘tarilgan, qo‘shin o‘z zamonining ilg‘or qurol-yarog‘i, texnikasi bilan qurollangan, har bir qism, bo‘linma aynan bir turdagi qurol-yarog‘, aslaha-anjom bilan ta’min etilgan, bo‘linmalar, qismlar bir-biridan kiyim-boshi, ko‘targan bayrog‘i, hatto mingan otining tusi orqali ham farqlangan”[222].

Demak, Amir Temur qo‘shin qismlarining bayrog‘i, qurol-yarog‘i va ranglarining turli-tumanligiga sabab, qo‘shinlar piyoda, nayzaboz, qilichboz, otliq kabi bir necha turlarga bo‘lingan. Amir Temur jang maydonida ularni boshqarish uchun ham rang, bayrog‘i va boshqa qurol-aslahalariga alohida belgi qo‘ygan bo‘lishi mumkin. Demak, Amir Temur harbiy bo‘linmalar va ularning bir-biridan farqini saqlovchi harbiy qoidalarni ishlab chiqqan.

Harbiy sarkarda M.Ivanin: “Hali bironta ham xalq qo‘shinini to‘g‘ri saflashni bilmay, tartibsiz va taktik harakatlarsiz, faqat o‘zidagi jasorat darajasi bilan uzuq-yuluq jang qilayotgan bir paytda Amir Temurning to‘g‘ri saflangan, bir necha yo‘nalishdan iborat muntazam tartib bilan jangga kiruvchi,

[222] Дадабоев Ҳ. Амир Темурнинг ҳарбий маҳорати // Амир Темур ва унинг жаҳон тарихидаги ўрни: Халқаро конференция материаллари. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б. 28-29.

kuchli zahiraga ega bo‘lgan kuchli armiyasi bor edi”[223], - deb uning harbiy qo‘shin tuzish mahoratiga katta baho bergan.

“Temur tuzuklari”da qo‘shinlar orasida tartib-intizom masalalariga bag‘ishlangan quyidagicha tuzuklarni ko‘ramiz: “O‘g‘illar, nabiralar, qavm-qarindoshlar, amirlar va vazirlarni jazolash yo‘li bilan saltanatda intizomni saqlash”, “Askarni eng quyi martabadan oliy martabagacha tarbiyalab ko‘tarish tuzuki”, “Jangu jadal, urush maydoniga kirish va chiqish, qo‘shinni saflash, g‘anim lashkarini sindirish tuzuki”laridir.

Amir Temurning qo‘shinlarda tartib-intizom masalalari o‘sha davr noyob yozma manbalari G‘iyosiddin Alining “Temurning Hindistonga yurishi”, Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”, Muiniddin Natanziyning “Muntaxab ut-tavorixi muiniy”, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” hamda “Temur tuzuklari”[224]da batafsil yoritilgan edi. Ushbu manbalar orasida “Temur tuzuklari” harbiy xizmatchilar uchun bebaho qo‘llanma hisoblanadi. Sohibqiron o‘z hayot faoliyati davomi va saltanatni boshqarishda doimo o‘zining “Kuch adolatda” degan shioriga amal qilgan holda ish yuritgan. Sohibqironning Oqsaroy peshtoqiga “Adolat – davlatning asosi va hukmdorlar shioridir”, degan so‘zlari hech qachon qimmatini yo‘qotmasligi ham mana shundadir. Amir Temur farzandlari, nabiralari, qo‘shinlaridagi tartib-intizomga ham katta e’tibor qaratgani ma’lum. Hech bir vaqt qo‘shindagi tartib-intizomga ikkinchi darajali ish deb qaramagan. O‘z xavfsizligiga e’tibor bermay, mayga ruju qo‘ygan Pirmuhammad o‘z amiri Ali Toz tomonidan o‘ldiriladi[225].

---

[223] Иванин М. Икки буюк саркарда: Чингизхон ва Амир Темур ҳарбий санъати, стратегия ва тактикаси. – Т.: Янги аср авлоди, 2018. – Б. 240.
[224] Темур тузуклари. -Т:“Ўзбекистон”, 2012, 84 -бет
[225] Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи Саъдайн ва Мажмаи баҳрайн. – Т.: Ўзбекистон, 2008. – Б. 105-108.

Yozma manbalar, xususan “Temur tuzuklari”dagi ma’lumotlarga qaraganda, Amir Temurning dunyoqarashida davlatga, harbiy ishlarga bo‘lgan qiziqish juda erta uyg‘onadi. U bu haqda shunday deb yozgan: “Men o‘n yoshimda o‘zimda favqulodda hukmronlik va ulug‘lik alomatlarini his qildim. O‘z oldimga keluvchi har bir kishini sezilarli darajada g‘urur va layoqat bilan qabul qildim. O‘n sakkiz yoshimda o‘zimning suvoriylik va ovchilik hunarim haqida ko‘p o‘yladim. Umrimni Qur’on o‘qish, shatranj o‘ynash va ot minish mashqlariga sarf etdim”. Demak, yosh Temurbek o‘z vaqtini ko‘proq suvoriylik ishlarini yaxshi o‘rganishga sarf qiladi. Ana shu vaqtdan boshlab, Temurbek harbiy mashg‘ulotlarning sirlarini egallab, kelajakda hukmdor bo‘lishi uchun tayyorgarlikni boshlab yuborgan deb gumon qilish mumkin.

“Tartib-intizom mexanizmini yo‘lga qo‘yishda jang ko‘rgan, tajribali sardor ulkim, u urushning barcha jumboqlaridan xabardor, qaysi sipoh favjini jangga tashlab, qaysi chigalni qanday chora-tadbirlar bilan tugatish va qaysi usulda jang qilish kerakligini bilish lozim”[226]ligini aytadi, Amir Temur. Tartib-intizom orqali haqiqiy sardor kim ekanligini aniqlagan, masalan: “G‘anim lashkarining raftorini kuzatib boradi va amirlardan qay biri buyruqsiz yurish boshlab, boshqalardan ilgarilab ketsa, unga tanbehini beradi”[227].

Amir Temur tartib-intizom mexanizmlarini yo‘lga qo‘yib bo‘lganidan so‘ng, uning nazoratini bir daqiqa ham bo‘shashtirmadi. Ayniqsa, sipohiylar bilan qanday muomala qilish to‘g‘risida ko‘p o‘ylaganligini, qaysi birini qanday tarbiya qilish kerakligini, qaysi biriga ishni topshirsam, xato qilmagan

[226] Ўша асар. – Б. 153.
[227] Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи Саъдайн ва Мажмаи баҳрайн. – Т.: Ўзбекистон, 2008. – Б. 153.

bo‘laman, deb har ishning oldi-ketini o‘ylagan. Tartib-intizom adolatga asoslangan, zulmni qattiq qoralagan. “Mamlakat kufr bilan turishi mumkin, lekin zulm bor yerda turolmaydi”[228], - deb ta’kidlangan.

Amir Temur qo‘shinlar orasida tartib-intizomni yo‘lga qo‘yishda, qo‘shinni ilhomlantirishda katta nog‘ora va bayroq muhim rol o‘ynagan. “Amr qildim-ki, o‘n ikki katta amirning har biriga bitta bayroq va bir nog‘ora berilsin. Amir ul-umaroga bayroq va nog‘ora, tuman tug‘i[229] va chortu[230] taqdim etgan. Yuzboshi va o‘nboshiga esa bittadan katta nog‘ora bergan. Aymoqlar[231]ning har bir amirlariga bo‘lsa, bittadan burg‘u berilgan.

Tartib-intizomning boshida qonun-qoidaga muvofiq turishi bilan birga, muomala ham muhim rol o‘ynagan, ayniqsa navkarning begiga va bekning navkariga muomala qilishi. Har bir navkarni o‘zining begiga kuchli e’tiqodli qilib tarbiyalashga asosiy e’tibor qaratilgan. Masalan, “navkar o‘z begiga ixlos qo‘yib, xolis xizmat qilishi kerak. Qaysi navkar begiga ixlos qo‘ymay, ko‘nglida gina-qudrat saqlasa, ihlossizlik va adovat tufayli baxtsizlikka duchor bo‘ladi”[232].

Amir Temurning diqqatga sazovor ishlaridan yana biri bu qo‘shinlari (lashkarlari) orasida ittifoqni yo‘lga qo‘yish, ularning hammasini umid va qo‘rqinch orasida saqlashi, har biriga bittadan noib va qutvol tayinlashi, bir xizmatini o‘n barobar qilib

---

[228] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 136

[229] Туман туғи – ўрта асрларда учига қўтос, от ёли думи, ярим ой ёки керилган беш панжа тасвири ўрнатилган лашкарнинг байроқсимон нишон белгиси, ушбу асарда туғ атрофида тўпланган ҳарбий бўлинма маъносида ҳам келтирилган.

[230] Чортуғ – ҳарбий бўлинма амирининг даражасини билдирувчи учи ўткир найза: байроқнинг бир тури

[231] Аймоқлар – бир неча қариндош-уруғлар иттифоқи: қабила

[232] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 127.

taqdirlab, dillarini xushnud qilishi. Har ishda birlik va ittifoqlikni mahkam tutishga ahd qildirishi bo‘lgan edi[233].

Amir Temur Movarounnahr zaminida mo‘g‘ul zulmiga barham berib, xalqimizni qaramlik iskanjasidan ozod etishda, tarqoq va parokanda el-ulusini birlashtirib, mustaqil va qudratli saltanatga asos solgan ulug‘ siymo bo‘lib, ushbu harakatlarning zamirida qonun – adolat ustuvorligi va qo‘shinlar orasidagi tartib-intizomning mustahkamligi asos bo‘lgan. Qo‘shinlar orasidagi ittifoqlik Amir Temur qo‘shinlarining mustahkamligini ta’minlagan bo‘lib, davlatning mustahkamligiga xizmat qilgan.

Ushbu o‘rinda, Amir Temur tuzuklarini o‘qib shunday satrlarga duch kelamiz, ya’ni “Sipohiylar ko‘zi g‘anim lashkariga tushishi hamono, baland ovoz bilan “Allohu Akbar![234] deb taqbir aytsinlar va suron solib, dushman cheriki ustiga bostirib borsinlar”. “Sipoh lashkarbo-shisining vazifasi, jang vaqtida qo‘rquvdan qo‘l-oyog‘i bo‘shashib, sarosimaga tushmasdan, buyruq berishdan iboratdir”[235].

Demak, jangga kirishdan oldin “Allohu Akbar!” deb biri-biriga sipohiylar baland ovozda dalda berishgan. Urushning o‘zi “qo‘rqinch”, qo‘rqinch albatta ruhiy tushkunlikka olib keladi. Harbiy sarkardalar nutqi orqali nafaqat qo‘shinni boshqara olishi kerak, shuningdek qo‘shinni jangga tayyorlash, ular orasida yuzaga keladigan sarosimalarni, mish-mish gaplar tarqalishini oldini ola bilish san’atiga ham ega bo‘lishi kerak. Masalan: Amir Temur Qora Yusuf o‘ldirildi[236], - deb lashkarlariga dalda beradi va ularning ruhi ko‘tarilib dushman ustidan g‘alaba qozonadi.

---

[233] Махмудов Р.М. Ҳарбий психология ва педагогика. Дарслик. – Т.: Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Ҳарбий-техник институти, 2019. – Б. 148.
[234] Темур тузуклари. –Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 147.
[235] Ўша асар – Б. 149.
[236] Қора Юсуф Туркман -1380-1468 йилларда Ирок ва Озарбайжон устидан хукм юритган Қора қуюнлилар сулоласидан чиққан ҳукмдор.

Askarlarga Qora Yusufni boshi deb bir boshni olib kelib ko‘rsatadi aslida, bosh boshqa bir oddiy sipohiyning boshi bo‘ladi. Demak, sarkardalar urush vaqtida mana bunday harbiy hiylalardan ham foydalanishgan ekan. Sarkardalarning barchasida ham notiqlik san’ati mavjud deb ayta olmaymiz, chunki ba’zilarida tug‘ma bo‘lishi, ba’zilarida shakllanishi, ba’zilarida umuman o‘rnak darajada bo‘lmasligi mumkin[237].

Muhammad Alining yozishicha: “Turk sultoni Boyazid qo‘shinlari askarlari Yevropa mamlakatlari sharoiti ya’ni, o‘rmonlar mavjud joylarda, panalarda jang qilish bo‘yicha katta tajribaga ega bo‘lgan. Amir Temur Boyazid qo‘shining yalanglikda jang qilishi qiyinligini aniqlagach, bo‘lajak jangga o‘zi uchun strategik qulay joyga askarlarini joylashtirib, Boyazid qo‘shinini kelishini kutadi. Birinchidan, oradan 3 kun yo‘l yurib, dushman qo‘shini holdan toyib keladi. Ikkinchidan, o‘rmonlarda daraxtlar panalarida jang qilishga o‘rgangan qo‘shin ochiqlikda jang qilishga majbur qilgani Amir Temurning navbatdagi harbiy taktikasi edi”[238].

“Temur tuzuklari”da yozilganidek, “amir ul-umaro urush maydonini tanlashda (quyidagi) to‘rt narsani nazarda tutsin.

Birinchisi – u yerning suvga uzoq-yaqinligi.

Ikkinchisi – askar saqlaydigan yerning xavfsizligi.

Uchinchisi – g‘anim lashkari turgan yerdan teparoqqa joylashishi va oftobga ro‘baro‘ bo‘lmasligi, toki quyosh shu’lasi sipohiylar ko‘zini qamashtirmasin.

[237] Махмудов Р.М. Ҳарбий психология ва педагогика. Дарслик. -Т.: Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Ҳарбий-техник институти, 2019. – Б.170.
[238] Муҳаммад Али. Улуғ салтанат. 4-китоб. Шоҳруҳ Мирзо. – Т.: Шарқ, 2014. – Б. 78.

To‘rtinchisi – urush maydoni oldi ochiq, keng joy bo‘lishi lozim”[239], - deb ta’kidlash orqali jang maydonini to‘g‘ri tanlash g‘alabaga olib boruvchi eng muhim sharti hisoblangan.

Amir Temur urushdan bir kun oldin lashkarlarni ko‘rikdan o‘tkazish uchun ularni safga tizilishi va tuzukka muvofiq uni favjlarga ajratib, dushman tomonga qarab yurgizishi hamda lashkar otlarining boshi ko‘zlangan yo‘nalishga qaratilishi va yurar yo‘ldan chap yoki o‘ng yoqqa burilmasligini uqtiradi. Lashkar nazoratchisi sardorning jang vaqtida xato qilganini ko‘rsa, darhol uning o‘rniga boshqa sardorni o‘tkazishi hamda amirlarga va sipohlarga esa men unga ishonch bildirib bergan zafarnishon yorliqni ko‘rsatishini ham aytib o‘tgan.

Shundan keyingina Amir Temur, “Sardor lashkar nazoratchisi bilan dushman sipohining oz-ko‘pligini mulohaza etsinlar, sarkardalarni g‘anim lashkarboshilari bilan solishtirsinlar. Shunga qarab, o‘z sipohlarining kamu ko‘stlarini to‘g‘rilab, jangga hozirlasinlar. Yana o‘z sipohining qurol-aslahalarini dushmanniki bilan taqqoslasinlar”[240], - deb ta’kidlaydi.

Haqiqatdan ham, Sohibqiron harbiy sohada qo‘shinni tashkillashtirish, moddiy ta’minot, jang usullari kabi jihatlarga e’tibor berib, yaxlit va mukammal harbiy tizimni yaratdi. Bu tizim orqali u o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarini amalga oshirdi.

Temuriylar davrida, ayniqsa, Shohruh mirzo, Mirzo Ulug‘bek, amirzoda Umar Sulton, Husayn Mirzo davrida ham davlat himoyasi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan, biroq temuriylar o‘rtasidagi toju taxt uchun kurashlar mazkur himoyaning, davlat

[239] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 147.
[240] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 149.

va saltanatning zaiflashuviga olib kelgan. Bu esa shayboniylarning Movarounnahrga yurishlariga zamin yaratgan.

Xulosa qilib aytganda, **birinchidan,** Amir Temur qayerga yurish qilmasin va qanday ishni boshlamasin, u doimo atrofidagi amir, ulamolar bilgan kengashib, tegishli tadbirlar asosida harakat qilgan;

ikkinchidan, o‘zining raqiblarini juda ustalik bilan tobe qilgan va har qanday vaziyatda ham adolatni birinchi o‘rinda tutdi;

uchinchidan, kechirimlilik siyosatiga to‘liq amal qilgan o‘z qilmishidan chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan harbiylarga yana bir imkon bergan. Amir Temur har qanday og‘ir sharoitlarda ham zafar qozonganining sababi biror ishga hech qachon arzimas deb qaramagan. Loqaydlik, beparvolik va mensimaslik, adolatsizlik, o‘zini o‘ylash kabilar Sohibqironga mutlaqo yot bo‘lgan. Hamma ishni aql-idrok va mustahkam irodasiga tayangan holda olib borgan.

3.3. Amirlik institutining takomillashuvi va harbiy darajalar

Amir Temur davrida amirlik instituti va harbiylarning darajalarini yoritishda “Temur tuzuklari”, G‘iyosiddin Ali, Nizomiddin Shomiy, Muiniddin Natanziy, Sharafiddin Ali Yazdiy va boshqa qator manbalarga tayanildi. Umuman olganda, Amir Temurning turli podshohlar bilan olib borgan urushlari, jang taktika va strategiyalari, qo‘shinida matonat ko‘rsatgan, Amir Temurning g‘alabalarini ta’minlab bergan nufuzli sarkarda va bahodirlarning tarixini o‘rganish bugungi kunda dolzarb masaladir.

Amirlar tarbiyati va ularning vazifalari haqida Husayn Voiz Koshifiy yozadi: “Amirlar o‘z faoliyatida o‘n ikkita qoidaga

rioya qilishlari kerakki, **avvalo** o‘z xizmatini vijdonan xohlab qilishi; **ikkinchisi,** ne’mat haqini saqlash bo‘lib, valine’mat haqini befarq qoldirmaslik; **uchinchisi,** podshohning moliga tama ko‘zi bilan qaramasliklari kerakki, **to‘rtinchisi,** amirning barcha mol va amaldan asl maqsadi o‘z nafsining oromi uchun emas, podshohning ziynati va dargohining orosi uchun bo‘lishi kerak; beshinchisi, podshoh biror narsada ajralib turuvchi va tanho bo‘lsa, amir o‘sha narsadan o‘zini o‘xshatishni tiyishi lozim; **oltinchisi,** har ish sultondan yuz bergan bo‘lsa va bu shariatga xilof bo‘lmasa, unga madh so‘zlarini aytishi kerak va bu ishni yaxshi ekanini maqtash lozim; **yettinchisi,** sulton bir fikr aytsa, bu so‘z uning tabiatiga xush kelmasa ham, baribir u bilan hamfikr bo‘lmoq va o‘zini past tutmoq kerak. Keyinroq, odob bilan o‘z fikrini bildirish; **sakkizinchisi,** o‘zining amali va podshohga yaqinligi bilan mag‘rur bo‘lmasligi kerak. Podshohning e’zoz ikromini ko‘rib, haddidan oshmaslik; **to‘qqizinchisi,** podshoh siyosiy ishlarda amirlar bilan maslahatlashishi kerak. Askarlar amirlarga topshirilgani uchun doimo podshoh lashkari orasta bo‘lsin va jangga tayyor turishini ta’minlashi kerak; **o‘ninchisi,** mamlakat tinchligi uchun doimo xabar yetkazuvchi va ogohlantiruvchilarni tayin qilish lozim, toki ular atrofdan xabarlarni keltirib tursin. Shunda biror joyda fitna bosh ko‘taradigan bo‘lsa buning chora-tadbiriga kirishadi; **o‘n birinchisi,** amirning yordamida faqirlar arzi sultonga yetkaziladi. U mazlumlar va arzdod etuvchilarni podshoh huzuriga kiritsin, toki ular o‘z dillaridagi dardini podshohga aytib, shifo sharbatini murodga yetkazsinlar; **o‘n ikkinchisi,** amir boshqa qo‘l ostidagilar bilan shunday muomala qilishi kerakki, agar ular xohlasalar u bilan tengma-teng yashay olsinlar”[241].

[241] Ҳусайн Воиз Кошифий. Ахлоқи муҳсиний. – Т.: Ўзбекистон. – Б .266-272.

Amir Temur qo‘shiniga asli toza, aql-farosatli, bahodir, dovyurak, tadbirkor, sergak, ehtiyotkor, oldi-ortini o‘ylab ish tutadigan, jang sir-asrorlarini biladigan 313 amirni rahbar etib tayinlagan bo‘lib, ularning darajasi pastrog‘i yuqorirog‘iga bo‘ysungan. Uch yuz o‘n uch amirdan yuztasi o‘nboshi, yuztasi yuzboshi, yuztasi mingboshi bo‘lgan. Shuningdek, tumanboshi o‘n minglik qo‘shinga rahbarlik qilgan. Jang paytida amir ul-umaro amirlarga, amirlar mingboshilarga, mingboshilar yuzboshilarga, yuzboshilar o‘nboshilarga boshliq bo‘lgan va yuqoridan kelgan buyruqlar so‘zsiz bajarilgan[242].

SH. O‘ljayeva o‘zining tadqiqotida, “Tamg‘aga yetmagan yigirma sakkiz aymoq boshliqlariga kichikroq darajadagi ulus amirliklari berilgan. Har bir aymoq o‘zining maqomi va huquqlariga ega bo‘lgan. Rossiyaning yirik davlat va imperiyaga aylanishiga katta hissa qo‘shgan Pyotr I ning (1672-1725) harbiy o‘n ikki pog‘onali mansabga ko‘tarish usuli Amir Temurning amirlarni o‘n ikki darajali mansabga ko‘tarish uslubini esalatadi”[243], - deb yozadi.

Darhaqiqat, SH. O‘ljayevaning fikrlarini tasdiqlagan holda, manbalardan janglarda katta jasorat ko‘rsatgan oddiy askarga “Bahodirlik” unvoni berilganini guvohi bo‘lamiz. Jumladan, Amir Temur qo‘shinida Shoh Malik Barlos, Baxlul Barlos, Darvish Bug‘a, Ismoil Barlos, Husayn Malik Qavchin, Hamza, Ramazon xoja, Sherzod, Sher-Ali Barlos[244] kabi bahodirlik unvoniga erishgan askarlari bo‘lgan.

---

[242] Ўлжаева Ш. Амир Темур давлат бошқаруви. Ташқи сиёсат. Дипломатия. – Т.: Академнашр, 2017. – Б . 133-135.

[243] Ўлжаева Ш. Амир Темур давлат бошқаруви. Ташқи сиёсат. Дипломатия. – Т.: Академнашр, 2017. – Б. 133-136.

[244] Муъизз ал-ансаб. (Прославляющие генеологии) // История Казахстана в персидских источниках. – Алматы: Дайк Пресс, 2006. – С. 119.

Bundan tashqari, janglarda katta matonat koʻrsatgan askarlarga oʻnboshilik darajasi berilganini ham taʼkidlash lozim. Agar shu askar jangning muvaffaqiyatli tugashiga ikkinchi marta hissa qoʻshsa, yuzboshi qilib koʻtarilgan. Agar uchinchi marotaba jasorat koʻrsatsa, unga mingboshilik martabasi berilgan[245].

Mingboshilikka koʻtarilgach, gʻanimning yirik qism lashkarlarini minglik qismi bilan sindirsa, birinchi amir etib tayinlangan. Birinchi amirlik darajasi oliy harbiy lavozimlardan hisoblangan. Shu tariqa ikkinchi, uchinchi, toʻrtinchi, beshinchi, oltinchi, yettinchi, sakkizinchi, toʻqqizinchi, oʻninchi, oʻn birinchi va oʻn ikkinchi amirlik darajasiga koʻtarilgan.

Har bir harbiy mansabdorning aniq vazifasi belgilangan. Qaysi bir oddiy askar qilich chopib bahodirlik koʻrsatsa, unga inʼom tariqasida choʻqmoq, qimmatbaho toshlar qadalgan oʻtogʻa, kamar, turna bellik qilich, bir ot berilgan hamda oʻnboshilik martabasiga koʻtarilgan[246].

Agarda amirlardan biri qaysidir mamlakatni fath etsa yo gʻanim lashkarini yengasa, u uch narsa bilan taqdirlangan: 1. Faxrli xitob. 2. Tugʻ. 3. Nogʻora kabilardir[247].

Faxrli xitob – faxriy yorliq boʻlib, uning nomi butun qoʻshinga ovoza qilingan, qimmatbaho tugʻi uning alohida belgisi hisoblangan. Bu esa bir tomondan, sipohiyning obroʻ-eʼtiboriga sabab boʻlsa, ikkinchi tarafdan, qoʻshinda jasorat, vatanparvarlik tuygʻulari kuchayishiga taʼsir koʻrsatgan.

Oʻzining maxsus nogʻora, tugʻiga ega sipohiy bahodir majlislarda hurmat-izzatda boʻlib, xos kishilardan sanalgan.

[245] Жан-Поль Ру. Тамерлан / Пер с. Фр. Е.А.Соколова; Послесл. В.Л.Егорова. – М.: Молодая гвардия, 2004. – С. 241.
[246] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б.102.
[247] Ўша асар. – Б.116.

Jasorati uchun o‘nboshiga shahar hokimligi, yuzboshiga biror yirik hudud hukmdorligi berilgan.

Shuningdek, qaysi amir jangda g‘anim podshosi yoki uning o‘g‘lini yengsa, u haqda ovoza tarqatilgan, qo‘shinning faxrli xitobi aytilgan, qimmatbaho sovg‘alar bilan mukofotlangan, uning qaramog‘iga ulus va chegara viloyatlar topshirilgan. Mukofot turlicha bo‘lishi mumkin edi. Bu bajarilgan ishning qanchalik ahamiyatli ekanligiga bog‘liq bo‘lib, ba’zan amirlarga biror hudud uch yilga yoki boshqa muhlatga in’om etilgan[248].

Amir Temur tomonidan ayniqsa, yurishlar vaqtida amirlarni joy-joyiga qo‘yish, ularning eng qobiliyatlilarining kuchiga tayanish lozim bo‘lgan. Bu haqda “Tuzuklar”da shunday deyiladi: “Buyurdimki, yurish vaqtida har bir ulus va tuman amiri har chodirdan bir otliq, har ikki olachuqdan bir otliq, har bir uydan bir otliq askar ajratib, o‘zlari bilan birga olib ketsinlar. Ular qaysi mamlakatga kelib tushsalar, oladigan ulufalari o‘sha yerning sug‘oriladigan maydoni va o‘tlog‘i hisobidan belgilansin. Uluslarning amirlariga yarg‘u va bayroqlar bersinlar. Amirlar uluslar va tumanlarning hol-qudratiga yarasha otliq askar hozirlab, yurishga olib kelsinlar”[249].

Amir Temur qaramog‘idagi qirq aymoqdan o‘n ikkitasiga – barlos, tarxon, arg‘in, jaloyir, tulkichi, do‘lday, mo‘g‘ul, sulduz, to‘qay, qipchoq, arlot, totorga tamg‘a berib, bular xos navkarlar deb hisoblagan.

Barlos urug‘idan quyidagi to‘rt kishini amir ul-umaro deb tayinlagan:

Amir Xudoydod, unga Badaxshon mamlakatini in’om etgan. Amir Jaku, amir Iygu Temur va amir Sulaymonshohga ham

[248] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 104.
[249] Ўша асар. – Б. 125.

bittadan chegara mamlakatini tortiq qilgan. Barlos urug‘idan yana yuz kishini mingboshi qildi. Amir Jaloliddin Barlosni o‘ninchi amir, amir Abu Sa’idni to‘qqizinchi amir darajasiga ko‘tardi.

Tarxon ulusidan amir Boyazidni yettinchi amir darajasiga tayinladi. Ulardan yigirma kishini yuzboshi qildi.

Arg‘in ulusidan Tosh Xo‘jani sakkizinchi amir qildi. Bulardan yigirma kishini mingboshi, yuzboshi va o‘nboshi qilib tayinladi.

Jaloyir ulusidan Tug‘ Temur va Sher Bahromni sakkizinchi va to‘qqizinchi amir etib tayinladi. Bulardan yigirma kishini yuzboshi va o‘nboshilikka belgiladi.

Tulkichi ulusidan Uljaytu Apardiyga amirlik martabasini berdi.

Do‘lday ulusidan Tobon bahodir va Son bahodirga amirlik martabasi berildi.

Mo‘g‘ul ulusidan Temur Xoja O‘g‘lonni amirlik martabasiga yetkazdi.

Sulduz ulusidan Elchi bahodirga amirlik martabasini berdi.

To‘qay ulusidan Ali Darvishni amir qildi. Qipchoq ulusidan Sari Bug‘aga amirlik martabasini berdi.

Arlot ulusidan amir Muayyidnikim (Amir Temurning singlisi uning nikohida bo‘lgan) amir ul-umaro etib tayinladi. Salaychi bahodirni ham amirlikka ko‘tardi[250].

Amir Temurning eng mashhur sarkardalaridan biri uning do‘sti va safdoshi bo‘lgan amir Jaku Barlosning o‘g‘li Jahonshoh Bahodirdir.

Manbalardagi ma’lumotlarga ko‘ra, Jahonshoh Bahodir dastlab Sulaymon Barlos, amir Muso Barlos, amir Jaloliddin,

[250] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 126

amir Hinduka Barlos, amir O‘ljoytu, Shayx Muhammad Bayon kabi ko‘plab sarkardalar qatorida Amir Husayn tomonida turib unga qarshi olib borilgan janglarda ishtirok etgan. Muiniddin Natanziy Amir Temur bilan Amir Husayn o‘rtasidagi muhorabada – Amir Muso, amir O‘ljoytu va Shayx Muhammad Bayon boshchiligidagi qoraunnas lashkarlari mang‘loyi qariyb yigirma ming otliqlardan iborat qism bilan Bulung‘ur suviga kelib tushgan. Amir Husayn Malik Bahodirni So‘zangaron yo‘lini qo‘riqlash uchun yuborgan. Jahonshoh bir yarim ming otliq bilan Raboti Malikda o‘rnashdi. Xirman Bahodirni Jizzax yo‘lini to‘sib qo‘yishi uchun bir ming otliq qo‘shin bilan jo‘natdi[251], - deya Jahonshoh Bahodirning nomini ilk bora eslatib o‘tgan. Shu jangda Amir Temur oz sonli qo‘shini bilan g‘alabaga erishadi. Jeta hukmdorlari va Amir Husaynning uzoqni ko‘ra olmasligi, mol-dunyoga o‘chligi va adolatsizliklari tufayli ularning ko‘p lashkarboshilari Amir Temur tomonga o‘tgan. Jahonshoh Barlos Nishopur[252], Mozandaron, Qandaxor, Isfahonni zabt etishda, Tabrizdan Sulton Ahmad Jaloyirni quvib chiqarishda katta jasoratlar ko‘rsatgan. Jahonshoh Bahodir Amir Temurning shaxsan o‘zi ishtirok etmagan ko‘pgina yurishlarni ham boshqargan va yirik g‘alabalarni qo‘lga kiritgandi. Qandahorni olishda Jahonshoh Bahodir, Mubashshir va Iskandar Shayxiyga alohida ishonch bildirilgan va ularga e’tibor, izzat-ikrom ko‘rsatilgan.

Jahonshoh Bahodir, Mubashshir Bahodir, Iskandar Shayxiylar Amir Temurning amriga muvofiq o‘z qo‘shinlari bilan shaharga avval yetib kelib jang boshlaydilar. Jahonshoh Bahodir Qandahorni zabt etarkan, dorug‘asini tutib, Amir Temur

[251] Муиниддин Натанзий. Мунтахаб ут-таворихи Муиний. –Т.: Ўзбекистон, 2011. – Б. 83
[252] Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. – Т.: Шарк, 1997. – Б. 92.

oldiga olib keladi. Unga xos bo‘lgan tezkorlik, qo‘shinni turli tomondan yopirib dushman ustiga tashlash, dushmanga imkon qoldirmaslik kabi xususiyatlar xos bo‘lgan. Sharafiddin Ali Yazdiy Amir Temur – Jahonshoh Jokuni maqtab, lutflar qildi va uni cherik bila Kalot hisoriga yibardi[253], - deya unga ko‘rsatilgan hurmat-e’tiborni alohida ta’kidlab o‘tgan. Kavkazdagi yurishlari paytida Jahonshoh Bahodir Kavkaz yerlarini ishg‘ol etgan. Bu matonatli sarkarda turkman Ozarbayjonlar yerini ham shiddat va matonat bilan ishg‘ol etgan[254]. O‘sha paytda uning nomi Sharqda mashhur bo‘lgan va dushmanlari uning nomini eshitganda titrar darajada jang usuliga ega bo‘lgan tajribali sarkarda bo‘lgan. Alinjaq qalasini qo‘lga kiritish paytida Amir Temurdan — Jahonshohbek Alanchuq qalasining ishini Sulton Sanjar va Hoji Sayfuddinbekka va Mirzo Mironshohlarning mulozim-lariga topshurub, o‘zi amirzoda Muhammad Sultonning keyinida Fors viloyatiga borsun! - deb amri farmon bergan. Jahonshoh Bahodir Mo‘g‘uliston xoni Qamariddinga qarshi qaqshatqich zarba berishda ham jonbozlik ko‘rsatgan.

Sharafiddin Ali Yazdiy Jahonshoh Bahodirga Amir Temurning ishongani va unga eng murakkab vazifalar topshirilganini alohida ta’kidlab o‘tgan[255].

Amir Temur ko‘pgina yerlarni zabt etishda shaxsan o‘zi ishtirok etmagan, o‘zi ishongan lashkarboshilari orqali yurishlarni bir necha nuqtalarda olib boravergan. Shu lashkarboshilarning eng oldingi qatorlarida Jahonshoh Bahodir turgan. Ba’zan Jahonshoh Bahodir mushkul ahvolga tushib qolganda ham sovuqqonlik bilan shoshilmasdan, qaysarlik bilan jangni olib borish taktikalarini ishlab chiqqan va doimo

[253] Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. – Т.: Шарқ, 1997. – Б. 92.
[254] Ўша асар. – Б. 111.
[255] Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. – Т.: Шарқ, 1997. – Б. 98.

g‘alabaga erishgan. Xususan, u Muhammad Mirakning yog‘iyligiga qarshi yurishga tushgan paytda yo‘lda unga qarshi yana bir xavfli kuch paydo bo‘ladi.

SH. O‘ljayeva ham o‘zining qator tadqiqotlarida Jahonshoh Bahodirning Amir Temur va buyuk davlat oldidagi ulkan xizmatlarini tarixiy manbalarga asoslanib quyidagicha sharhlaydi: “Burolday elining dushmanligi Jahonshohni ancha qiyin vaziyatga tushirib qo‘yganini va bu holat bo‘yicha xabargirlar orqali Amir Temurga arz qilganini hikoya qilgan. Bu sharoitda hali kuchlar yetib kelib ulgurmasdan u oz sonli lashkari bilan ko‘p sonli dushmanlar bilan yuzma-yuz keladi va shiddati, to‘g‘ri tadbiri, Amir Temurdan olgan bilimi va sabr-bardoshi bilan ushbu jangda g‘alaba qozonadi. Ular Bag‘longa yetib, dushmanlarni daf etadi. Shundan keyin tog‘dagi hisorda o‘tirgan, tish-tirnog‘igacha qurollangan Muhammad Mirakka qarshi yurishni boshlaydi. Amudaryo yoqasida xoja Yusuf, Pir Ali Toz qo‘shinlari ham Jahonshoh Bahodirga kelib qo‘shilishi kerak edi, ammo ular yetib kelib ulgurmaydi. Ular daryoga sol tashlab narigi sohilga o‘tib oladilar. Burolday eli va Boyazidning uch minglik qo‘shini 60 kishilik Jahonshoh Bahodir qo‘shiniga qarshi jang uyushtiradilar. Shu sharoitda ham Jahonshoh Bahodir qochishni ixtiyor etmasdan, qo‘rqmasdan va qattiq azmu jazm bilan, qo‘shinni ruhlantirib, xudoga tavakkal qilib, Sohibqiron Amir Temurga sadoqatini izhor etib suvga orqa berib, qalqonlarini boshlariga tortib mardonavor jangga kiradi. Tun bo‘yi to tong otgunga qadar o‘rtada o‘qlar yomg‘iri yog‘diriladi, qilich va gurzi ishlatib jang davom etadi. Va dushmanni tumtaroq qochishiga sabab bo‘ladi. Jahonshoh Bahodir 60 qo‘shini bilan 3000 qo‘shin saflarini buzib tashlagan va o‘zi omonda qolgan buyuk lashkarboshidir. Shu paytda Xo‘ja Yusuf bir navkarini

suvdan o‘tkazib Jahonshoh Bahodirga xabar yubordi: — Mardona bo‘lunglarkim, Munk cheriki bilan yetayim. Jang qizigan paytda Pir Ali Toz va Xo‘ja Yusufning yuz kishilik askari bilan suvdan kechib o‘tib jangga tashlandilar. Tong otganda uch ming kishilik qo‘shin tumtaroq bo‘lib qochadi. Shu voqeadan keyin Jahonshoh Bahodir Qunduzda bo‘ldi, u yerdan Hindikush tog‘idan o‘tib Qobulga keldi. Bu paytda Amir Temur Xorazmda yurishda edi[256].

Amir Temur Abu Sa’idning dushmanligi va uning Burolday eli bilan birlashganini eshitgach, Amir Temur Jahonshoh Bahodirga yordam kuchlarini yuborgan[257] va dushman kuchlari batamom sindirilgan. Jahonshoh Bahodir Jeta yurishda ham faol qatnashgan. Yarluq bo‘ldikim, amir Jahonshoh va Uch Qaro Bahodir va o‘zga beklar o‘ttiz ming kishi bilan otlanib Irtishqa dushmanlarini istagani borsunlar. Amir Temur Jeta yurishidan 1389 yilda Samarqandga qaytgan va Jahonshoh Bahodirni qo‘shinga bosh qilib qoldirgan. 1390 yil bahorida Amir Temur To‘xtamishxon masalasini ko‘rish va qaror qabul qilish uchun Kesh viloyatinin Oqyor mavzesida qurultoy chaqiradi. Bu qurultoyga har viloyatdin va tumonot va hazorijotning beklari va viloyatlarning darug‘alari hozir bo‘lsun degan farmoni oliy bo‘ladi[258].

Sharafiddin Ali Yazdiy bu qurultoyda Amir Temurning lashkarboshilaridan Hoji Sayfiddinbek, amir Jahonshoh Joku va amir Shamsuddin Abboslarning nomini alohida tilga olib, ular podshohona peshkashlar tortgani va to‘y bergani haqida

---

[256] Ўлжаева Ш., Абдурахмонова И. Амир Темурнинг машҳур лашкарбошиси Жаҳоншоҳ Баҳодир тарихи. // Ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда “Темур тузуклари”нинг ўрни ва аҳамияти” мавзусидаги республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Т.: ҲТИ, 2019. - Б. 23-25.

[257] Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. – Т.: Шарқ, 1997. – Б. 121.

[258] Ўша асар. – Б. 127.

ma’lumotlar keltirgan. Demak, ular saltanatdagi eng nufuzli shaxslar hisoblanganlar.

Sharafiddin Ali Yazdiy Muhammad Sultonshoh, Sayfiddinbek, amir Jahon Jaku (Jahonshoh Bahodir)dan Amir Temurning xursandligini, ularning ishlaridan xushvaqt bo‘lganini ko‘p bora ta’kidlab o‘tgan.

1391 yildagi To‘xtamishxonga qarshi olib borilgan jangda ham Jahonshoh Bahodir katta matonat ko‘rsatgan. Hoji Sayfuddin barchadan avval To‘xtamishxonning chap qo‘l qo‘shiniga qarshi jangga kirgan. To‘xtamishxonning qo‘shini ko‘pchilikni tashkil etgan, ular Sayfuddinbekni ortidan kirib o‘rab olishni niyat qilganda Jahonshoh Bahodir qo‘shini bilan jang maydoniga kirib dushman rejasini barbod qiladi va dushmanni ortga surib tashlaydi.

Jahonshoh Bahodir Amir Temur saltanatida **amir ul-umaro – bosh qo‘mondon** darajasiga ko‘tarilgan, albatta bu oliy lavozimga u osonlik bilan erishmagan, janglarni olib borish va dushman to‘plarini sindirish taktikasi tufayli u Amir Temur va boshqa sarkardalarning oldida katta obro‘ qozongan. Biz uning ko‘pincha so‘l qanotdan jang qilgani yoki pistirmadan dushman tomonga otilgani va yog‘iy saflarini buzib tashlagani, jangning taqdirini ijobiy tomonga hal qilishda jonbozlik ko‘rsatganini ko‘ramiz. 1395 yildagi To‘xtamishxon bilan bo‘lgan eng yirik jangda ham Jahonshoh Bahodir qattiq jang qilgan va matonat ko‘rsatgan. Xoja Sayfiddinbek mana shu jangda piyoda jang qilishiga to‘g‘ri kelgan va yopirilib kelgan otliq dushmanlarni o‘q yomg‘iri bilan yaqinlashtirmay turgan. Bu holatni ko‘rgan Jahonshoh o‘zining tuman qo‘shini bilan To‘xtamishxon qo‘shiniga yondan zarba bergan. Uning shiddati, tezkorligi va jang usullariga hech bir dushman dosh bera olmasdi.

Sayfuddinbek va Jahonshoh Bahodir birlashib qo‘shinning so‘l qismini surib tashlaydilar va ularni mag‘lub etadilar. Amir Temurning sarkardalari Jahonshoh Bahodir va boshqalar jang sahnasini yaxshi tushungan va ular qayerda va qanday holatda jang qilishni vaziyat taqozosiga ko‘ra belgilaganlar. Aslida Amir Temurning shaxsi ortidagi shon-shavkatlarda Sohibqiron tanlagan ana shu lashkarboshilar tarixi turadi. Kadrlarni joy-joyiga qo‘ya olishi uning ulug‘ligiga va buyuk hukmdorligiga dalolatdir[259].

Jahonshoh Bahodirning Basra, Gurjiston, Halab va Damashqni zabt etishda, Oltin O‘rdaga qarshi kurashlarda, Hindiston yurishlari, Anqara jangida, Bursaning fath etilishida ham katta matonatlar ko‘rsatgan. Dehli voliysi sulton Mahmud bilan jangga kirganda Jahonshoh Bahodir qo‘shinning so‘l qismida Husayn Bahodir, amirzoda Xalil Sulton, G‘iyosiddin Tarxonlar bilan bir safda turgan. Orada shiddatli jang bo‘ladi, Jahonshoh Bahodir dushman qo‘shinini darvozaga yaqin boradi, qul va manglay qismdan Rustam Bahodir, amir Shayx Nuriddin va Shoh Malik va Allohdodlar dushman markazini o‘rab oladilar. Shiddatli jangda Amir Temur qo‘shini qo‘li baland keladi va Sulton Mahmud bilan Malluxon oz sonli kishilari bilan qochib shahar ichiga kirib oladi, alaloqibat mag‘lub etiladi.

Ibn Arabshoh Damashq va Jahonshoh Bahodirning qala hisorini olishda ko‘rsatgan xizmatlarini alohida ko‘rsatib o‘tgan. Xususan, Damashq qalsi muhosarasiga boshliq etib Jahonshoh Bahodir tayinlangangani haqida ma’lumot berib o‘tgan[260]. Amir Temur o‘zining ulug‘ amirlaridan biri Jahonshoh deb ataluvchi amiri zimmasiga (Damashqni zabt etish vazifasini – M.A.)

[259] Ахмедова М.Т. Амир Темур давлатида хавфсизликни таъминлашнинг ҳуқуқий асослари. Юрид.фан.доктори....дисс. – Т.: ЖХУ, 2020. – Б.153.
[260] Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи. – Т.: Меҳнат, 2-китоб. 1992.-Б. 49.

yukladi. Natijada, Jahonshoh bunga kafil bo‘lib, uning bilan mashg‘ul bo‘ldi. U qala qarshisiga manjaniqlar o‘rnatdi. Va uning ostidan lahmlar qazib, devorlarga ilgaklar tashladi[261]. Qal’a mustahkam bo‘lib, uni olish uchun juda katta kuch, sayi-harakat, shiddat va tadbir kerak edi. Qirq uch kun deganda qala qo‘lga kiritiladi. Ibn Arabshoh qalaning ustiga Amir Temur jangchilari yopirilganda ular yuqoriyu pastdan, o‘ngu so‘ldan kelib dushmanni siqa boshlagani, ularning shiddati, jang harakatlariga qarshilik ko‘rsatishdan qala jangchilarining qo‘llari charchaganini alohida aytib o‘tgandi. Rostdan ham bu kabi jang usullarini hali olam xalqi ko‘rmagan edi. Qala ahli o‘takasi yorilib jon holatda Amir Temurdan omonlik tilab hech bir ikkilanmasdan qaladan tushdilar Amir Temur nabirasi Umar Bahodirni 1404 yili 6 aprel kuni Iroqi Ajam, Ozarbayjon, Arron, Mug‘on, Armaniya, Gurjiston mamlakatlari va ularga yondosh ellarni boshqarish uchun tayinlaganda Jahonshoh Bahodirni u bilan birga yuborgan. Ul mamlakatlarning hal qilish va ma’n etish, egalik qilish va kengaytirish ishlarini ularning ixtiyoriga topshirgan[262].

Bundan ko‘rinadiki, Jahonshoh Bahodir nafaqat yirik lashkarboshi va sarkarda, balki davlat boshqaruv ishlarini ham puxta bilgan, zamona vaziyatlarini yaxshi anglagan, bilimli va tajribali dono rahbar ham bo‘lgan. U hech qachon Amir Temurga xiyonat qilmagan, u buyurgan ishlardan bo‘yin tovlamagan, o‘ziga topshirilgan ishlarni doimo maromiga yetkazgan sadoqatli harbiy qo‘mondon bo‘lgan.

Amir Temur Jahonshohni amirzoda Umarga hamrais qilib qo‘yar ekan, u yerdagi xavfsizlik va mudofaa ishlarini

[261] Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи. – Т.: Меҳнат, 1-китоб. 1992. – Б. 231-232
[262] Низомиддий Шомий. Зафарнома. – Т.: 1996. – Б. 382

tashkillashtirishni unga ishongani ko‘rinadi. Ayni paytda Jahonshoh Bahodir Amir Temur davlati xavfsizlik tizimining yirik mansabdori, buyuk general vazifasini bajargan. Bundan ko‘rinadiki, Jahonshoh Bahodir Amir Temurning eng ishongan lashkarboshisi bo‘lgan va unga ishonib eng yirik janglar va qalalar topshirilgan. U O‘rta Yer dengizidan Irtish daryosi bo‘ylarigacha yerlarni o‘z ichiga olgan hududlarda o‘nlab janglarda Sohibqiron qo‘shinida xizmat qilgan va uning g‘alabalarini ta’minlashda jonbozlik ko‘rsatgan.

Amir Temur davrining yana bir taniqli amiri Umar bahodirdir. Uning haqida Sohibqiron shunday yozadi: “Qo‘l ostimizdagi mamlakatlarning bir tarafini boshqarmoqqa tayinlayotgan ekanmiz, suyukli, hurmatli, shon-shuhratli, arziguli, saodatli, xushfe’l, ulug‘ Tangri rahmatiga loyiq farzand, ya’ni hayotimiz farog‘ati va naslimiz chirog‘i bo‘lmish Umar bahodirni, Alloh uning umrini uzoq qilsin, mehribonlik va inoyat yuzasidan hamda ko‘pdan-ko‘p siylov va maxsus lutf ko‘rsatib, Fors va Kirmon mamlakatlarini to Hurmo‘z va Iroqi Ajamgacha; Raydan to Ozarbayjon, Arron, Mug‘on, Qorabog‘, Jiylongacha barchasini; Shirvon, Shamoxiy va darbanddan to Bob-ul-Abvobgacha; Gurjiston, Abxoz, Kurdiston, Diyorbakr va Iroqi Arabdan to Hijozgacha; Rum o‘lkasidan to Istanbul va Farang diyorigacha; Shom diyorini Iskandariya va Misrning Nil (daryo)sigacha saltanat, el so‘rash, egalik va boshqarish uchun tayinladik va ushbu hududni unga ishonib topshirdik. Ularni barcha ishlarni hal qimoq va man etmoq jilovini uning boshqarish kaftiga va bahodirlik changaliga tutqazdik. Jahon bo‘ysinuvchi va doim o‘z kuchini yo‘qotmaydigan bu hukm (barcha) o‘lkalarga e’lon qilindi. Toki mazkur mamlakatning podshohlari, hokimlar, voliy, amir, ulug‘lari, sadrlari,

zodgonlarni, akobirlari, ayon, ashrof va taniqli (kishilar) nomi yuqorida eslatilgan eng aziz farzandni ul joylar saltanat taxti va viloyatlarining egasi, nufuzli hokimi hamda arzigulik hukmdor deb bilib, muhim ishlarda va yurtning barcha zaruratlarida to‘la-to‘kis unga va uning noiblariga murojaat qilsinlar; uning mamlakat obodonchiligining asl nizomi va ular osoyishtaligining mazmun-mohiyatidan iborat bo‘lmish farmoni va buyrug‘idan bosh tortmoqni lozim topmasinlar; uning so‘zsiz adolat va haqiqatni ko‘zlovchi amrini va taqiqlaganini itoat bilan bosh ustiga, deb qabul qilsinlar; farmonbardorlik va xizmat-korlikning to‘g‘ri yo‘lidan boshqa hech qanday yo‘lni izlamasinlar; uni va uning noiblarini mamlakatda (sodir bo‘ladigan) muammolarni bartaraf etishda qo‘li ustun, qudratli, sohibixtiyor va to‘la huquqli, deb bilsinlar; uning farmoni hududida bo‘lgan har qanday saodatli kishi uning baxtiyorlik etagini tutsa, so‘zsiz martabasi ulug‘ bo‘lg‘ay”[263].

Amir Temur tomonidan Feruzko‘h Qal’asi[264]ning zabt etilishida navqiron amirzoda amir Sulaymonshoh bahodir va mo‘tabar odil amir, ya’ni amir Mizrob bahodir Xuroson lashkarini to‘plab, Mozandaron yo‘li bilan Astrobod va Sorya orqali Omul tomoni yursinlar, degan shoshilinch farmon bo‘ldi. (Shuningdek, hazrat Sohibqiron) ulug‘ amirzoda, musulmon bandalarning podshohi, Alloh atiga to‘la-to‘kis dahldor etilgan, Sulaymon taxtining vorisi, ya’ni amirzoda Iskandar hamda tadbirkor amir, ya’ni amir Shoh Maliklarni 1404 yil 26 aprelda Miyona[265] orqali Ray tomonga jjo‘natdi. Amir Muso Ragmolni

[263] Низомиддий Шомий. Зафарнома. – Т.: 1996. – Б. 384-385.

[264] Эроннинг шимолидаги Элбрус тоғларида жойлашган ўрта аср қалъаси. Ҳозир харобалари қолган. Ўша ерда Ферузкўҳ қишлоғи бор. Теҳрондан Каспий бўйига, Мозандаронган борадиган темир йўл ва автомобил йўли устида.

[265] Эроннинг Шарқий Озарбайжон вилоятидаги шаҳар: Теҳрон – Табриз темир йўли ва автомобиль йўли устида

elchi sifatida amirzoda Sulaymonshoh bahodir va amir Mizrob bahodir qoshiga yubordi.

1404 yil 28 aprelda nusrat shior bayroqlar Puli Miyonadan o‘tib, 1404 yil 1 mayda Sultoniyaga kelib qo‘ndi. Ikki kun o‘tib Sultoniyadan yo‘lga otlanib, 1404 yil 6 may kuni amir va amirzoda saodatli shahid Mironshoh Ko‘ragonga, podshhona tarbiyat va inoyat ko‘rsatdi, ya’ni: suyukli farzandi Abu Bakr bahodirga taalluqli bo‘lgan Iroqi Arab va Diyorbakr mamlakatlarining hamda boshqa bir farzandi – amirzoda Umar bahodirga tegishli bo‘lgan Ozarbayjon mamlakati va unga yondosh yerlarning, barchasida qaysi joyni ko‘ngli tusasa, o‘sha joyni manzil qilsin, bu joylarning hammasiga uning hukmi o‘tadi. Unga xazinadan to‘rt yuzta mo‘g‘uliy va toziy ot va boshqa turli narsalar ham in’om qildi, hamda Abhar atroflaridan u tomonga qaytardi. Humoyun bayroqlar Ray tomonga yurdi va 1404 yil 11 may kuni Qavzin hududidan o‘tib, Ray dashtini zabt etdi[266].

Biroq, XIV asr oxirida sarkardaning Oltin O‘rda qo‘shinlarini tor-mor qilishi Rossiya Davlati shakllanishi uchun katta ijobiy rol o‘ynagan. O‘nlab janglarda g‘olib chiqqan Jahonshoh Bahodir, Amir Umar bahodir, Abu Bakr bahodir, Mizrob bahodirlar o‘z xavfsizligini o‘ylamagani uchun siyosiy fitna tufayli o‘zining yaqin do‘sti tomonidan o‘ldiriladi.

Sohibqiron Amir Temur davri harbiy tizimini tadqiq etishda uning davlatchilikdagi muhim ahamiyatini va harbiy lavozimlar bir vaqtning o‘zida davlat hokimiyatini ham ifodalaganini anglab yetamiz.

[266] Низомиддий Шомий. Зафарнома. – Т.: 1996. – Б. 386-387.

3.4. Harbiy xizmatchilarning rag‘batlantirilishi va jazo tizimi

Amir Temur turli mamlakatlarning aholisini yo‘l-yo‘riqqa solish va maosh tayinlash, avliyolar va din peshvolarining mozorlarini tuzatish, vaqf va nazr ishlarini tartibga solishda tuzuklarini, yani qonunlarini joriy qilgan. Bu qonunga binoan fath etilgan davlat sipohiylari o‘z ixtiyorlari bilan panohiga kelsa, Sohibqiron ularni navkar qilib olgan.

Amir Temur faqatgina o‘z sipohini tashkil etish yoki uning jangovarligini oshirish ishlari bilangina emas, balki u sipohning ichki masalalari, xususan, sipohga ulusda oziq-ovqat, maosh, turli moddiy in’omlar qilish, tanho taqsimlash, ya’ni ayrim amirlarga, mingboshi, yuzboshilari xazinadan ko‘rsatgan qahramonliklari uchun moddiy boylik, yer-suv berish, Amirlik mansabini berish, navkarlarni eng quyi darajadan oliy martabagacha tayinlash qoidalarini, tuzuklarini ishlab chiqdi. Sipohiyga beriladigan maosh masalasini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, u Amir Temurning amriga binoan quyidagicha tashkil qilingan edi:

Birinchidan, oddiy sipoh o‘z vazifasini o‘rinlatib bajarganda unga mingan otining bahosida mablag‘ berilgan.

Ikkinchidan, bahodirlariing maoshi ikki ot bahosidan - to‘rt ot bahosigacha qiymatiga teng bo‘lgan.

Uchinchidan, o‘nboshilar maoshi qo‘l ostidagi oddiy sipohiydan o‘n barobar ko‘p bo‘lgan.

To‘rtinchidan, yuzboshilarniki esa, o‘nboshilarnikidan ikki barobar ko‘p, mingboshilarniki esa yuzboshilarnikidan uch barobar ko‘p bo‘lgan[267].

[267] Ахмедова М.Т. Амир Темур давлатида хавфсизликни таъминлашнинг ҳуқуқий асослари. Юрид.фан.доктори....дисс. – Т.: ЖХУ, 2020. – Б.158.

Husayn Voiz Koshifiy o‘zining “Axloqi muhsiniy” asarida yozishicha: “Podshoh ham lashkar va mulozimlarga to‘rt ish qilishi kerak:

birinchisi, minar otlari va aslahalarini muhayyo qilsin;

ikkinchisi, har birini martabasini bilsin va unga shu martabaga munosib muomala qilsin;

uchinchisi, ishchan kishilarni yaxshi tarbiya qilsin va lashkar ichida sarafroz qilsin;

to‘rtinchisi, dushmandan qo‘lga tushgan o‘lja molidan ularni ham bahramand aylasin”[268].

Sipohiylarga maosh belgilashda Amir Temur moddiy rag‘batlantirish tamoyiliga qat’iy amal qiladi. U askarlarining maoshini tenglashtirmasdan ko‘rsatgan xizmatlariga qarab ziyoda qilib bergan. Bundan tashqari, alohida qahramonlik ko‘rsatganlari uchun ulufa, tanho kabi rag‘batlantirishlarni ham joriy qiladi.

Nizomiddin Shomiyning yozishicha, “Xodimlar va lashkarga maosh, in’om, ukalko va suyurg‘ol bermoq xayrli ishlarga keng yo‘l ochish uchun qilinib, isrofgarchilik va haddan oshrimoq holatidan meyor va o‘rtamiyonalik tomon og‘moq lozim, toki ishlarning borishi to‘g‘rilik qonunidan chetga chiqmasin, to‘sqinlik qiluvchi sabablar bir-biriga ulanib ketmasin, dil dardini keltirib chiqarmasin va pushaymon bo‘lishga to‘g‘ri kelmasin. Ana shundagina (odam) zulm qilmoq va hasislikdan uzoq bo‘ladi, ortiqcha harajat va isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaydi. Alloh taolo aytadi: “(baxillik bilan) qo‘lingizni bo‘yningizga bog‘lab ham olmang. Isrofgarchilik qilish bilan uni butunlay yozib ham yubormang”[269]. YA’ni, chiqim bilan kirimni

[268] Ҳусайн Воиз Кошифий. Ахлоқи муҳсиний. – Т.: Ўзбекистон. – Б .243.
[269] Қуръони Карим. 17-сура. Исро сураси. 29-оят.

bir meyorda tutsin, shundagina yurtni (boshqarishdagi) barcha zarur ishlar unga oson bo‘lgay va zulm qilmoqqa hech bir zarurat qolmagay”[270].

Amir Temur tomonidan janglarda katta jasorat ko‘rsatgan oddiy askarga **“Bahodir” unvoni** berilgan. “Temur tuzuklari”da yozilishcha: “Amr qildimki, qaysi bir amir biron mamlakatni fath etsa, yo g‘anim lashkarini yengsa, unga uch narsa bilan imtiyoz bersinlar: faxrli xitob, tug‘ va nog‘ora topshirib, uni **“bahodir”** deb atasinlar”[271], - deyilgan.

Sohibqiron yuqoridagi manbadan ko‘rinib turibdiki, isrofgarchilikka mutlaqo qarshi bo‘lgan. Hamma narsada meyorni bo‘lishini qat’iy talab qilgan. Bu g‘oyalarning bugungi kundagi ahamiyati haqida gap ketganda, aynan hozirda to‘y, maraka va yig‘inlarni ixcham holda o‘tkazilishiga qaratilgan ishlarni misol qilish mumkin.

Husayn Voiz Koshifiy “Axloqi muhsiniy” asarida: “Lashkar va mulozimlarga maosh mo‘tadil ravishda tayinlansin. Chunki ularning turmushlari agar farovon bo‘lsa, o‘zlaridan ketib, xizmat va mulozimatda tixirlik qilurlar. Agar ularning turmushi nochor bo‘lsa, norozi bo‘lib, boshqa rahbarni xohlab qoladi”[272].

Amir Temur yozadi: “Amr qildimki, amir ul-umaroning maoshi o‘z qo‘l ostidagilaridan o‘n barobar ortiq bo‘lsin. Shunga o‘xshash, devonbegi va vazirlarning maoshlari esa amirlar maoshidan o‘n barobar ko‘p bo‘lsin. Yasovul, chopovul, qalaqchilar maoshlari o‘z xizmatlariga yarasha, mingdan o‘n ming (tanga)gacha bo‘lsin”[273].

---

[270] Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б. 382-383.
[271] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 116.
[272] Ҳусайн Воиз Кошифий. Ахлоқи муҳсиний. – Т.: Ўзбекистон. – Б .244.
[273] Темур Тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 99.

Ahli majlis bo‘lmish sayyid, olim, fozil kishilar, hakim, tabib, munajjim, qissaxon, xabarchi, tarixchilar, xullas, barcha-barcha davlat mulozimlariga o‘z hollariga qarab maosh belgilangan, yirik arboblarga esa suyurg‘ol tayinlangan. Piyoda, xizmatchilarga yuz tangadan ming tangagacha maosh berishni joriy qiladi. Agarda sipohiylardan qaysi biri jangda xatolikka yo‘l qo‘ysa, uning maoshi miqdori o‘ndan birga kamaytirilgan. Maoshni olish, belgilash, qatiy hisob-kitob bilan devonbegilar orqali amalga oshirilgan. Ular o‘z navbatida Amir Temurni sipohiylar maoshi haqida xabardor qilib turganlar. Sipohiylarning har biriga maxsus farmonga ko‘ra maosh olish yorlig‘i berilgan. Yorliqda ularga berilgan maosh miqdori aniq qilib yozib qo‘yilgan.

Amir Temur davlat apparatini, birinchi navbatda, qo‘shinni moddiy jihatdan ta’minlash manbai (soliqlar) tizimi va ulardan xizmatchilarga maosh belgilash, maosh miqdorlari hamda umuman, xazinadagi kirim-chiqim hisob-kitoblarini katta aniqlik bilan olib borilishini joriy qiladi. Masalan, sipohga tanhoh va ulufa taqsimlash to‘g‘risida maxsus tuzuklar ishlab chiqadi. Bu qonun-qoidaga binoan piyoda, qalaqchi, yasovul, chopovullarni bir yillik maoshlarini hisoblab, tanho xazinasidan olib berishni buyurgan[274].

O‘nboshi, yuzboshilarga esa maoshni shahar omonligi (shahar aholisidan yig‘ilgan soliq) xazinasi va podshohlik mulki daromadidan naqd pul hisobida yozish joriy qilinadi. Amirlar va amir ul-umarolarga esa sarhad yerlaridagi viloyatlardan biri tiyul[275] qilib belgilangan.

[274] Темур Тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 100.
[275] Тиюл- хирож, солиқ йиғиб олиш учун топширилган вилоят, ер-мулк.

Davlat mulozimlarining maoshi qat’iy qilib belgilanar ekan, Amir Temur ularni oddiy xalqdan ortiqcha soliqlar olishlarini ta’qiqlab qo‘yadi. Masalan, Amir Temurning maxsus farmoni bilan amirlar, mingboshilar raiyatidan moli jihod (naqd pul yoki maxsulot bilan to‘lanadigan soliqlar) yiqqanlarida, hirojdan ortiqcha sovariy (podsho va xonlar o‘z viloyatlaridan o‘tayotganlarida talab qilinadigan tortiqlar yoki sovrinlar), qo‘nalg‘a (chopar va elchilarga qo‘noq (tunash) xaqi berish va shilon (podshohlar va amirlarning ovqatlanishi uchun to‘planadigan soliqlar) talab qilishlari ta’qiqlanadi.

Husayn Voiz Koshifiyning yozishicha: “Podshoh go‘yo bog‘bon. Bog‘bon bo‘stondagi giyohdan xabardor bo‘lib turganday doimo ular ahvolidan xabardor bo‘lish kerak. Go‘yoki qaysi giyoh ishga yaramasa, uni yulib tashlab, qaysi bir sabzadan foyda kelsa, unga qarab parvarish qilsin. Lashkar orasida ham shundaylar borki, ular hech ish qilolmaydi. Ularga essiz maosh. Ularning nomlarini maosh daftaridan yo‘q qilishni buyurish va ishchan yigitlar tarbiyasi bilan mashg‘ul bo‘lsin”[276].

Amir Temur faqat davlat mulozimlari: amir, sarkarda, bahodir, jangchilarning turmushidan, hayotidan ogoh bo‘lib, ularnigina o‘ylab qolmasdan, raiyat - ommaning turmushi, sharoitining og‘irlashib ketishi, ularga nisbatan hokimlarning zo‘ravonliklari, qonunsiz tajovuzlari bo‘lmasligini qattiq nazorat ostiga olgan. Uni amalga oshirish davlat apparati mexanizmlarini ishlab chiqqan. Shu sababli ham, o‘z zamonining ko‘p sonli, qurollangan qo‘shinini xalqdan yig‘iladigan soliqlar evaziga saqlab turishga raiyat va davlat, aholi va armiya o‘rtasidagi munosabatning og‘irlashishiga yo‘l qo‘ymagan. Bu jihatlari bilan Amir Temur xalqning arzu dodiga quloq soluvchi donishmand,

[276] Ҳусайн Воиз Кошифий. Ахлоқи муҳсиний. – Т.: Ўзбекистон. – Б .243.

ma’rifatli bo‘lganini ta’kidlash mumkin. Mamlakatdagi amaldorlar, viloyat hokimlari, vazir, amirlari va boshqalar podshoh ruhsatisiz, qozining qarorisiz aholini kaltaklab, savalash yo‘li bilan emas, balki ogohlantirish, tushuntirish yo‘li bilan boshqarish huquqiga ega bo‘lgan.

Amir Temur sipohning tuzilishi, uning qurol-yarog‘i, qo‘riqlanishi, maoshlari bilan bir vaqtda navkarlarning o‘z begiga va aksincha, beklarning o‘z navkarlariga bo‘lgan munosabat masalalarining huquqiy va axloqiy jihatlarini ham tartibga soladi. Amir Temur navkarlaridan to‘g‘ri, adolatli bo‘lishlarini talab qiladi. Navkarlar o‘zlarini doimo beklarning xizmatchilari deb bilganlar. Amir Temur o‘z begiga ixlos qo‘ygan va sidqidildan xizmat qilgan navkarning boyligi, davlati, noz-ne’mati kundan-kun ortib boradi[277], - deb hisoblagan.

Amir Temur mulozim biron-bir mamlakatga hokim qilib qoldirilsa-yu, u mamlakatni dushmanga topshirsa, bunday hokimni faqat o‘lim jazosiga hukm qilishni va aksincha, davlatni dushmandan himoya qilgan sodiq amaldorni har tomonlama martabasini ulug‘lash kerakligini aytadi. Shunga o‘xshash hokim, amir, davlat mulozimlari haqida Amir Temur misollar tariqasida o‘z fikr va mulohazalarini, boshqacha qilib aytganda, munosabatini aniq belgilagan. U xoinlar, sotqinlar, ig‘vogarlarni yoqtirmagan, ularga ishonmagan bo‘lsa, rostgo‘y, sodiq xizmatchilar, jangchilarni qadrlagan va ularga izzat-ehtiromlar ko‘rsatgan. Ulug‘ sarkardaning odamlarga, davlat mulozimlariga ana shunday e’tibor va hushyorlik bilan qarashi uning shon-shuhratining, davlatining yanada yuksalishiga sabab bo‘ldi[278].

[277] Темур Тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 104.
[278] Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур / сўзбоши, араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи У.Уватов. – Т.: Меҳнат, 1992. I китоб. – Б. 121.

Qaysi bir sipohiy o‘zini ko‘rsatgan bo‘lsa, rag‘batlantirib haqini ado etsinlar. Qaysi bir sipohiy xizmatda yurib qarilik yoshiga yetarkan, uni oylik-haqidan mahrum etmasinlar va martabasidan tushirmasinlar. Hech bir sipohiyning xizmati nazardan chetda qolmasin. Chunki ular davlat xizmatida ekan, boqiy hayotlarini foniy dunyo naqdi uchun ayamaganining o‘zi ham in’omga va moddiy ta’minotga loyiqligini bildiradi. Uni in’omidan mahrum qilib, xizmatlarini ko‘rsatmasalar, noinsoflik qilgan bo‘lurlar.

Yana amr qildimki, qaysi bir amir yoki sipohiyning mening davlatim uchun xizmati singgani aniq bo‘lsa – g‘anim lashkarini sindirgan, biror mamlakatni zabt etgan yoki (jon-jahdi bilan) qilich chopishgan bo‘lsa, xizmatini taqdirlab, haqini ado qilsinlar. Yoshi keksa sipohiylarni hurmatlab, aziz tutsinlar. Ulardan foydali maslahatlar olsinlar, chunki ularning aytadigan gaplari o‘z tajribalarida ko‘rib, bilganlaridir. Ularni saltanat korxonasining ustunlari deb bilsinlar. Ulardan keyin o‘g‘illarini o‘rinlariga o‘tqazsinlar[279].

Ushbu tarixiy asosga ko‘ra, Yurtboshimiz ta’kidlaganidek, “Mamlakatimiz tinchligi va xavfsizligini ishonchli ta’minlash bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan harbiy ta’lim masalasiga birinchi darajali e’tibor qaratish, maktablardagi harbiy darslarga, shu hududda xizmat qilayotgan, yuksak insoniy va kasbiy xususiyatlarga ega jangovar ofitserlarni jalb etish, o‘quvchilarni harbiy qismlarga olib borib, xizmat jarayonlari bilan yaqindan yaqindan tanishtirish hamda nafaqadagi harbiylarning maktab, litseylarda dars o‘tishlarini tashkil etish maqsadga muvofiq”[280], -

[279] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. 114.

[280] Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Хавфсизлик Кенгашининг кенгайтирилган таркибдаги йиғилишда сўзлаган нутқи. 2018 йил 27 ноябрь. https: // kun. uz.

degan fikrlari orqali Sohibqironning o‘sha davrdagi tajribasidan hozirda foydalanilayotgani ma’lum.

Agar mingboshi qilich zarbi bilan g‘animning bir favj lashkariga shikast yetkazsa, uni birinchi amir etib tayinlasinlar. Birinchi amir yov lashkari safini buzib, ularni tarqatib bahodirlik ko‘rsatsa, uni ikkinchi amirlik darajasiga ko‘tarsinlar. Shunga o‘xshash, qaysi amir yov lashkari to‘pini to‘zdirib, ish ko‘rsatar ekan, uni o‘z martabasidan yuqori ko‘tarsinlar. Sipohiylardan kimki jangda astoydil qilich chopsa, oyligini oshirsinlar. Qaysi bir sipohiy majburan chekingan bo‘lsa, uzrini qabul qilsinlar. Qaysi sipohiy dushman qarshisida qilich chopib yaralansa, uni taqdirlab, in’om bersinlar. Bordiyu yaralangandan keyin qochgan bo‘lsa, unga tahsin o‘qib, yaralanganini hisobga olsinlar. Chunki u g‘animga hujum qilmagan taqdirda ham, yov hamlasi vaqtida jarohatlanganlardir, yarasi uning ne holga tushganini guvohidir[281]. Amr qildimki, aymoqlarning[282] amirlariga bittadan burg‘u taqdim etsinlar. To‘rt beglarbegining har biriga bittadan bayroq, nog‘ora, chortug‘ va bug‘ru bersinlar. (O‘n ikki) amirdan qaysi biri dushman favjini sindirsa yoki g‘anim qo‘li ostidagi biror mamlakatni fath etsa, uni taqdirlab, agar birinchi (darajali) amir bo‘lsa, ikkinchi (darajali), ikkinchi bo‘lsa uchinchi (darajali) va shu tartibda nihoyat o‘n birinchi amir bo‘lsa uni o‘n ikkinchi darajali amir qilib, **bayroq, tug‘ va nog‘ora** bersinlar. Shu yo‘sinda birinchi darajali amirga bitta tug‘, ikkinchisiga ikkita, uchinchisiga uchta, to‘rtinchisiga to‘rtta tug‘ va nog‘ora berib, ularni tumantug‘ va chortug‘ olish martabasiga yetkazib rag‘batlantirsinlar[283].

[281] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б.113-114.
[282] Аймоқ (ўмоқ) – бир неча қариндош-уруғлар иттифоқи; қабила.
[283] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б.120.

Amir Temur sipohni tashkil etishda, asosan, yuqorida koʻrib chiqqanimizdek, tabiiy tanlash qoidalariga asoslangan boʻlsa-da, ammo shu bilan bir qatorda oʻzining barlos urugʻidan chiqqanlarga hamda shaxzodalarga ham imtiyozlar bergan. Masalan, toʻngʻich oʻgʻli Muhammad Jahongir valiahdi, yaʼni merosxoʻri boʻlgan. U viloyat hokimi boʻlib, 12 ming otliq askar ulufasini olgan. Ikkinchi oʻgʻli - Umar Shayxga esa, viloyat va oʻn ming otliq askar ulufasini olish buyuriladi. Uchinchi oʻgʻli - Mironshohga esa, viloyat va toʻqqiz ming otliq askar ulufasini olish huquqi berilgan. Toʻrtinchi oʻgʻli - Shohruhga bir viloyat va yetti ming otliq askar ulufasini olgan. Nabiralariga esa ularning qobiliyatlariga qarab, bittadan viloyat, uch mingdan yetti minggacha otliq askarlar ulufasini olish huquqini beradi. Qarindoshchiligi bor kishilarga esa, ularning har biri qobiliyatiga yarasha birinchi darajali amirlikdan yettinchi darajali amirlik martabalarini beradi. Ularning qaysi biri oʻrnatilgan qonun-qoidani buzsa, haddidan oshsa, javobgarlikka tortilganlar.

Amir Temur yozganidek, “....amirlarimdan qay birlari menga jon-dili bilan hamrohlik qilgan boʻlsalar, men ham ulardan hech narsani ayamadim”[284], - deya amirlarni xizmatlariga loyiq ragʻbatlantirganini eʼtirof etadi.

Amir Temurning qonun ustuvorligi va adolatli davlat boshligʻi sifatidagi yoʻl-yoʻriqlari xali-hamon oʻzining dolzarbligini yoʻqotgan emas. Jinoyat va jazo masalasiga oʻsha davrida juda katta eʼtibor berilgan. Ayniqsa, harbiy xizmatchilar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo tayinlashda adolat tamoyillariga soʻzsiz amal qilingani manbalardan maʼlum.

Sohibqiron jinoyat va jazo masalasida nihoyatda ehtiyotkorlik bilan ish koʻrishni, avval jinoyatchini aniqlashga va

[284] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б.131.

undan keyingina qilgan jinoyatiga yarasha jazo belgilashga, hukm chiqarishga chaqirganligi juda muhimdir. Biz bu o‘rinda yana bir bor uni nafaqat harbiy ishlarni yaxshi bilgan, balki huquqiy masalalarda ham juda tiyran fikr sohibi ekanligi ko‘ramiz.

Amir Temur o‘z vorislarini ogohlantirib aytadiki, ko‘p hollarda hasadchi, ta’magir, g‘iybatchilar ko‘rolmay, yolg‘on to‘qib, chinday qilib odamlar orasida tarqatib, o‘zlarining razil maqsadlariga erishadilar. Davlat va jamiyat ichida talay olchoq, yomon odamlar bordirki, davlat dushmanlarini yaxshilab, yaxshilarni yomonlashadi. Va o‘rtaga nizo solishga harakat qiladilar. Ularning maqsadi saltanat qo‘rg‘oniga rahna solishdir, - deb hisoblaydi u. Bunga misol qilib, Amir Husayn uning vazirlaridan birini aldab, Amir Temurga sodiq bo‘lgan Amir Iygu Temur va Amir Jokuni unga qarshi qo‘yish maqsadida fisqu-fasod gap chiqaradi. Bundan xabardor bo‘lgan Amir Temur Amir Husaynning maqsadini anglagandan keyin bu uydirma gaplarni eshitmaganlikka olganini hikoya qiladi[285]. Bu borada Temur xatoga yo‘l qo‘yganligiga ham iqror bo‘ladi. Amir Abbosga nisbatan hasadgo‘ylarning gapiga ishonib, uni o‘limga hukm qiladi. Oxir oqibatda ularning xiyonatkorona ig‘volarining asl maqsadini anglab, keyinchalik qilgan ishidan o‘kingan va ko‘p pushaymon bo‘lgan. Harbiylarning raiyatga qilgan zulmi haqida avvalgi hokimlar an’anasi bo‘lganini ko‘rish mumkin.

Amir Temur zulmkorlarga, oddiy kishilarga asossiz jabru sitam o‘tkazadiganlarga nisbatan murosasiz bo‘lgan. Agarda, - deydi u, - qaysi bir sipohiy haddidan oshib, o‘z qo‘li ostidagi kishiga zulm o‘tkazar ekan, uni tutib, mazlum qo‘liga topshirishni buyuradi. Toki dodiga o‘shalar yetsinlar. Agar

[285] Темур Тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 71.

hokimlar tomonidan xalqqa jabr-zulm qilinib, ularni harob qilgan bo‘lsalar, qilgan ishlariga yarasha jazo berishni talab qiladi. Agar biror kimsaning gunohi isbotlangandan so‘ng undan jarima olsalar, darra urmasliklarini, agar darra urish bilan jazolasalar, undan jarima olmasliklarini tayinlaganlar[286].

Janglardan qochish va qo‘rqoqlik o‘limdan ham yomon jinoyat hisoblangan. Shuning uchun Amir Temur sipohi shijoat va jasurlik bilan jang qilgan. Sohibqiron saltanatida ma’naviy jazo usullari ham yaxshi samara bergan. Ayniqsa, sotqinlik eng og‘ir jinoyat hisoblangan. Biron navkar dushman bilan kelishib, o‘z egasiga munofiqlik qilsa, bunday navkar dushman qo‘liga topshirilgan. Agar sipohiy qismlardan yoki amirlardan qaysi biri yov bilan kelishib, g‘anim safiga birlashsa, ular yurtdan chiqarib yuborilgan, mamlakatda ularga o‘rin berilmagan.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, Amir Temur adolatsizlik, huquqbuzarlik sodir qilganlar uchun jazo tayinlashda qonunchilik, adolat va insonparvarlik prinsipiga asoslangan holda siyosat yuritganki, bu esa jamiyatdagi boshqa shaxslarni bunday salbiy xatti-harakatlarini sodir etishdan to‘xtatishga imkon bergan[287].

Demak, Amir Temur bir jinoyat uchun ikki xil jazo tayinlashga qarshi bo‘lib, jinoyat va jazo miqdorlarining tengligini yoqlaydi[288].

Amir Temur “Tuzuklari”da harbiy jinoyatlar va jazolar tizimi maxsus qoidalarda o‘z ifodasini topganligini ifodalaydi. Ya’ni,

---

[286] Ахмедова М.Т. Амир Темур давлатида хавфсизликни таъминлашнинг ҳуқуқий асослари. Юрид.фан.доктори....дисс. – Т.: ЖХУ, 2020. – Б.166.

[287] Маматов Х. Амир Темур тузукларида давлат ва ҳуқуқ масалалари. – Т. Янги аср авлоди, 2001. – Б. 117. Темур тузуклари.- Ўзбекистон, 2018. – Б. 94-98

[288] Ахмедов Б. Соҳибқирон Темур. – Т.: Абдулла Қодирий, 1996. – Б. 23.

- qaysi bir sipohiy urushdan yuz o‘girib, qochsa, uni iltifotimizdan mahrum etsinlar;

- agar majburan chekingan bo‘lsa, uzrni qabul qilsinlar;

- agarda uni vahima bosgan bo‘lsa, izza qilsinlar;

- qaysi sipohiy dushman qarshisida qilich chopib, yaralangandan keyin qochgan bo‘lsa, unga tahsin o‘qib, yaralanganligini e’tiborga olsinlar;

- qaysi bir sipohiy xizmatda yurib qarilik yoshiga yetar ekan, uni ulufadan mahrum etmaslik va martabasidan tushirmaslik lozim, ulardan foydali maslahat olsinlar.

Ushbu tuzukda biz Amir Temur harbiy huquq tarixida birinchi marta harbiylarga nafaqa ta’minoti joriy etganini ko‘ramiz:

- sipohiy asir bo‘lib tushsa, uni o‘ldirmasinlar;

- g‘anim sipohiylaridan qaysi biri panohimizga kelsa, bunday askarga ishonib, uni aziz tutsinlar, chunki u o‘z sohibiga vafodorlik qilib, yegan tuz namagi haqqini saqlagan.

Bu kabi hukm va tuzuklar o‘z-o‘zidan vujudga kelgani yo‘q, ularning barchasi Amir Temurning hayotiy tajribalariga tayangan, ular asosida shakllangan”[289].

Shu o‘rinda aytish kerakki, Sohibqiron o‘g‘rilarga nisbatan ham juda qattiqqo‘l bo‘lgan. Ularni “Yaso” – “Chingizxon qonunlariga” asosan jazolashni buyuradi. “...Kimki birovning molini zo‘rlik bilan tortib olgan bo‘lsa, mazlumning molini zolimdan qaytarib olib, egasiga topshirsinlar. Agar kimda-kim tish sindirsa, ko‘zni ko‘r qilsa, quloq va burun kessa, sharob ichsa, zino ishlar qilsa, devondagi shariat qozisi yoki axdos qozisiga (urf-odat, kundalik ishlarning bajarilishini nazorat qilib

[289] Муқимов З., Маматов Х. Амир Темур тузукларида давлат ва ҳуқуқ масалалари. – Т. Янги аср авлоди, 2001. – Б. 92-93.

turuvchi) olib borib topshirsinlar. Shariatga oid ishlarni hal etishda islom qozisi hukm chiqarsin. Urf-odat ishlarini esa axdos qozisi taftish qilib, so‘ng mening arzimga yetkazsin”[290].

Sohibqiron davlatida sipohiylarning jinoyat va jazo masalalari qattiq bo‘lgan. Qaysi bir sipohiy haddidan oshib, qo‘l ostidagi kishiga zulm o‘tkazsa, u mazlum qo‘liga topshirilgan va jabrlanuvchi uning jazosini bergan. Erkaklarning soqolini qirib, yuziga upa surib shahar kezdirilishi o‘lim bilan barobar jazolardan sanalgan.

Amir Temur o‘z begiga ixlos qo‘ygan va sidqidildan xizmat qilgan navkarning boyligi, davlati, noz-ne’mati kundan-kun ortib boradi, deb hisoblaydi: “...Qaysi navkar o‘z xizmati, haq-burchini unutib, ish vaqtida (mehnatdan) yuz o‘girar ekan, unday navkardan yuz o‘girmoq kerak. Qaysi navkar ish vaqtida bahona izlab, jangu jadal paytida ijozat so‘rab, qochishni mo‘ljallasa, bugungi ishni ertaga qoldirsa (Bulod va Temur o‘g‘lon boshimga ish tushganda o‘zlarini shu qabilda tutib, meni tashlab ketganlari kabi) bunga o‘xshash navkarlar, nomlarini ham tilga olishga munosib emasdirlar. Bunday kishilarni parvardigori olamga topshirish zarur”[291].

Amir Temurning fikricha, eng xavfli hamda uning uzrini kechirib bo‘lmaydigan navkar – bu jang maydonida o‘z begiga xiyonat qilganidir. Bunday kishilarni qabul qilish mumkin emas, chunki undaylar og‘ir kezlarda eski beklariga xoinlik qilgandaridek, ularni unutganlaridek, yangi beklarini ham unutadilar. “...bunday kimsani, - deb yozadi u, - xizmatga yo‘latmasinlar. Hayotning o‘zi bundaylarni qilmishiga yarasha jazosini beradi”.

[290] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 74.
[291] Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 127.

J.Raximov: “Amir Temur katta siyosat va harb maydonida band bo‘lar ekan, hech qachon oddiy va o‘rta tabaqa fuqarolar hayoti, turmushi va ahvolini unutmadi. Nafaqat tinch davr, balki uzoq safarlar chog‘ida ham ra’iyat hol-ahvolini doimo surab-surishtirib turdi. Odatdagidek, harbiy yurishlaridan qaytar ekan, birinchilardan bo‘lib xosu avom, fuqarolar, ular bilan noib va hokimlarning o‘zaro munosabatlarini nazoratsiz qoldirmadi.

Xazinani egri qo‘llardan himoya qilishga va uni davlat va xalq manfaati yo‘lida ishlatilishiga katta e’tibor berdi. Sohibqironning yetti yillik yurishdan g‘alaba bilan qaytishidan xabar topgan vaziri Xoja Mahmud Dovud uning sharafiga mahobatli jome’ masjidi qurishga qaror qiladi. Xazinadan katta mablag‘ ajratib, unga ko‘plab g‘isht teruvchi ustalar, me’mor hamda mardikorlar yolladi. Ammo me’morlar, ustalarni tanlashda jiddiy xatoga yo‘l qo‘ydi. Oqibat mas’uliyatsizlik natijasida qurilish ashyolari sifatsiz tayyorlandi, sarflangan mablag‘ o‘zini oqlamadi. Jome masjidi qurilishida bir qarashdayoq nuqsonlar yaqqol ko‘zga tashlanib turadigan bo‘ldi.

Amir Temur hali masjid yaqiniga kelmasdanoq, uning past qurilgani, burchaklaridagi noqis holatlarni angladi. Mahmud Dovud, uning kotibi Muhammad Jaldni hamda usta va me’morni o‘limga buyurdi. Masjidni butunlay buzdirib, yangidan boshlashga ko‘rsatma berdi. Negaki, ular davlat xazinasidan qurilishga katta mablag‘ sarflagan edilar”[292].

Masjid qurilishini shaxsan o‘zi kuzatib turishga qulay bo‘lishi uchun Amir Temur Saroymulkxonim madrasasiga ko‘chib o‘tdi. Bir vaqtda yer-mulk, soliq, dohiliya, xazina devonlarini taftish ishlarini boshlab yubordi. Nafsiga salgina bo‘lsa-da, erk bergan katta amaldorlar yoki vazir bo‘lsin hech bir

[292] Раҳимов Ж. Адолат ва қудрат тимсоли. – Т.: Ўқитувчи, 2017. – Б. 277.

tanish-bilish ularni himoya qilib o‘rtaga tusha olmasdi. Chunki tanish-bilishchilik jamiyatda qancha ildiz otsa, qonun va tartiblarning amal qilishi shuncha bo‘shashadi, zaiflashadi.

Bundan foydalangan qonunbuzar jinoyatchilar navbatdagi katta jinoyatlarga qo‘l uradi. Bu salbiy holatlar davlat va jamiyatni har kuni zaiflashtirib, yemirib, oqibat tanazzulga olib kelishini yaxshi bilgan Amir Temur hatto valiahdlikka nomzod amirzoda Pirmuhammadga ham bir marta yo‘l qo‘ygan xatosi uchun qilimishiga yarasha jazo bergan edi.

Adolat va qonunga qattiq rioya amal qilgan Sohibqiron shu tariqa faqat saltanat ichidagina emas, balki jahon qirollari, sultonlar, xonlar orasida e’tirof etilgan jahon hukmdori mavqeiga ko‘tarildi, odilligi, xalqparvarligi bilan nom qozondi[293].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, **birinchidan,** Amir Temur qaysi bir navkar yurish vaqtida o‘z begidan yuz o‘girsa, undan ajralib, **s**izning oldingizga xizmat istab kelsa, unday navkarga ishonib bo‘lmaydi, deb ta’kidlagan.

Ikkinchidan, navkar faqat yurish vaqtidagina emas, balki tinchlik vaqtida muntazam xizmat qilishni ixtiyor etsa, unga izzatu ehtirom ko‘rsatilgan.

Uchinchidan, navkarlardan jang paytida g‘arazgo‘y-larning fikrlariga e’tibor bermaslikka chaqirgan yoki sipohiy favjlardan va amirlardan qaysi birlari dushman bilan kelishib, u bilan do‘stu oshno bo‘lib yashashni ixtiyor etgan bo‘lsa, undaylarni yurtdan chiqarib, hech yerdan o‘rin bermaslikka chaqirgan.

[293] Раҳимов Ж. Адолат ва қудрат тимсоли. – Т.: Ўқитувчи, 2017. – Б. 277.

XULOSA

Amir Temur yer yuzidagi barcha insonlar taqdiriga nazar tashlab, ular o‘rtasida tinchlik o‘rnatib, barcha ellarda adolatsizlikni yo‘q qilish g‘oyasini ko‘tarib chiqdi. Ayniqsa, Buyuk Ipak yo‘lini tiklash yo‘lida hududlarda tinchlik va xavfsizlikni ta’minlashda buyuk ishlarni amalga oshirdi.

Mamlakatning boshqalar tarafidan parchalani-shiga yo‘l qo‘ymaydigan ijtimoiy nizom – qoida asosida boshqarilishini talab etib huquqiy davlat qurishning o‘ziga xos namunasini ko‘rsatdi. Davlatni boshqarish jarayonida ijtimoiy ruhiyatini yaxshi tushunib, buni xalqni, davlatni tinch-totuv boshqarishda mohirlik bilan qo‘llashni ta’kidladi.

Davlatni odil boshqarish aql, bilim bilan amalga oshishini bilgan sarkarda insonlar tafakkurining rivojlanishiga, aqliga, odamning ichki ruhiy dunyosini qamrab olgan uning ijodiy imkoniyatlariga chuqur e’tibor berdi.

Sohibqiron davlatni boshqarib, xalqni ushlab turish uchun odamlarni ijtimoiy toifalarga bo‘lib, har birining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olib idora etish lozimligini, shu maqsadda insonlarni o‘n ikki ijtimoiy guruhga ajratish zarur ekanligini aytgan edi. Amir Temur jamiyatdagi odamlarni o‘n ikki guruhga bo‘lganda har bir toifa odamlariga tegishli huquq, vazifa belgilab berdi. Bularning asosiy mazmuni: sayyidlar, ulamo, shayxlar; duogo‘ylar, duosi bilan ruhiy kuch beruvchilar; amirlar, sarhanglar; sipoh va raiyat; hokimlar, tabiblar, munajjimlar, muhandislar; tafsir va hadis ilmi bilan shug‘ullanuvchi olimlar; mashoyixlar, sufiylar, xudoni tanigan oriflar; kasbu hunar egalari; sayohatchilar, savdogarlar.

Ilmiy tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Amir Temur o‘z davri madaniyati yutuqlarini tasavvuf falsafasining ma’naviy-axloqiy asoslari bilan uyg‘unlashtirdi va o‘zining boy hayotiy tajribasiga tayangan holda “Tuzuklar”ni yaratdi. Uning “Tuzuklar”i faqat tarixiy jihatdan emas, balki falsafiy, ijtimoiy-iqtisodiy, harbiy bilim, ayniqsa, huquqshunoslik sohasi bo‘yicha ham alohida ahamiyatga ega.

2. Sharq va G‘arb donishmandligining boy tajribalariga asoslangan Amir Temur davlatni farovon hayotga erishtiruvchi asosiy omil, inson aqli ekanligini tushundi. Shu fikriga asoslanib u mamlakatda ilm-fanning ravnaq topishiga katta e’tibor qaratdi.

3. Sohibqiron davlat va saltanat miqyosidagi masjid, madrasalarda bilim berishning sifatli bo‘lishiga katta ahamiyat berdi. Bilim olayotgan yoshlarga birinchi navbatda “Qur’on”, hadisi sharifdagi donishmandlik fikrlarini tushuntirishni asosiy vazifa qilib qo‘ydi, ikkinchidan, ularga davlatning qonun-qoidalarini, shariatni, fiqh ilmini o‘rgatishni zarur sanadi, uchinchidan, odob-axloq masalasida payg‘ambarimiz hadislarini o‘rganish va uni rahbarlikka olish kerakligini ta’kidladi. Shu uchta sohani yoshlarning ma’naviy yuksalishini ta’minlaydigan fan turlari deb hisobladi.

4. Amir Temur mamlakatdagi har bir ishning muvaffaqiyatli bo‘lishini shu soha olimlari, mutaxassislar, bilimli insonlardan talab qilgan. Ular davlat ishlaridagi muammolarni yechishga yordamlashishi kerak deb hisoblagan. Yoshlarning ilm-fanni o‘rganishi ularning axloqiy shakllanishining zamini hisobladi, aqlli insonlar axloqli, insonparvar ham bo‘lib voyaga yetadilar,

aql bilan axloqni yoshlardagi uzviy bog‘liq fazilatlar deb ta’kidlaydi.

5. Buyuk sarkardaning g‘alabalariga uning adolat va haqiqat asosida ish ko‘rishi, harbiy taktika va davlat boshqaruv strategiyasida tug‘ma salohiyatga ega ekani, qat’iylik va shiddat bilan harakat qilishi, rejalarining mukammalligi va maslahat asosida tuzilganligi, boshlagan ishlarini jadallik bilan yakuniga yetkaza olishi, xolislik va ehtiyotkorligi, ruhiy jihatdan kuchli insonligi va shaxsiy namuna bo‘la olishi kabilar asosiy sabab bo‘lgan.

6. Amir Temur saltanatida 27 mamlakatni birlashishi natijasida ulkan iqtisodiy va madaniy taraqqiyot yuz berdi. Asrlar o‘tib, Yevropa mamlakatlarining 27 tasi o‘z ixtiyori bilan Yevropa hamjamiyatiga birlashishini Sohibqiron an’anasining XX asrdagi namunasi deb tushunish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Rahbariy adabiyotlar

1.Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.

2.Mirziyoyev SH.M. Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. Xalq so‘zi, 2018 yil 7 dekabr.

3.Mirziyoyev SH.M. Konstitusiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. Xalq so‘zi, 2019 yil 7 dekabr.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining murojaatnomasi. 2018 yil 28 dekabr. Xalq so‘zi, 2018 yil 29 dekabr.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar. Xalq so‘zi, 2020 yil 25 yanvar.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining murojaatnomasi. 2022 yil 20 dekabr. Xalq so‘zi, 2022 yil 21 dekabr

II. O‘zbekiston Respublikasining qonun va qonun osti hujjatlari

1.O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi.–T.: O‘zbekiston, 2019. - 75 b.

2.O‘zbekiston Respublikasining “Mudofaa doktrinasi to‘g‘risida”gi Qonuni // 2018 yil 9 yanvar. Xalq so‘zi, 2018 yil 10 yanva.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.

5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagi “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2995-son qarori. “O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami”, 2017 yil 29 may, 21-son, 389-modda.

6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 23 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistondagi Islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3080-son qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 31-son 782-modda.

7.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5325-son farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi, 03.02.2018., 06/18/5325/0653-son.

8.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 16 apreldagi imzolangan “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5416-son Farmoni // Qonun hujjatlari milliy bazasi., 18.04.2018 y., 06/18/5416/1079-son, 13.12.2018 y., 06/18/5597/2300-son.

9.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 24 maydagi “O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3737-sonli qarori // Xalq so‘zi, 2018 yil 25 may.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 24 dekabrdagi “Jamoat xavfsizligini ta’minlash samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4075-qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi, 25.12.2018., 07/18/4075/2370-son.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 fevraldagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4176-son qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi, 08.02.2019., 07/19/4176/2593-son.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 iyundagi “O‘smirlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4375-son qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi, 29.06.2019., 07/19/4375/3424-son.

13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 2 avgustdagi “O‘zbekistonda Islom madaniyati markazini tashkil etish to‘g‘risida”gi 572-son qarori //

O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 31-son 782-modda.

14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 fevraldagi “Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 140-son qarori // Qonun hujjatlari milliy bazasi (www.lex.uz). 2018 yil 23 fevral.

III. Manbalar

1.Abdurazzoq Samarqandiy. Matla us-sa’dayi va majma ul-bahrayn / Fors-tojik tilidan tarjima, kirish so‘z va izohli lug‘atlar A.O‘rinboyev tarjimasi. – T.: Fan, 1969. – 464 b.

2.Abdurazzoq Samarqandiy. Matla us-sa’dayi va majma ul-bahrayn / Fors-tojik tilidan tarjima va izohlar muallifi A.O‘rinboyev. 1405-1429 yil voqealari. – T.: Fan, 2008. – 632 b.

3.Abdurazzoq Samarqandiy. Matla us-sa’dayi va majma ul-bahrayn / Fors-tojik tilidan tarjima va izohlar muallifi A.O‘rinboyev. 1429-1470 yil voqealari. – T.: Fan, 2008. – 832 b.

4.Alisher Navoiy. Asarlar. 15 tomlik. T.12. Majolisun nafois. Nashrga tayyorlovchi S.G‘aniyeva. – T.: O‘qituvchi, 1996. – 216 b.

5.Amir Temur va Ulug‘bek zamondoshlari xotirasida. / B.Ahmedov, U.Uvatov, G‘.Karimov va boshqalar. – T.: O‘qituvchi, 1996. – 312 b.

6.Bahodirxon Abulg‘oziy. Shajarai turk / Mas’ul muharrir va so‘z boshi muallifi B.A.Ahmedov. – T.: Cho‘lpon, 1990. - 192 b.

7.Vosifiy, zayniddin Mahmud. Badoye’ul vaqoye’ – Nodir voqealar / Forsiydan N.Norqulov tarjimasi. – T.: Adabiyot va san’at, 1979. – 216 b.

8.Davlatshoh samarqandiy. Shoirlar bo‘stoni (“Tazkirat ush-shuaro”dan) Fors-tojik tilidan B.Ahmedov tarjimasi. She’rlarni S.Rahmon tajima qilgan. – T.: Adabiyot va san’at, 1981. – 224 b.

9.Ibn Havqal. Kitob surat al-ard. Movarounnahr / Arab tilidan tarjima va izohlar muallifi SH.S.Kamoliddin. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2011. – 400 b.

10. Mirxond. Ravzat us-safo: Amir temur va Ulug‘bek zamondoshlari xotirasida / B.Ahmedov, U.Uvatov, G‘.Karimov va boshqalar. – T.: O‘qituvchi, 1996. – 135 b.

11. Muiniddin Natanziy. Muntaxab ut-tavorixi muiniy / Fors tilidan tarjima, so‘z boshi va izohlar muallifi g‘ulom karimiy. – T.: O‘zbekiston, 2011. – 264 b.

12. Rui Gonsales de Klavixo. Amir Temur Ispaniya elchisi nigohida / Mas’ul muharrir va so‘zboshi muallifi akademik A.Saidov. tarjimon U.Jo‘rayev. – T.: Zaminnashr, 2019. – 176 b.

13. Temurnoma: Amir Temur Ko‘ragon jangnomasi. -T.: CHo‘lpon, 1991.-352 b.

14. Temur tuzuklari. – T.: O‘zbekiston, 2018. – 180 b.

15. Hakimjonov, tarjimani qayta ishlab nashrga tayyorlovchi va mas’ul muharrir – A.O‘rinboyev, izohlar va lug‘atlarni tuzuvchi – H.Karomatov (jo‘g‘rofiy nomlar izohi – O.Bo‘riyevniki). – T.: O‘zbekiston, 1996. – 528 b.

16. Fasih Xavofiy. Mujmal-i Fasihiy / D.Yusupova tarj. – T.: Fan, 1980. – 346 b.

17. Fahruddin Ali Safiy. Rashahot / Nashrga tayyorlovchi va so‘zboshi muallifi M.Hasaniy, lug‘at, so‘ngso‘z muallifi va nashrga tayyorlovchi B.Umrzoq. – T.: Abu Ali Ibn Sino, 2003. – 536 b.

18. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma / So‘z boshi, tabdil, izohlar va ko‘rsatkichlar mualliflari A.Axmad va H.Bobobekov. - T.: Sharq, 1997. -384 b.

19. Hofizu Abru. “Geografiya”dan // Temuriylar bunyodkorligi davr manbalarida. – B. 74-75.

20. Husayn Voiz Koshifiy. Axloqi muhsiniy / Fors tilidan M.Hasaniy, A.Hakimjonov, A.Madraimov va N.Komilovlar tarjimasi. Nashrga tayyorlovchi A.Madraimov. – T.: O‘zbekiston. – 415 b.

IV. Maxsus adabiyotlar

1.Abduraimov M. Temur va Tuxtamish. - T.: G‘afur G‘ulom, 2000. - 80 b.

2.Azizxo‘jayev A. Davlatchilik va ma’naviyat. – T.: Sharq, 1997. -112 b.

3.Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. – T.: Sharq, 2000. – 365 b.

4.Azizov M., Zohidov P., Karim Amirqul. Buyuklik yo‘li. – T.: Navro‘z, 2015. – 251 b.

5.Azimov E. Amir Temur saltanati. - T.: G‘afur G‘ulom, 1996.- 88 b.

6.Aleuov O‘. Emir Temurdsh jemiyetlik - filosofiyatshq hem telim - tarbiyalamoq oy - pikirleri. - N.: Bilim, 1997. -52 b.

7.Amir Temur faxrimiz, g‘ururimiz. - T.: O‘zbekiston, 1998. - 207 b.

8.Amir Temur jahon tarixida. BMT. YUNESKO. Parij., 1996. -T.: Sharq, 1996.- 293 b.

9.Amir Temur hikmatlari. -T.: Mehnat, 1996.-96 b.

10. Amir Temur va Ulug‘bek zamondoshlari xotirasida. – T.: O‘qituvchi, 1996.

11. Amir Temur va Ulug‘bek zamondoshlari xotirasida. - T.:O‘qituvchi, 1996.- 312 b.
12. Amir Temur vasiyati. - T.: G‘afur G‘ulom, 1991. - 16 b.
13. Amir Temur Ko‘ragon. Zafar yo‘li / A.Axmedov tarjimasi. – T.: Nur, 1992. – 142 b.
14. Axmedov B.A. O‘zbekiston tarixining manbalari. – T.: Fan, 1991. – 268 b.
15. Axmedov B.A. Tarixdan saboqlar. – T.: O‘qituvchi, 1994. – 430 b.
16. Axmedov. B. O‘zbekistonning atoqli tarixshunos olimlari. – T.: CHo‘lpon, 2003. – 29 b.
17. Axmedov B. Sohibqiron Temur. – T.: Abdulla Qodiriy, 1996. – 133 b.
18. Axmedov B. Mirzo Ulug‘bek. – T.: Yozuvchi, 1994. – 288 b.
19. Axmedov B. Amir Temur. – T.: Meros, 1995. – 640 b.
20. Axmedov B. Amir Temurni eslab. – T.: O‘zbekiston, 1996. – 134 b.
21. Bartold V.V. Soch. T.1. Turkestan v epoxu mongolskogo nashestviY. – M.: Nauka, 1963. – 760 s.
22. Bartold V.V. Ulug‘bek i yego vremY. Soch. T.2. – M.: Nauka, 1964. – 657 s.
23. Bartold V.V. Geograficheskiy ocherk Maverannaxra // Soch. T.1. – M.: Nauka, 1963. – S. 256-273.
24. Bartold V.V. Temur. – M.: Brokgauz-Yefron, 1976. – 164 s. Bartold V.V. Temuridi. T. XXXIII. – SPb: B.4., 1901. – 278 s.
25. Boboyev H.B. Amir Temur va temuriylar saltanati. MonografiY. - T.: Kamalak, 2006. -199 b.

26. Boboyev H.B. Amir Temur va uning qarashlari. -T.: O‘zbekiston, 1992.-80 b.
27. Boboyev H.B., Normatov K. Milliy davlatchilik haqida. – T.: Adolat, 1999.
28. Boboyev H., G‘ofurov Z. O‘zbekistonda siyosiy va ma’naviy-ma’rifiy ta’limotlar taraqqiyoti. – T.: Yangi asr avlodi, 2001. – 480 b.
29. Boboyev H. O‘zbek davlatchiligi tarixi. I kitob. – Toshkent. Fan, 2004. – 294 b.
30. Boboyev H.B. Siyosiy huquqiy ta’limotlar tarixi. – T.: TDYUI, 2003. – 154 b.
31. Berdiyev Y. Jahongir qo‘shigi. – T.: Fan, 2012. - 80 b
32. Bo‘riyev.O. Temuriylar davri yozma manbalarda Markaziy Osiyo: tarixiy - geografik lavhalar. - T.: O‘zbekiston, 1997.- 186 b.
33. Dadaboyev H. Amir Temurning harbiy mahorati. – T.: Yozuvchi, 1996.-94 b.
34. Ziyoyev H.Z. Tarixning ochilmagan sahifalari. – T.: Mehnat, 2003. - 180 b.
35. Ziyoyev H.Z. Buyuk Amir Temur saltanati va uning taqdiri. – T.: Ma’naviyat, 2008. - 154 b.
36. Zohidov P. Temur davrining me’moriy qahqashoni. - T.: Sharq, 1992.-19b.
37. Ivanin I. Ikki buyuk sarkarda: Chigizxon va Amir Temur. – T.: Sharq, 1993. – 104 b.
38. Karimov SH., Shamsuddinov R. Sohibqiron Amir Temur va uning saltanati. - Andijon: 1995. – 192 6.
39. Kayumov A. Amir Temur qissalari. –T.: Yozuvchi, 1996. - 32 b.

40. Koren L. Amir Temur salatanati. – T.: O‘zbekiston, 2018. – 247 b.
41. Murodov G. Amir Temur abadiyati. -T.: Fan, 2012. -39 b.
42. Muhammadjonov A. Temur va temuriylar saltanati: Tarixiy ocherk. – T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1996. – 127 b.
43. Muxammadjanov A. Temur va temuriylar saltanati. -T.: Qomuslar bosh tahririyati, 2012. – 160 b.
44. Muqimov Z.Y. O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi. – T.: Adolat, 2004. – 280 b.
45. Muqimov Z., Mamatov X. Amir Temur tuzuklarida davlat va huquq masalalari. MonografiY. – T.: Yangi asr avlodi, 2001. – 119 b.
46. Nabiyev A. Mustaqillik uchun kurash yohud parchalangan Turkiston tarixi. – T.: Yozuvchi, 2011. – 96 b.
47. Raximov J. Adolat va qudrat timsoli. – T.: O‘qituvchi, 2018. – 376 b.
48. Saidov A.X., Toshqulov J. O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi. – T.: Akademiya, 1995. – 292 b.
49. Sagdullayev.A. O‘zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – T.: Akademiya, 2000. – 201 b.
50. Sagdullayev A., Mavlonov O‘. O‘zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi. –T.: Akademiya, 2006. – 140 b.
51. Saidov A., Tojixonov U. Huquqiy madaniyat nazariyasi. Darslik. – T.: Adolat, 1998. – 672 b.
52. Saidov A., Koren L. Amir Temur va FransiY. – T.: Adolat, 2016. – 559 b.
53. Sattoriy H. Amir Temur sevgan yurt. – T.: O‘zbekiston, 1996. – 128 b.

54. Sohibqiron saboqlari. – T.: O‘qituvchi, 2013. – 168 b.
55. Toshqulov.J. O‘zbekiston xalqlari siyosiy-huquqiy fikrlari tarixidan. – T.: O‘zbekiston, 1996. – 127 b.
56. Uvatov U. Sohibqiron arab muarrizlari nigohida. – T.: Sharq, 1997. – 160 b.
57. Fayziyev M. Amir Temurning davlatchilik, mustaqillik va qonunchilik haqidagi g‘oyalari. – T.: Meros, 1996. – 40 b.
58. Fayziyev T.Temuriy malikalar. -T.: Xalq merosi, 2004. – 40 b.
59. Fayziyev T. Mirzo Ulug‘bek avlodlari. – T.: Yozuvchi, 1994. – 40 b.
60. Fayziyev T. Temuriylar shajarasi. – T.: Yozuvchi, 1995. – 350 b
61. Xayrullayev M.M tahriri ostida. O‘zbek diplomatiyasi tarixidan. T.: 2003. – 376 b.
62. Xamidova M.A. O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi. – T.: TDYUI, 2004. – 191 b.
63. Xolbekov M. Amir Temurning Yevropa qirollari bilan yozishmalari. Samarqand: Meros, 2012. – 38 b.
64. Xolbekov M. Amir Temurning Yevropa qirollari bilan yozishmalari. Samarqand: Meros, 2012. – 38 b.
65. Xolliyev G., G‘ulomov X. O‘zbekiston tarixi. – T.: Universitet, 1997. - 423 b.
66. Yusupova D.Y. Jizn i trudi Xondamira. – T.: Fan, 2006. – 328 b.
67. Yakubovskiy A.Y., Grekov B.D. Zolotaya Orda i yeye padeniye. – M.: O‘quvpeddavrnashr, 1937. – 214 s.
68. Yakubovskiy A.Y. Istoriya narodov Uzbekistana. – T.: AN UzSSR, 1950. – 474 s.

69. O‘zbekiston davlatchiligi tarixi: (Ocherklar) / Mas’ul muharrirlar: D.A.Alimova, E.V.Rtveladze. – T.: Sharq, 2001. – 224 b.

70. O‘zbekiston milliy davlatchilik nazariyasining huquqiy asoslari. Ikkinchi kitob / M.M.Fayziyev, Z.Muqimov, X.T.Odilqoriyev va boshq; Bosh muharrir R.Ro‘ziyev. – T.: Falsafa va huquq instituti, 2005. - 160 b.

71. O‘zbek Sovet ensiklopediyasi. Zufarov K.A muharrirligi ostida. – T.: 1979. 14 tom. – 643 b.

72. O‘zbek Milliy ensiklopediyasi. – T.: O‘zbekiston, 2005. 11-tom. – 645 b.

73. O‘zbekiston Respublikasi ensiklopediyasi. Mas’ul muharrir M.Aminov. – T.: Qomuslar bosh tahririyati. 1997. - 714 b.

74. O‘ljayeva SH. Amir Temur davlat boshqaruvi. Tashqi siyosat. DiplomatiY. MonografiY. – T.: Akademnashr, 2017. – 245 b.

75. O‘ljayeva SH. Amir Temur diplomatiyasi. MonografiY. – T.: IJOD-PRESS, 2018. – 155 b.

76. Qayumov A. Amir Temur qissalari. – T.: Yozuvchi, 2000. – 32 b.

77. Qodirov M. Temur va temuriylar davrida tomosha san’atlari. - T.: G‘afur G‘ulom,1996. - 64 b.

78. Quronov M., To‘rayev SH va boshqalar. Milliy tarbiya va yoshlar dunyoqarashini shakllantirish. O‘quv qo‘llanma. – T.: Muharrir, 2017. – 135 b.

79. G‘oibov N. Amir Temur davri ma’naviyati. – T.: Adabiyot va san’at. 2001. – 145 b.

V. Davriy adabiyotlar

1.Abduazizov A. Sohibqiron jahon ko‘zgusida. // Xalq so‘zi, 2013 yil 14 fevral.

2.Abdullayev A. Amir Temur ilm-fan homiysi. Vatanparvar. 2013 yil 2 aprel.

3.Azamat Ziyo. Amir Temur va temuriylar davlat boshqaruvi,qonunchilik va harbiy siyosat. // O‘zbekiston ovozi, 2013 yil 10 oktabr.

4.Alimova R. Amir Temur va ma’naviy qadriyatlar. Amir Temur saboqlari // xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. – T.: Sharq, 1997. – B. 13-16.

5.Alimov O‘. Haybatli qo‘mondon Temur // “VATANPARVAR” 2017 yil 24 noyabr.

6.Bunyodov Z. Anushtegin Xorazmshohlar davlati. – T.: Adabiyot va san’at, 1997. – B.125-126.

7.Dadaboyev H. Amir Temurning harbiy mahorati // Amir Temur va uning jahon tarixidagi o‘rni: Xalqaro konferensiya materiallari. – T.: O‘zbekiston, 1196. – B. 28-29.

8.Juzjoniy A.SH. Amir Temur davlatida qonun ustuvorligi. Amir Temur saboqlari // “Amir Temur va uning markazlashgan davlat tuzish yo‘lidagi buyuk xizmatlari” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – T.: Sharq, 2001. – B.16.

9.Zohidiy A. Zakiy Validiy talqinida // Fan va turmush. 196. - № 6. – B. 6-8.

10. Norqulov N. Amir Temurning iqtisodiy siyosati // Ma’rifat, 2013 yil 22 may.

11. Olimov A. Amir Temur saltanatida qo‘shin tuzilishi. Amir Temur saboqlari materiallari. – T.: Sharq, 2001. – B. 31.

12. Raximov J. Amir Temur “Tuzuklari”da adolat va qudrat mezoni. Bobur va dunyo jurnali. 2017 yil № 2. – B. 8-11.

13. Kurahmedov A. Amir Temur kutubxonasi. // Ma’rifat, 2012. 8 may

14. Xaydarov B. Sohibqironning harbiy mahorati / VATANPARVAR. 2018 yil 13 aprel. 15-son.

15. Xoliqova D. Sohibqiron harbiy san’atining psixologik jihatlari // “VATANPARVAR”, 2018 yil 16 aprel.

V. Dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferatlari

16. Axmedova M.T. Amir Temur davlatida xavfsizlikni ta’minlashning huquqiy asoslari. Yurid.fan.doktori....diss. – T.: JXU, 2020. – 256 b.

17. Axmedova M.T. Amir Temur davlatida xavfsizlikni ta’minlashning huquqiy asoslari. Yurid.fan.doktori....dissertatsiya avtorefer. – T.: JXU, 2020. – 56 b.

18. Abidjanova D.S. Maveraunnaxr epoxi pravleniya Amira Temura v angloyazichnoy istoriografii 60-90-x godov XX v. Aftoref.dis...kand. ist. nauk. – T.: 2001. – 26 s

19. Boboyev H.B. O‘zbekistonda XIV-XVI asrlarda siyosiy va huquqiy ta’limotlar. Yurid.fan.doktori...dis avtoref... – T.: 1993. – 48 b.

20. Mamatov X. Temur tuzuklarida davlat va huquq masalalari. Yurid.fan.nomzodi...dis avtoref... – T.: 2002. – 23 b.

21. Muqimov Z. Osnovniye istoricheskiye istochniki prava Uzbekistana (VIII-XIX vv.) Aftoref. dis...dok. yurid. nauk. – T.: TGYUI, 1998. - 50 s

22. Tillaboyev R.A. Sredneaziatskiye geograficheskiye sochineniya XV —XVI vv.kak istoricheskiy istochnik (jitiya

sheyxov nakshbandiya): Aftoref.dis...dok. ist. nauk. - T.:1994. - 54 s

23. To‘laganov A. Rol is mesta Amira Temura v razvitiya uzbekskoy gosudarstvennosti (na osnove ulojeniy Temura): Avtoref.dis: Kand.yurid.nauk. – T.: 1996. - 24 s.

24. To‘laganov A.A. Amir Temurning o‘zbek davlatchiligining rivojlanishida tutgan o‘rni va mavqei. (Temur tuzuklari asosida). Yurid.fan.nomzodi... Dissertatsiya avtoref. – T.: 1996. – B. 16.

25. Usmonov B.A. Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatining Rossiya tarixshunosligida yoritilishi: Tarix. fan. nomz... diss. – T.: O‘zFA SHI, 2004. – 166 b.

26. Xidirov S.M. Amir Temur davlatining tashkil topishi va davlat tuzumi. Yurid.fan.nomzodi... Diss. – T.: 2002. – 193 b.

VI. Chet el adabiyotlari

1.Armstrong K. Islam: A short history. London. 2001.

2.Grousset R. The Empire of the Steppes: A History of Central Asia / translated by Naomi Walford. New Brunswick, 1970.

3.Soucek S. A History of Inner Asia. Cambridge, 2000.

4.Hambly G. Central Asia. New York, 1969.

5.Central Asia in historical perspective, Ebited by Beatric Mans. – Oxford: West viw press, 1994. – 245 p.

6.Togan A.Z.V. Cazan Han Halil ve Hoca Bahaeddin Naksibend (forscha) - Oriental college magazine Lahore. – Ankara, 1964. – 134 b.

7.Togan A.Z.V. Dogu turkleri icin kultur birligi fikrinin ehemmiyeti. – Ankara. // Musahit. – 1956. №6. – B. 1-8.

8.Ismoil aka. Buyuk Temur davlati. – T.: CHo‘lpon, 1996. – B.158.

9.El-Maverdi. El-Ahkamo`s – Sultaniye…. – S.78-79

10. To‘g‘on A.V.Z. Temur Bekning islomiyatga boqishi. – Istambul, 1932.

11. To‘g‘on A.V.Z. Temur tarixi. – Istambul, 1985. Temur va o‘g‘illari. – Anqara, 1996.

12. Jan-Pol Ru. Tamerlan / Per s. Fr. YE.A.Sokolova; Poslesl. V.L.Yegorova. – M.: Molodaya gvardiya, 2004. – 259 s.

VII. Internet saytlari:

1.httr://www.gov.uz - O‘zbekiston Resrublikasi hukumat rortali rasmiu sauti.

2.httr://www.soliq.uz// – O‘zbekiston Resrublikasi Davlat soliq qo‘mitasi rasmiu sauti.

3.httr://www.mf.uz// – O‘zbekiston Resrublikasi Moliua vazirligi rasmiu sauti.

4.httr://www.norma.uz//– Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliu bazasi rasmiu sauti.

5.httr://www.lex.uz// – O‘zbekiston Resrublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Huquqiu axborot bilan ta’minlash markazi rasmiy sayti.

MUNDARIJA

KIRISH..... 3
I BOB. AMIR TEMUR DAVRIDA DAVLAT BOSHQARUVINING HUQUQIY ASOSLARI..... 5
1.1. Amir Temur davlati tashkil topishi va boshqaruvi 5
1.2. Amir Temur davlat boshqaruvining asosiy tamoyillari 20
1.3. “Temur tuzuklari”ning huquqiy manba sifatidagi o‘rni va ahamiyati 40
II BOB. AMIR TEMUR DAVLATI XAVFSIZLIGI TA’MINLANISHINING PRINSIPLARI VA USULLARI 52
2.1. Mamlakat chegaralari xavfsizligining daxlsizligi..... 52
2.2. Jamoat tartibi va xavfsizligi ta’minlashning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari 68
2.4. Davlatning ichki va tashqi siyosatida axborot xavfsizligi 80
III BOB. MUDOFAA VA HARBIY XAVFSIZLIKNING ASOSIY VAZIFALARI VA YO‘NALISHLARI..... 90
3.1. Xavfsizlikni ta’minlashda harbiy-siyosiy kengashlar..... 90
3.2. Davlatda harbiy xizmat tartibi va intizomi 102
3.3. Amirlik institutining takomillashuvi va harbiy darajalar 126
3.4. Harbiy xizmatchilarning rag‘batlantirilishi va jazo tizimi 142
XULOSA 157
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI 160
I. Rahbariy adabiyotlar..... 160
II. O‘zbekiston Respublikasining qonun va qonun osti hujjatlari 160
III. Manbalar..... 163
IV. Maxsus adabiyotlar 165
V. Davriy adabiyotlar..... 171
V. Dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferatlari..... 172
VI. Chet el adabiyotlari 173
VII. Internet saytlari: 174

Axmedova Muqaddasxon Tursunovna,
yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent
Devyatkin Aleksandr Valeryevich
dotsent

AMIR TEMUR DAVLATIDA XAVFSIZLIK MASALALARINING HUQUQIY ASOSLARI

Monografiya

Muharrir: N.Niyazova
Musahhih: R.Yunusova
Texnik muharrirlar: A.Muhamedov, Z.Murakayeva

Bosishga ruxsat etildi 28.03.2023. Buyurtma № 37. Qog‘oz bichimi 60x84/16.
Times New Roman garniturasi bilan raqamli bosma usulda chop etilgan.
Hajmi 11,0 sh.b.t., 7,2 n.-h-t. Adadi 2 nusxa.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti bosmaxonasi